

Sh.D.Egamova, A.A.Ubaydullayev,
F.A.Abdujabbarova

**ESKI
O'ZBEK
YOZUVI**



CH0000036215

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SH.D.EGAMOVA, A.A.UBAYDULLAYEV,
F.A.ABDUJABBAROVA

ESKI O'ZBEK YOZUVI

Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan bakalavriat talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*



Toshkent
"MUMTOZ SO'Z"
2021

UO'K: 1.92

KBK: 81.2(50')

"Eski o'zbek yozuvi" (amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar) nomli ushbu o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Ushbu o'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanib, 5111200 – o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishining DTS hamda "Eski o'zbek yozuvi" fani dasturi asosida ishlab chiqildi.

O'quv qo'llanmada "Eski o'zbek yozuvi" fanining barcha mavzulari bo'yicha tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar tizimi tavsiya etildi.

Taqrizchilar:

f.f.doktori, professor H.Boltaboyev

f.f.nomzodi, dotsent I.Nosirov

81.2(50')

Eski o'zbek yozuvi. amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar. O'quv qo'llanma / Sh.Egamova, A.Ubaydullayev, F.Abdujabbarova. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2021. – 310 b.

O'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kengashida muhokama etilib, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6085-4-2

© Sh.Egamova, A.Ubaydullayev, F.Abdujabbarova, 2021

© "MUMTOZ SO'Z", 2021

SO'Z BOSHI

Eski o'zbek yozuvi oliy o'quv yurtlarining universitet va pedagogika institutlari filologiya va tarix fakulteti bakalavriat bo'limlarida namunaviy o'quv dasturi asosida o'qitilishi rejalashtirilgan. Universitetning filologiya fakultetlarida birinchi kurs, II semestrda model tizimi asosida o'quv dasturiga binoan o'qitiladi. Ushbu o'quv qo'llanmaga mazkur kurslarda o'tkaziladigan eski o'zbek yozuvi amaliy mashg'ulotlar mavzusi va mashg'ulot ishlanmalari matni saralab olingan, zarur darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy adabiyotlar jamlanib oxirida ko'rsatilgan.

Ma'lumki, ilgari o'rta maktab o'quvchilari va oily o'quv yurti talabalari uchun va mustaqil o'rganuvchilarga mo'ljallangan Abdullayev F., Shermuhammedov T., Xalilov L., Xalilov A. O'qish kitobi (Toshkent: O'qituvchi. 1994); Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M. va G'oziyev A. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi (Toshkent: Ijod uyi. 2006); F.Is'hoqov. Eski o'zbek tili va yozuvi (Toshkent: O'qituvchi. 1995); Jumanioyozov R. Eski o'zbek yozuvi (Toshkent: O'qituvchi.1989); Juvonmardiyev A. Harflar raqmlarga aylanganda (Toshkent, 1964); Hamidov Z., Egamova Sh., Ubaydullayev A. Eski o'zbek tili va yozuvi (Ma'ruza matni) (Toshkent, 2001); Hamidova M. Abjad hisobi va u bilan bog'liq harfiy san'atlar (TDPU. – Toshkent, 2005); Sharofiddinov., Qosimov G'. Eski o'zbek yozuvi (Andijon, 1993) kabi darslik va qo'llanmalar mutaxassislar tomonidan dastur asosida tayyorlanib, bir necha bor nashr etilgan bo'lsa-da, bugungi kun o'quvchisiga aniq yo'llanma beruvchi amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv qo'llanmalar yetarli emas. Ayniqsa, eski o'zbek yozuvidagi harf, belgi va uning tovushlar tartibi xususida ham yo'llanma beruvchi uslubiy tavsiyanomalar yozilmagan. Eski o'zbek yozuvining harflari, yozuv bilan bog'liq harakatlar, ularning qisqa tovush ifodasi kabi imloviy xususiyatlari alohida tushuntirish kerakligini taqozo etadi.

Turli davrlarda yaratilgan turkiy matnlarda uchraydigan arab, fors-tojik tillaridan o'zlashgan so'zlarni to'g'ri yozish imlosi ham chigal, o'quvchiga tezda tushuntiradigan mavzu emas. Bu esa keng, batafsil izoh berishni talab etadi. Ushbu masalalarga to'xtalish, eski o'zbek yozuvini chuqur o'zlashtirish, avvalo matnni o'qiy oladigan darajada bo'lishni, Oliy o'quv yurtlarida esa chuqur nazariy va amaliy ma'lumotga ega bo'lishda, talabalar og'zaki va yozma nutqining rivojlanishida mazkur amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan dastlabki foydalanish mumkin bo'lgan o'quv qo'llanma hisoblanadi.

"Eski o'zbek yozuvi" fanidan o'quv rejasiga muvofiq talabalarining mustaqil ishlashlarini tashkil etish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish, og'zaki va yozma nutqini o'stirish hamda ilmiy izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ajratilgan barcha o'quv soatlari amaliy mashg'ulotlar o'tish uchun rejalashtirilgan.

"Eski o'zbek yozuvi" fanidan tashkil etiladigan amaliy mashg'ulot darslarida talabalarning mashg'ulot davomida egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish hamda ko'nikma hosil qilish maqsadida o'tilayotgan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda tahlillar, tajribalar olib borish masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda o'qitishning eng ilg'or usullaridan foydalanib ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etish ko'zda tutiladi.

"Eski o'zbek yozuvi" fanidan olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar avvalo, talabalarining o'qituvchi hamkorligi va nazoratida olib boradigan o'quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulot shaklidir. Dars mashg'uloti davomida bajariladigan ishlarining o'qituvchi nazorati ostida amalga oshirilishi mavzuga oid ilmiy xulosalarning talabalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi. Amaliy mashg'ulotda asosan mavzu bo'yicha bajarilishi ko'zda tutilgan amaliy ishlar nazariy masalalarni mustaqil tahlil qilishga qaratiladi. Shuning uchun har bir mashg'ulotda talaba mustaqil izlanish olib borishi, berilgan misollarni

o'zaro qiyoslashi, tahlil qilishi, husnixat mashqlari ustida ishlashi, izohli lug'atlardan unumli foydalanishi, toshbosma va qo'lyozma matnning farqiga borishi, harflarning yozilish o'rni va shakli haqida chuqur bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi, umumiy xulosa chiqarishi hamda o'z fikrini to'liq bayon eta olishi lozim bo'ladi.

O'quv qo'llanmada amaliy ishlar mavzuning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda belgilangan va quyidagi shakllarda olib borilishi tavsiya etiladi:

1. Jamoa bo'lib ishlashga qaratilgan amaliy ishlar.
2. Yakka tartibda ishlashga mo'ljallangan amaliy ishlar.

Amaliy ishni bajarishda talaba avval mavzuga doir berilgan nazariy ma'lumotlarni diqqat bilan eshitishi va tushuncha hosil qilishi lozim. Shu maqsadda o'quv qo'llanmada har bir mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar va mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar tahlilini o'tkazishga qaratilgan topshiriqlar berilgan.

O'quv qo'llanmada nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun turli hajm va ko'rinishdagi rang-barang topshiriq hamda vazifalar berildi. Jumladan, amaliy mashg'ulot mavzusidan kelib chiqqan holda o'quv qo'llanmada har bir harfning yozilish shakllarini tahlil qilish yuzasidan husnixat mashqlari ustida ishlash, harflarni hosil qiluvchi shakllar (unsurlar) tahlili, yozuvda harflarning bog'lanishi, ularning satr chig'iga nisbatan yozilishi, harflarning uslubiy ko'rinishlari, arab xat turlari va ularning imlosi, arab tiliga xos tovushlarni ifodalovchi harflarning talaffuzi va imlosi, mavjud harflarning umumiy va xususiy jihatlarini taqqoslash, unli tovushlarning yozuvda ifodalanishi va ularning ko'rinishlari, faktik misollarni qiyoslash asosida umumiy xulosa chiqarish, turli jadvallar bilan ishlash, o'zlashgan so'zlarni izohli lug'at yordamida aniqlash, har bir so'zning matniy ma'nosini izohlash, arab, fors-tojik tilidan tilimizga o'zlashgan izofaviy birliklarning talaffuzi va imlosini uzoblash, matnni lingvistik tahlil qilish, qo'lyozma matnlar ustida ishlash, ilmiy va uslubiy manbalar ustida ishlash va ularga munosabat bildirish, ilmiy sharhlar yozish, joriy imlodan arab yozuviga va arab yozuvidan joriy

imloga tabdil qilish, har bir matnda uchraydigan o'zlashma so'zlar lug'ati ustida ishlash kabi turli topshiriqlar ishlab chiqilgan. Mashg'ulot davomida o'qituvchi ulardan ma'qulini (talabalarning bilim darajasi, mavzuni o'zlashtirishiga qarab, belgilangan vaqt va ajratilgan soatga orasida) ixtiyoriy tanlab, o'quv mashg'ulotini tashkil etishi mumkin. Shuningdek, "Eski o'zbek tili va yozuvi" fani bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalardan olingan ayrim mashqlar, matnlar berilib, ular ustida ishlash ham tavsiya etilgan.

O'quv qo'llanmadan talabalarga uyga vazifa sifatida beriladigan amaliy topshiriqlar ham o'rin olgan. Bunday topshiriqlar ham talabalarni mustaqil ishlash hamda og'zaki va yozma nutqini o'stirish bilan bir qatorda ularda bilim, ko'nikma va malakaning shakllanishiga hamda umumiy xulosa chiqarishiga undaydi.

O'quv qo'llanma shu fanni to'liq qamrab olgan bo'lib, fandan amaliy mashg'ulotlarni o'tishda foydalanishni ko'zda tutadi.

Ushbu o'quv qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Tillar fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedراس dotsenti, f.f.nomzodi Sh.Egamova va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU "O'zbek tilshunosligi" kafedراس o'qituvchisi, f.f.nomzodi, dotsent v.b. A.A.Ubaydullayev, Nizomiy nomidagi TDPU Tillar fakulteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedراس o'qituvchisi, f.f.nomzodi, dotsent v.b. F.Abdujabbarovalar tomonidan tayyorlangan bo'lib, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti "Sharq tillari" kafedراس dotsenti, f.f.nomzodi N.Sulaymonova, o'qituvchi S.Abdunabiyevalar tomonidan tuzilgan "Eski o'zbek tili va yozuvi" fani namunaviy o'quv dasturi (28.08.2018 yil № 1-son qarori bilan tasdiqlangan) asosida ishlab chiqilgan hamda 5111200-o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablarga muvofiq lashtirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmani tuzishda fanni o'qitishda shu kunga qadar erishilgan ilmiy va uslubiy natijalar hamda so'nggi nazariy xulosalar ham e'tiborga olingan.

O'quv qo'llanma oily o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga "Eski o'zbek yozuvi" fanini o'rgatish bo'yicha tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarni o'tishda asosiy manba vazifasini o'taydi.

Ziyodulla Hamidov
f.f.nomzodi, dotsent

ARAB GRAFIKASIDAGI ESKI O'ZBEK YOZUVI



Eslatma: Arab alifbosi jami 28 harfdan iborat. Eski o'zbek yozuvida esa 32 ta harf bor. Muayyan bir tildagi tovushlarni ifodalovchi harflar ikkinchi bir tilga tegishli bo'lgan ayrim tovushlarni ifodalashga hamisha ham qodir bo'lavermaydi. Tabiiyki, bunday hollarda ikkinchi tilga tegishli harflar qabul qilish zaruriyati tug'iladi. VIII asrdan boshlab arab alifbosini o'z yozuvi sifatida qo'llab kelgan forsiy xalqlar arab alifbosiga o'z tillaridagi ayrim tovushlarni ifodalovchi to'rtta پ (pe), چ (chim), ج (je), گ (got) harflarini qo'shganlar.

Alifboning jadvali

Harfnin g nomi	Harfning hozirgi ko'rinishi	Harflarning yozilishi			
		So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Yolg'iz holda
Alif	O,a	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	س	س	س	س
Jim	J	ج	چ	چ	ج
Chim	Ch	چ	چ	چ	چ
Ho-ye hutti	H	ح	ح	ح	ح
Xe	X	خ	خ	خ	خ
Dol	D	د	د	د	د
Zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Z	ز	ز	ز	ز
Жe	Ж	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
Shin	Sh	ش	ش	ش	ش
Sod	S	ص	ص	ص	ص
Zod	Z	ض	ض	ض	ض
To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
Ayn	- (' ayirish	ع	ع	ع	ع

	belgisi, hozirgi tutq belgisi o'rinda)				
G'ayn	G '	غ	غ	غ	غ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
Qof	Q	ق	ق	ق	ق
Kof	K	ک	ک	ک	ک
Gof	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
Mim	M	م	م	م	م
Nun	N	ن	ن	ن	ن
Vov	V	و	و	و	و
Ho-ye havvaz	H	ه	ه	ه	ه
Yo	Y,I,E	ی	ی	ی	ی

الفبا نى دىدور

هم اولادلار دردى نى
 بابالار كيفيتين
 ماملار روحيتين
 مرجان كى تيراميز
 سيزگا جمع لاب بيراميز
 فعلىمىز نى بىلسانگىز
 سونگاكا عمل قىلسانگىز
 قالمادور سيزگا پنهان
 بيزداگى روح روان
 اونگدين باشلاب يوراميز
 و صف چىكيب توراميز
 باش كىچىك حرف يوق بيزدا
 توتىنگىز يادىنگىزدا
 وطنىمىز الفبا
 باغرىدامىز جا بجا
 اوتىز ايكى عسكرمىز
 بيرلاشساك سوز لشكرمىز
 دوست گا باغرى كىنگلارمىز
 غنىملارنى بينگارمىز
 قوشىنىمىز ايكى خىل
 منفسل و متصل
 بيزنى ياخشى بىلسانگىز
 خرمىز بجا قىلسانگىز
 بولورسيز حق قا واصل
 علم دن مراد حاصل
 سويلاب اجداد قدرىنى

جوزیق اونلی هم اونداش
 دایم بیزگا سفر داش
 قیسقه اونلی کوزی لوق
 اونگا سفدا اورین یوق
 کیلسا بیر خیل قوش اونداش
 فقط بیر ی دور یول داش
 تینیش بیلگی نه حاجت
 یوک بولسا فراست
 اونگا ایماسمیز محتاج
 ذکاوت بیزگا گلنچ
 مقصد معنا انگلاتیش
 کونگل لارگا یول تابیش

اوزی گا بیریب صیقل
 حرف لار سویلار گلمه گل
 قطارداگی ایلغار لار
 منفصل لار سردار لار
 دستلاب سویلاشی تعین
 متصل لار سل کین
 سیز اوقوش گا کیریشینگ
 صدق دلدن تیریشینگ
 اخلاص ایله البته
 فاضل لیک حین خطدا



MAVZU YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Arablarning O'rta Osiyoga kirib kelishi va arab tilining mahalliy xalq hayotida tutgan o'rni haqida nima bilasiz?
2. Arab yozuviga qadar O'rta Osiyoda qanday yozuvlar iste'molda bo'lgan?
3. Arab-o'zbek alifbosining vujudga kelishi haqida qanday fikrga egasiz?
4. Konsonant va fonografik yozuv deganda nimani tushunasiz?
5. Arab yozuvida nechta harf mavjud?
6. Arab alifbosiga nechta harf kiritildi?
7. Turkiy mantlarda konsonant yozuv qoidasi amal qilinganmi?
8. Arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvida nechta harf mavjud?



AMALIY TOPSHIRIQLAR

- 1-amaliy ish. Arab alifbosini yoddan aytib bering.
- 2-amaliy ish. Alifbodagi harflarni satr chizig'ida joylashishiga ko'ra daftaringizga to'liq ko'chirib oling.
- 3-amaliy ish. Eski o'zbek tili va yozuvi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini "Integratsiya" usuli orqali tushuntiring.



4-amaliy ish. “Tushunchalar tahlili” metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. Mashg’ulot davomida berilgan ma’lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1	2	3
Tayanch tushunchalar	Tushunchalar izohi	Qo’shimcha ma’lumotlar
Arab		
Nabotiyalar		
Oromiyalar		
Finikiyalr		
Somiy tillar		
Konsanantizm		
O’rxun-Enasoy yozuvi		

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Alifbo (yozilishi va o’qilishi hamda qanday tovushlarni ifodalashi)ni yod oling. Alifbodagi harflarning har bir ko’rinishini husnixat asosida mashq daftaringizga ikki qatordan yozib mashq qiling.

ARAB ALIFBOSIDAGI HARFLARNING YASALISHI



Eslatma: Alifbodagi to'qqizta unurning har biri bir necha yangi harflar hosil qilishda, qolgan to'qqiztasi esa har biri bittadan harf yasalishida ishtirok etadi.

Diqqat qiling:



ب unuri orqali hosil qilingan harflar



ح unuri orqali hosil qilingan harflar



د unuri orqali hosil qilingan harflar



ر unuri orqali hosil qilingan harflar



س unsuri orqali hosil qilingan harflar



ص unsuri orqali hosil qilingan harflar



ط unsuri orqali hosil qilingan harflar



ع unsuri orqali hosil qilingan harflar



ك unsuri orqali hosil qilingan harflar



Diqqat qiling: Alifbodagi o'ttiz ikki harflarning asoslaridan hisoblangan keyingi to'qqizta unsur esa yangi harf hosil qilishda ishtirok etmaydi.



MAVZUGA OID NAZORAT SAVOLLARI



1. Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvining shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?

2. Arab alifbosidagi harflarni hosil qiluvchi unsurlarning soni nechta?

3. Arab alifbosidagi harflarni hosil qiluvchi unsurlar nechta guruhga ajratiladi?

4. Ham hurf ham shakl yasovchi unsurlar soni nechta?

5. Arab yozuvida nechta harf mavjud?

6. Arab alifbosiga qaysi harflar kimlar tomonidan kiritilgan?

7. Alifbodagi harflar satr chizig'ida yozilishiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?

8. Arab alifbosidagi shakldosh harflar bir-biridan qanday farq qiladi?

AMALIY TOPSHIRIQLAR



1-amaliy ish. Arab alifbosidagi harflarni hosil qiluvchi shakllarning har birini bir qatordan yozib mashq qiling.

2-amaliy ish. Alifbodagi shakldosh harflarni hosil qiluvchi harflarni daftaringizga to'liq ko'chirib oling.

3-amaliy ish. Shaklan o'xshash va noo'xshash harflarni "T" sxemasi orqali tushuntiring.

Shaklan o'xshash		Shaklan noo'xshash

4-amaliy ish. "Tushunchalar tahlili" metodi orqali mavzuga oid tayanch tushunchalarga izoh bering. Mashg'ulot davomida berilgan ma'lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1	2	3
Tayanch tushunchalar	Tushunchalar izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Be shakli		
Jim shakli		
Dol va re shakli		
Sin va sod shakli		
To va ayn shakli		
Fe va qof shakli		
Kof va gof shakli		

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Alifbodagi shakldosh va shaklan noo'xshash harflarning har bir ko'rinishini husnixat asosida mashq daftaringizga ikki qatordan yozib mashq qiling.

MUNFASIL VA MUTTASIL HARFLAR HAQIDA MA'LUMOT



Eslatma: Munfasil harflar (bir tomonlama qo'shiluvchi harflar) yozuvda ikki xil ko'rinishli bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda ularning yozuvdagi ko'rinishlari alohida va bog'langan deb ataladi.



Alifboda munfasil harflar quyidagi xususiyatlarga ega:



MUTTASIL HARFLAR

Eslatma Muttasil harflar (ikki tomonlama qo'shiluvchi harflar) esa yozuvda to'rt xil ko'rinishga ega bo'ladi. Shunga muvofiq ravishda ularning yozuvdagi ko'rinishlari alohida, alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida deb ataladi.

MUTTASIL HARFLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muttasil harflar soni 25 ta bo'lib ular quyidagilar:

ب	چ	ص	غ	ل
پ	ح	ض	ف	م
ت	خ	ط	ق	ن
ث	س	ظ	ک	ه
ج	ش	ع	گ	ی

• So'z tarkibida kelgan muttasil harflar o'zidan oldin va keyin kelgan barcha harflarga qo'shilib yoziladi.

تَشْبِیْث

• Muttasil harflar to'rt xil ko'rinishga ega bo'ladi: alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida.

ه ه ه ه ه

• Muttasil harflarning ko'pchiligi shakldosh harflar hisoblanadi.

ب پ ت ث

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

Eski o'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu yozuvda xat o'ngdan chapga qarab yoziladi va o'qiladi. Ushbu xususiyati bilan boshqa yozuv turlaridan keskin farq qiladi. Masalan:

صادق دقتر شاه صابر جهان اداب ضيا قادر

2. Yozuvda qisqa unilar ifodalanmaydi.

Arab tiliga xos so'zlarda: xat" so'zi 3 tovushli (fonemali) so'z, ammo yozuvda u خط (x+t), 2 undosh harf bilan, "savob" so'zi 5 tovushli (fonemali) so'z, ammo yozuvda u ثواب (s+v+o+b) tarzida 3 undosh, 1 cho'ziq unli harf bilan, "talaba" so'zi 6 tovushli (fonemali) so'z, ammo yozuvda u طلبه (t+l+b+a) tarzida 3 undosh, 1 unli harf bilan ifodalangan.

Sof turkiy tilga xos so'zlarda esa barcha fonemalar yozuvda aks etadi. Masalan: كوى "kuy", توى "to'y", كون "kun", قوش "qush" kabi turkiy so'zlarda esa 3 tadan fonema bor, ular yozuvda ham 3 harf bilan ifoda etiladi.

3. Harflar bir-biri bilan bog'lanishiga ko'ra ikki guruhga (munfasil va muttasil) ajratiladi.

4. Alifbodagi harflar bosh va kichik harflar kabi turlarga ajratilmaydi. Hammasi bir xil yoziladi.

دار داد زار آز راز آرا دارا آزار آزاد آزار

5. Yozuvda ikkita bir xil undosh aks etmaydi.

Ularning biri yozilib, ikkinchisi maxsus belgi (*tashdid*) orqali aks ettiriladi.

زره تشبث مشقت غله

خطاط صياد مكار

6. Bu yozuvda tinish belgilari mavjud emas. O'zbek yozuvi tarixida tinish belgilari ilk bor XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab ishlatila boshlangan.

7. Bo'g'in ko'chirish va ajratish qoidasi yo'q.

Yozma manbalarda bo'g'in ko'chirilmasa-da, satrga sig'may qolgan bo'g'in yoki qo'shimchalar so'zning ustiga sig'dirishga harakat qilingan.

8. Yozma manbalarimizda asos va qo'shimchalarning yozilishida bir xillikka amal qilinmagan, ya'ni asos va qo'shimchalar birga (qo'shib) yoki ajratib yozilgan. Asos va qo'shimchalarni ajratib yoki qo'shib yozish an'anaviy xarakterga ega bo'lgan.

9. Harflar satr chizig'iga nisbatan uch xil holatda yoziladi:

-satr chizig'i ustida yoziladigan harflar;

-satr chizig'iga nisbatan oraliq holatda yoziladigan harflar;

-satr chizig'i ostida yoziladigan harflar.

AMALIY TOPSHIRIQLAR



1-amaliy ish. “Venn” diagrammasi orqali munfasil va muttasil umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering.

**Munfasil
harflar**

**Muttasil
harflar**

2-amaliy ish: Munfasil va muttasil harflarining har bir ko'rinishini 2 qatordan husnixat asosida daftaringizga yozib mashq qiling.

3-amaliy ish: berilgan so'zlarni ovoz chiqarib o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing. Har bir so'zning yozilish qoidasini tushuntiring.

دار داد زار از راز آرا دارا آزار آزاد آزار

آواز بوگون بوغداي گوشت پوست



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Munfasil va muttasil harflarning har bir ko'rinishini husnixat asosida daftaringizga ikki qatordan yozib mashq qiling.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

— yozing: oy, oq, tosh, bosh, kuy, bor, top, osh, don, baxt, qush, navo, dars, ziyo, maktab, dorboz, ob, tut, non, kon.

ESKI O'ZBEK YOZUVIDA UNLI TOVUSHLARNING IFODALANISHI. ALIF, VOV, YO (YOY) HARFLARINING IFODALANISHI



Eslatma: Eski o'zbek yozuvida unli tovushlarni ifoda etish uchun asosan uchta belgidan – **ا** alif **و** vov, **ی** yo harflaridan foydalaniladi.

ALIF HARFI VA UNING IMLOSI



ا (alif) harfi - arab alifbosidagi eng birinchi harf. Alif harfi satr chizig'ida yoziladi. U muayyan vazifalarni bajaradi. Munfasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda faqat o'zidan oldin kelgan harflarga bog'lanib, o'zidan keyin kelgan harfga bog'lanmaydi. Shuning uchun ikki xil yozilish shakliga ega: alohida (**ا**) hamda bog'langan holda(**ا**). Alif harfi o'zbek tilidagi *a, o, u, i, u, o'* unli tovushlarini ifodalaydi.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ا	ا	ا	ا

ALIF HARFI

الف نى ديدور
الف ديرلار منىنگ قوتلۇغ ايتىم نى
سىزگا بير بير بيان ايلاي ذاتيم نى
منىنگ اصلى تبيعتم قىزىق دير
نادان كلتك ديدى ساده چىزىق دير
الفبا نىنگ باشى مثلى مياق من
ظلمت ايچره ضيا روشن چراق من

Alif harfi alifbodagi birinchi harf sanaladi. Alif o'ng tomondan, ya'ni o'zidan oldin keladigan harf bilan qo'shiladi. O'zidan keyin kelgan harf bilan esa qo'shilmaydi. Alif harfi o'zbek tilidagi *a, o, u, i, u, o'* unli tovushlarini ifodalaydi. Alif harfi yozuvda ikki xil ko'rinishga ega (alohida va bog'langan):

ا (alif) harfi so'z boshida yozuvda a unli tovushini ifodalaydi.

اكا انا احد انور اكبر ابر ابرار

ا (alif) harfi so'z boshida madd belgisi bilan kelganda آ (o) tovushini ifodalaydi. So'z o'rtasi va oxirida kelganda, asosan, madd belgisi tushib qoladi, lekin so'zning matniy ma'nosiga qarab o'tarzida o'qilaveradi:

باب	آتا
پار	آنا
باش	آر
باپا	آت
آباد	آی

ا (alif) so'z boshida kelib ba'zan *i, e, u, o'* unli tovushlarni ifodalaydi:

اوی	ایپ
اوزییک	ایرک
ایش	اوج
ایرتک	اون
اون	این
اوج	ایل

Alif harfi so'z o'rtasida kelganda lom harfiga quyidagicha bog'lanadi: لا

لابر
لالا

و (vov) harfi va uning imlosi



Eslatma: و (vov) harfi ham munfasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda o'zidan oldin kelgan harfga bog'lanib, o'zidan keyin kelgan harfga esa bog'lanmasdan yoziladi. Vov harfi ham satr chizig'idan pastda yoziluvchi harflardan biri. Bu harf tilimizdagi v tovushini ifoda qiladi. Ba'zi turkiy so'zlarda so'z boshida alif bilan birgalikda, so'z o'rtasi va oxirida esa yakka o'zi **u**, **o'** unlisini ham ifodalaydi.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
و	و	و	و

واو نى ديدور

واو ديدى لار سوراسانگيز آتيم نى

شاه يايانگيز بيلماققه صفاتيم نى

كىمگه قىلسا بيزگا چين د لدن اخلاص

بيلمدانلىك انگا يولور دوست و خاص

ترتيب اونيز ابجددا آلتينچى من

شونى ياددا ساقلاسانگيز تينچيمن

Vov harfi o'zbek tilidagi bir necha tovushni ifodalaydi:

a) so'z boshida yakka o'zi kelganda v undosh tovushini ifodalaydi:

وطن وقت وارث

b) so'z o'rtasi va oxirida kelganda ham asosan v tovushini anglatadi:

اول سواب او عوض سو

c) u yoki o' unli tovushlarini ifodalasa vov (vov) harfi so'z boshida kelib u yoki o' unli tovushlarini ifodalasa vov harfidan oldin (alif) orttiriladi. Masalan:

اوچ اون اور اوزبیک اوراق

d) u va o' unilari so'z oxiri va so'z o'rtasida kelganida hech qanday vositachi harfsiz (vov) harfining o'zi yozilaveradi. Uning u, o' yoki v ekanligi so'z ma'nosiga qarab anglab olinadi. Masalan:

بوگون

توی

شوم

ذوق

بورى

اوزوم

ی (YO) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ی (yo) harfi muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega. ی (yo) harfining alohida so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ی	ی	ی	ی

بای نی دیدور

آتیم نی «بای» دیمیشلا

وهرایش گا بای دیمیشلار

القبانینگ توری دورمن

قمری لار زوری دورمن

شکل، اورنیم خوددی «نون» دیک

كج دورمن چرخ گردون ديك

ي (yo) harfining alohida so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Ushbu harfi so'z boshida kelganda har doim y undosh tovushini ifodalaydi:

يىل يولبارس يىگىت

ي (yo) harfi so'z o'rtasi va oxirida undoshlardan keyin kelganda har doim i yoki e (ye) unli tovushlarini ifoda etadi:

تيرماق بيز مين تىل قيز بيز

ي (yo) harfi so'z o'rtasi yoki so'z so'nggida unlidan so'ng kelganda y undosh tovushini ifodalaydi:

سير

قيين

اوى

اى

ايدىن

بايلىك

كوى

باى

ي (yo) harfi arabcha so'zlarning oxirida kelib iy tovush birikmasini ham ifodalaydi:

نواى سياسى ابدى لطفى

Ba'zi turkiy va forsiy so'zlarda yo harfi so'z boshida alif bilan birga kelib i yoki e unlilarini ifodalaydi:

ايش

ايرىك

اين

ايرىك

Hozirgi o'zbek adabiy tili grafikasida mavjud bo'lgan yolarashgan (ye, yo, yu, ya) unlilar arab grafikasiga asoslangan eski o'zbek yozuvida tovushlar miqdoriga ko'ra to'liq yoziladi:

ياشمين ياخشى يورك يورت ياش ياز يىتى يىلكن



MAVZUGA OID SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Alif, vov va yo harflarining har bir ko'rinishini husnixat asosida 2 qatordan yozib mashq qiling.

2-amaliy ish. Alif, vov va yo harflari ifoda etgan unli tovushlarga 5 tadan so'z yozing.

3-amaliy ish. “Venn” diagrammasi orqali unli tovushlarning yozuvda ifodalanishini tushuntiring va ularning umumiy hamda xususiy jihatlariga tavsif bering.



4-amaliy ish. Berilgan so'zlarni o'qing va ى harfning imlosini tushuntiring.
ادبی سیاسی صفی اقتصادی لطفی اوی سیر آیدین بای

5-amaliy ish. 1 va ى harflarining imlosini tushuntiring.

ياز يولدوز تجنيس يېتىم ياشیل يوراک يېلگان ایلغار ایستاک
تینیم دقیقه قیزیل کریم قییین ایتدی یاش یاشین

6-amaliy ish. Matnni ifodali o'qing va ko'chirib yozing.

پخته اوزبیک خالقینینگ بایلیگیدور پخته دان کوب
پیدا بولور پخته نی اق آلتون ديب اتاشور نارسالار
پخته اوزبیکستان نینگ همه بیریدا بیتیشتیریلادی
یورت آبادانلیگی اوچون هم او خلقیمیز
یاخشی لاب پرورش قیلینماغی لازم دور. پخته
میز فخریمیز فراوانلیگی دور



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Alif, vov, yo (yoy) harflarining har bir ko'rinishini husnixat asosida daftaringizga yozib mashq qiling.

2-topshiriq. Alif, vov, yo (yoy) harflarining yozuvda ifoda etadigan har bir tovush va tovush birikmasiga 3 tadan misol yozing.

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarni joriy imloga oʻgirib yozing.

رعنا آسمان آسان آزاد ابرار اكبر ارباب اكرام اسرار ارمان
بيل يول اوزوم وفا وزير وطن وقت الهام اجابت اسلام بازار

DOL, ZOL, RE, ZE, JE HARFLARI



Eslatma: Dol harfi alifbodagi alifboda oʻninchi harfdir. Dol harfi satr chizigʻiga nisbatan satr chizigʻi oʻrtasida joylashadi. Bu harfning alohida va soʻz boshidagi koʻrinishlari satr chizigʻining ustida yozilsa, soʻz oʻrtasidagi va soʻz oxiridagi koʻrinishlari satr chizigʻining ustida yoziladi.

Yozilish shakllari			
Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida holda
د	د	د	د

Masalan: آدم شمشاد درامد دان سردار درد دال گدا داد

دال نی دیدور

دال دیدی لار منینگ اسمیم نی

ناتوان دیبسیز کوریب جسمیم نی

الف تیک دور مثال شمع دور

مین ایگیک من قامتیم خم دور

الف لار یاتیدا دایم ادا من

شاه آلدیندا مثلی گدا من

ZOL HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma Zol harfi satr chizig'i ustida o'zlashgan zikr, Zokir, zarra, mazkur so'zlaridagi z tovushini ifodalaydi. Shaklan dol harfiga o'xshaydi, faqat undan ustiga qo'yiladigan bir nuqta bilan farq qiladi

Yozilish shakllari

So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ذ	ذ	ذ	ذ

Masalan: لذیذ تذکیرہ ذخیرہ ذوق عذر مذکور ذہن ذرہ ذاکر

ذال نی دیدور

منگا ذال دیب نام بیردیلار

«دال»گا اوخشاگان دیمیشلار

خالیم باردور «دال»دن فرقلی

بیلماگان نینگ یوق دور عقلی

نقته خالیم بیرر بیزاک دور

«دال» مین بیلان ایگیزاک دور

RE HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: Re harfi satr chizig'idan pastda yoziluvchi harflardan hisoblanadi. Bu harf tilimizdagi r tovushini ifoda qiladi. Re harfi ham munfasil harf bo'lgani uchun faqat bir tomondan, ya'ni o'zidan oldin keladigan harflar bilan qo'shilib yozuvda ikki ko'rinishga ega (alohida va bog'langan) bo'ladi.

Yozilish shakllari			
Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida holda
ر	ر	ر	ر

Masalan: کور قرار تار رباب لایر بار راست ارباب رنگ
ری نی دیدور

آتم «ری» دور اوچ ایگیزاک کته سی من
سیزگا تنیش مفصل لار بیرته سی من
«زی» هم «ژی» هم بولور منگا برادر
اولار حقدآ سعل کیینراق سوز بازار
چلکشیر مانگ «دال» بیلان مینی زنهار
او بیلان آرامیزدا انچه فرق بار

ZE HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: Ze harfi ham satr chizigʻidan pastda yoziluvchi harflardan hisoblanadi. Bu harf tilimizdagi z tovushini ifoda qiladi. Ze harfi ham munfasil harf boʻlgani uchun faqat bir tomondan, yaʼni oʻzidan oldin keladigan harflar bilan qoʻshilib yozuvda ikki koʻrinishga ega (alohida va bogʻlangan) boʻladi.

Yozilish shakllari			
Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida holda
ز	ز	ز	ز

Masalan: ساز محزون زبان آواز آزار پالیز زر بازار زیبا

زى نى ديدور

«زى» ديه آت قويميش دانالار منگا

قلاق سال صفاتيم نى ايتاين سنگا

«ز» تاوشين افاده لاب كيلورمن

اوز حاليم نى اوزيم يخشى بيلورمن

اونگدن كيلگان حرف ايله باردور ايشيم

چپدن كيلگانىگا اصلا يوق خوشيم

JE HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: Je harfi satr chizig'idan pastda yoziluvchi harflardan hisoblanadi. Bu harf tilimizdagi *j* tovushini ifoda qiladi. Je harfi ham munfasil harf bo'lgani uchun faqat bir tomondan, ya'ni o'zidan oldin keladigan harflar bilan qo'shilib yozuvda ikki ko'rinishga ega (alohida va bog'langan) bo'ladi. Bu harf o'zbek tiliga fors tilidan o'zlashgan so'zlarda qo'llanadi.

Yozilish shakllari

So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ژ	ژ	ژ	ژ

Masalan: مژگان ژورنال کژدوم مژده اژدر

زى نى ديدور

سنىنگ آتىنگ «زى» بولار ديب سويديلار

باشيم اوزره اوچتا نقته قويديلار

فارسى خلق لار الفباگا كيرگيزيب

«رى»، «زى» گا اوکا بولگىن ديدىلار

شوندن بىرى اولار بىلان بىرگامىن

القبادا اون تورتىنچى بولگانمىن

AMALIY TOPSHIRIQLAR



1-amaliy ish. Dol, zol, re, ze va je harflarining alohida va bog'langan holdagi ko'rinishlarini 2 qatordan husnixat asosida daftaringizga yozib mashq qiling.

2-amaliy ish. "Tushunchalar tahlili" metodi orqali dol, zol, re, ze, je harflari imlosiga izoh bering. Mashg'ulot davomida berilgan ma'lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1	2	3
Tayanch tushunchalar	Tushunchalar izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Dol harfi		
Zol harfi		
Re harfi		
Ze harfi		
Je harfi		

3-amaliy ish. "Venn" diagrammasi orqali dol, zol va re, ze, je harflarining umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering.



4-amaliy ish: Quyida berilgan so'zlarni ovoz chiqarib o'qing va mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

زار	راز	آزار	ارزو	دار	دارو	درد	دور
دراز	روز	زور	آرا	ادر	ادا	داد	ذاد
آواز	آو	وای	اور	اور	دود	رو	ردا
روا	رد	دور	رود	زر	اژدر	آزاد	در



6-amaliy ish. Berilgan test topshiriqlarini bajaring:

1. Arab alifbosidagi harflar boshqa harflar bilan bog'lanish-bog'lanmasliklari jihatidan necha turga bo'linadi?

- A) ikki turga B) uch turga C) besh turga D) to'rt turga

2. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida unli tovushlar nechki xil usulda ifodalanadi?

- A) 3 xil usulda B) 2 xil usulda C) 4 xil usulda D) 5 xil usulda

3. Yozuvda cho'ziq unilarni ifodalovchi harflar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) ا د غ B) ا و ی C) ا ل ز D) ی و ا

4. Munfasil harflar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) ا ج ح خ ع غ B) ا د ذ ر ز ژ و
C) گ ز چ پ D) ی و م ل ا

5. Muttasil harflar soni nechta?

- A) 32 ta B) 28 ta C) 25 ta D) 7 ta

6. Nuqtalari ustki qismiga yoziluvchi harflar soni nechta?

- A) 13 ta B) 18 ta C) 7 ta D) 5 ta

7. Nuqtalari pastki qismiga qo'yiluvchi harflar soni qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) 7 ta B) 15 ta C) 5 ta D) 32 ta

8. Satr chizig'i ustida yoziluvchi harflar soni to'g'ri berilgan javobni toping?

- A) 13 ta B) 7 ta C) 25 ta D) 4 ta

9. Satr chizig'idan pastga tushirilib yoziladigan harflar soni nechta?

- A) 4 ta B) 7 ta C) 20 ta D) 19 ta

10. Ham shakl, ham ma'lum bir harfni ifodalovchi shakllar qaysi qatorda to'g'ri yozilgan? A) ب ث ث پ B) ا د ذ ر ز ژ و

- C) ج ح خ ع D) ی و م ل ا

7-amaliy ish. Matnni ifodali o'qing va ko'chirib yozing.

ياخشى صفت

ادمز ادنينگ عيبي كوپمى آدمز اتنينگ عيب و نقصانى شونداى
كوپكه ساناب تمام قىليب بولمايدور اول عيبلار دين نيمه قىلسا خلاص
بولور اندين قوتولماق اوچون بير صفت باركه انينگ اوزيغا لازم كورسا
اول عيبلار دين قوتولسا بولور اول صفت قيسيدور اول ملاليك و تيلنى
ساقلاماقلكدور كه ملاليك شريف صفت اولوب تيلنى ساقلاماق
سلامتلىككا سيبدور

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Berilgan matnni ifodali o'qing va ko'chirib yozing.

يىتتى خزينه نينگ بيرى

اتا بابالارىمىز پرنده لارنى يىتتى خزينه نينگ بيرى
ديميشلار. بو گپ راست دور. بير دانه تخم بير دانه جوجه بولادور.
جوجه كاتتا بولوب تاووق يا خوراز بولادور. البته بو ايش كوپ
زخمىت بيرلاندور. بيز نينگ قيشلاقدا انا شونداى بير كارخانه بار.
اودا جوج تاووق خوراز و باشقه پرنده لار بسيار دور. جوجه
لار پرورشىگا هم نارسالار بار. مينىنگ ائاملار او بيردا خدمت
قىلادور. مين هم بوش وقتلارىمدا ائامگا ياردم بيرامان.

ب SHAKLIDAGI HARFLAR

ب (BE) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: Be harfi o'zbek tilidagi b undosh tovushini ifodalaydi. б (be) harfi satr chizig 'ida yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ب	ب	ب	ب

Masalan: لب بائر كتاب كباب پرنا مكتب آباد ارباب باب بار باش ابرار

بی نی دیدور
منگا بی د یب نام بیردی لار
بیر نقتہ انعام بیردی لار
سونگ شونداين سوز قاتدی لار
یادینگدا توت دیب ایتدیلار
متصل لار باشلانغیچی
تورت آغاینی نینگ تونغیچی

پ (PE) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: پ (pe) harfi forslar tomonidan kiritilgan harflarning birinchisi hisoblanadi. Bu harf o'zbek tilidagi p undosh tovushini ifodalaydi. پ (pe) harfi satr chizig'ida yozilib, uning nuqtalarigina satr chizig'idan pastga tushiriladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
پ	پ	پ	پ

Masalan: كوپ پحتہ آپاق ایپاك تاپ پاك

بی نی دیدور
مینی فارس لار الفباگا کیریتگانلار

اوج نقتە ليک پی سین ديه يوريتگانلار
 آياق پخته سوزين يازماق كوزلارلار
 الفبدان البت بيزنى ايزلارلار
 دايم هم كيلماس من هر تورليک خطدا
 وظيفم نى آغام ايلار البته

ت (TE) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: т (te) harfi o'zbek tilidagi t undosh tovushini ifodalaydi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ت	ت	ت	ت

Masalan: توت تخت بخت أنت توش تون مملکت تاش
 مکتوب

تى نى ديدور

آتيم سوراسانگيز تى دورمن

حرف الشمس گا مطيع دورمن

تورت خيل كورينيشيم باردور

متصل لار مينگا ياردور

حرف لار آلسا اونگ سوليم

جوزادورمن ايكي قوليم

ث (SE) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ث (se) harfi arabcha so'zlarga xos. ث (se) harfi satr chizig'ida yoziladi. Tish oralig'i s undosh tovushini ifodalaydi. Demak, o'zbek tiliga faqat arab tilidan kirib kelgan so'zlardagina ishlatiladi. Se harfi ustki va ostki tishlar o'rtasida talaffuz qilinadi. Bunday tovush o'zbek tilida mavjud emas. U arab tiliga xos tovushni ifodalaydi.

Yozilish shakllari			
So'z oxirlida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ث	ث	ث	ث

Masalan:

ثبات

نثر

اثر

ثمره

مثل

تثبث

باعث

ثواب

ثى نى ديدور

قيافيتيم تاج گا مينگز اگان ثى من

بى پى همده تى نينگ اوکاسى من

اولار هقدا انچا ببلدينگيز ديماک

مين هقدا هم بپچه ببلدينگيز ديماک

قوياش حرف لارى صف گا قيلديلار قبول

اوزلارى هم بيزگا بولديلار مقبول

AMALIY TOPSHIRIQLAR



1-topshiriq. Be, pe, te, se harflarining har bir ko'rinishini daftaringizga 2 qatordan husnixat asosida yozib mashq qiling.

1-amaliy ish. Matnni ifodali o'qing va ko'chirib yozing. Unga nom qo'ying.

بو آزاد دور. او باتردور. آزاد و باتر دوستدور. باتر سرداش دوستدور. آزاد تاش اتور. بو بازاردور. اوشبو بازار آباددور. آزاد و باتر بازار باریشدی. آپاسی اویدا آش پیشیرور آتاسی انار اوزار ایردی.

2-amaliy ish. Hikoyatni ifodali o'qing va mazmunini tushuntiring. **Be, pe, te, se** harflarining imlosini izohlang.

سخاوت

آفتاب سیار دور کیم سخاوت پیشه و جان منبعی بولگان حرارتینی عالم موجوداتی اوچون برابر تقسیم قیلور هر بیر کیمسه هم اوز قلب حرارتینی جانلی و جانسیز موجودات گنا قویاش دیک اولاشماغی درکار اینینگ سخاوت حرارتینی بارچا بیدیک قبول ایتسا یاکه برچه بیدیک اونینگ حرارتیدین بهره آلسا شول کیمسه حقیقی خلق فرزندى نامیغا مشرف بولغای



3-amaliy ish. Berilgan test topshiriqlarini bajaring.

1. Arab alifbosiga forslar tomonidan kiritilgan harflar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) ب ت ج غ
- b) د ی ک ف
- c) گ ژ چ پ
- d) پ ب ت ه

2. Yozuvda cho'ziq unililarni ifodalovchi harflar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) ا د غ
- b) ا ه ی
- c) ا ل ز
- d) ی و ا

3. Munfasil harflar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- a) ا ج ح خ ع غ

b) ا د ذ ر ز و

c) گ ژ چ پ

d) و م ل ا

4. Muttasil harflar soni nechta?

a) 32 ta

b) 28 ta

c) 25 ta

d) 7 ta

5. Nuqtalari ustki qismiga yoziluvchi harflar soni nechta?

a) 13 ta

b) 18 ta

c) 7 ta

d) 5 ta

6. Nuqtalari pastki qismiga qo'yiluvchi harflar soni qaysi javobda to'g'ri berilgan?

a) 7 ta

b) 15 ta

c) 5 ta

d) 32 ta

7. Satr chizig'i ustida yoziluvchi harflar to'g'ri berilgan javobni toping?

a) 13 ta

b) 7 ta

c) 25 ta

d) 4 ta

8. Satr chizig'idan pastga tushirilib yoziladigan harflar soni nechta?

a) 4 ta

b) 7 ta

c) 20 ta

d) 19 ta

9. Ham shakl, ham ma'lum bir harfni ifodalovchi shakllar qaysi qatorda to'g'ri yozilgan?

a) ب ت ث پ

b) ا ء ذ ر ز ژ و

c) ج ح خ ح ج

d) ي ء و م ل ا

10. Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvida nechta harf mavjud?

a) 25 ta

b) 28 ta

c) 32 ta

d) 35 ta

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Be, pe, te, se harflarining har biriga 10 tadan so'zni imlo lug'atidan foydalangan holda yozing, ma'nosi va imlosini izohlang.

ح SHAKLIDAGI HARFLAR



Eslatma: **ح (jim)** harfi o'zbek tilidagi *j* undosh tovushini ifodalaydi. **ح (jim)** harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ج	ج	ج	ج

علاج جهالت گنج جایل جوجه جهان نجات جبر جمال
 Masalan: جیم نی دیدور

اسمیم جیم اتابدور قای بیر منجم
 تعریفیم ای تایین قلاق سالینگ جیم
 مینی اوخشاتمیشلار گیا گجک کا
 ضرور من جان جسد خلص کیراک کا
 جانان نینگ جمالی هم مین بیلاندور
 دانه قرا خالی هم مین بیلان دور

چ (CHIM) HARFI VA UNING IMLOSI

Eslatma: چ (chim) harfi arab alifbasiga forslar tomonidan kiritilgan harflarning ikkinchisi hisoblanadi. چ (chim) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi. Bu harf o'zbek tilidagi ch undosh tovushini ifodalaydi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
چ	چ	چ	چ

بورچ ارچه ایچکی کوچ چومچوق جنگ آماج ساجیق چای
 Masalan: جیم نی دیدور

آتیم نی سوراسانگیز دیدی لار چیم
 تعریفیم بیلدیریش منینگ بورچیم
 متصل من ایکی قوللیک خوش بیچیم
 ایکی چی نی کورسام یوقالور تینچیم
 یتتینچی اوریندور بیلینگیز میلی
 الفبادا اورنیم فارس لار طفیلی

ح (HOYI HUTTI) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ح (hoyi hutti) harfi o'zbek tilidagi **h** undosh tovushiga yaqin keladi. Bu harf faqat arab tilidan o'tgan so'zlarda uchraydi. ح (hoyi hutti) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi.

Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega:

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ح	ح	ح	ح

حرف احوال حجت محبت روح رحمت ستح محرم حاكم
 جایی خطی نی دیدور
 خایی خطی دیب قویمیشلار نامیم نی
 قبول ایلانگ اولو سلامیم نی
 مندن هم ایشیتگای سیز نیچه سوز
 اوزیم نی ایلاگای من سیزگا کوز کوز

میں ہم بمثالی محبوب زلفی من
اوقیگان بنده نینگ دلین قلفی من

خ (XE) HARFI VA UNING IMLOSI

Eslatma: خ (xe) harfi o'zbek tilidagi x undosh tovushini ifodalaydi. خ (xe) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari

So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
خ	خ	خ	خ

Masalan: شاخ تخت پخته حط ميخ درخت خانه بخت
خی نی دیدور

آتیم «خی» اکیزاک لار کینجه سی

«جیم»، «جیم» همده حی نینگ ایرکاسی

اولار بیلان همتن و شکلداش من

سטר اوستیدا دایم صفداش من

جیمدا هم بیر نکته باردور

منگا هم بیر نکته باردور

AMALIY TOPSHIRIQLAR



1-topshiriq. Jim, chim, he (hoyi hutti) va xe harflarining har bir ko‘rinishini daftaringizga husnixat asosida 2 qatordan yozib mashq qiling.

1-amaliy ish. Ushbu hikmatlarni o‘qing va ko‘chirib yozing.

۱. جهان نینگ تیکانسیز گل لاری هنرمندلاردیر.

۲. جهالت اولومدور بیلیم تیریکلیک.

۳. یاشلیکدا بیز شاگرد اوزگالار استاد

۴ سونگرا استاد بولوب دل ایئارمیز شاد

2-amaliy ish. Berilgan matnni ifodali o‘qing va husnixat asosida ko‘chirib yozing. ح shaklidagi harflarning imlosini va so‘zning ma’nosini izohlang, ularning lug‘atini tuzing.

رحمت

رحمت ایتماق هر بیر یاخشی ایش اوچون خیرلی سوزدور.
کیم که مرحمتلی بولسا اونینگ قلبی دان رحمت سوزی چیقور.
اینگ کیچیک ایش و یاردم اوچون رحمت دیماق کونگیل گا آرام
بیرور ای فرزندلار کمک قیلگان کیشی گا بو سوزنی ایتماق
لازم و کوپ یاخشی ایشدور

3-amaliy ish. “Venn” diagrammasi asosida ح shakldagi harflarning umumiy va xususiy jihatlarini misollar bilan tushuntiring.



UYGA VAZIFA



1-topshiriq. A.Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida berilgan “Yaxshi xulqlar” bo‘limidan 15ta yaxshi xulqni arab yozuvida yozing va ularning lug‘atini tuzing. Har bir so‘zning matndagi ma’nosini tushuntiring.

ص av س SHAKLIDAGI HARFLAR

Eslatma: س (sin) harfi o‘zbek tilidagi s undosh tovushini ifodalaydi. س (sin) harfining yakka holda hamda so‘z oxiridagi shakllari satr chizig‘idan pastga tushirib yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya’ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog‘lanib yoziladi. Shuning uchun to‘rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida holda
س	سد	سد	س

Masalan: قیاس اسرار درس ساز اسباب نفس سبب اساس ساجیق
سین نی دیدور

اسمیم نی دیدی لار «سین»

هر بیر اوقوچی بیلسین

بیلماگان لار نی دیسین

بیلش ایستاگان کیلسین

بیان ایلاین توصیفیم

عیان ایلاب تعریفیم

ش (SHIN) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ش (shin) harfi o'zbek tilidagi sh undosh tovushini ifodalaydi. ش (shin) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ش	ش	ش	ش

Masalan: تشبث قیش تیش شاکر آشپز قوش شکر مشهور شهر
شین نی دیدور

«شین» ديب ات بیرمیشلار بیزگا

تعریفیم نی ایثای سیزگا

آغام حقدا نی گپ بولدی

منینگ فعلیم قسماً شولدير

اونی بیلگان مینی بیلور

بیلماسا حرکت قیلور

ص (SOD) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ص (sod) harfi o'zbek tilidagi s undosh tovushiga yaqin keladi. ص (sod) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ص	صد	صد	ص

Masalan: شخص فصل خاص صبر وصل قصاص صداقت قصد صابر

صادنى ديدور

نوبت ايندى منگا يىتىدى

ترتيب رقميم اون يىتى

«صاد» ديگان نام منگا خاص

كوزگا ايتارلار قياس

عربى دا بيتارلار

اوزگا سوزدا نيتارلار

ض (ZOD) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ض (zod) harfi o'zbek tilidagi z undosh tovushiga yaqin keladi. ض (zod) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Uning nuqtasi esa harfning hamma ko'rinishlarida satr chizig'idan pastda bo'ladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ض	ض	ض	ض

Masalan: حاضر عرض ضرب غضب عريضة فاضل ضيا مضنون ضرر

ضادنى ديدور

«ضاد» اتالور اسميم مئىنگ

«صاد» گا اوخشار جسميم مئىنگ

اوتار قيش، بهار ياز كوز

«صاد» بيلان بير بيزلار ايگيز

صورت سيرت اونگا مانند

سطرده هم بير از جمند

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Sin, shin, sod, zod harflarining har bir ko'rinishini daftaringizga husnixat asosida 2 qatorda yozib mashq qiling.

1-amaliy ish. Quyidagi so'zlarni ovoz chiqarib o'qing va



daftaringizga ko'chirib yozing. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarning lug'atini tuzing.

صِيَادٌ قَصْدٌ حَصْرَةٌ وَصَلَ قَصَاصٌ ضِيَا ضَرْبٌ ضَرَرٌ حَاضِرٌ
صَاحِبٌ صَبَا صَبَاحَتْ صَدَا صَحْرَا غَضِبَ قَضَا رِضَا عَرَضَ قَاضِي
رَخِصَتْ صَبِيحٌ قَصَاصٌ شَخْصٌ احْتِرَاصٌ حَضَرَتْ عَرَضَ ضَرْبِدَارٍ
رِضَا صَبِرَ صَادَقَ قَصْدٌ

2-amaliy ish. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chiring, qanday harflar bilan ifodalanishini yodda tuting:

فَعْلٌ مَعْرِفَةٌ جَمْعٌ نَفْعٌ حَكْمٌ أَحْكَامٌ مُحْكَمٌ مُحْكَمَةٌ
حَكْمَتٌ مُحَرَّمٌ حَقِيقَةٌ مُحَنَّتٌ حَرَامٌ مُحْرَمٌ حَالٌ أَحوَالٌ ثَانِي
ثَابِتٌ ثَنَا ثَمَرٌ بَاعَثَ حَدِيثٌ ثَانِيَةٌ مُثْقَلٌ مِثَالٌ عُثْمَانُ مَرَاثٌ
وَارِثٌ بَحْثٌ وَثِيقَةٌ مِثْوَى ذَاتٌ ذَاتِدَارٌ ذَاكِرٌ ذَكَرَ ذَوْقٌ ذِكَاوَةٌ
ذِيلٌ عَذْرٌ مَذْكُورٌ مَذْحِبٌ عَذَابٌ غَذِبٌ ذَهْنٌ .

3-amaliy ish. Sin, shin, sod, zod harflarining so'z o'rtasi va so'z oxirida kelgan ko'rinishiga imlo lug'atdan foydalangan holda 4 tadan so'z yozing.

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Hikmatli so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'giring

va husnixat asosida yozing.

Onasiga ozor bergan,

Parcha nonga zor bo'lar.

Otasiga ozor bergan,

El ichida xor bo'lar.

Yaxshi bilan yursang - yetarsan murodga,

Omon bilan yursang - qolarsan uyatga.

Birovlarga ozor bermoq katta gunohdir.

Ota-ona so'zi farzandga muqaddasdir.

Birni ko'rib fikr qil, mingni ko'rib shukur qil.

ط av ع SHAKLIDAGI HARFLAR



Eslatma: ط (to yoki itqi) harfi o'zbek tilidagi / undosh tovushiga yaqin keladi. Bu harf ham arab tilidan kirib kelgan so'zlar uchun xos. ط (to) harfi satr chizig'ida yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ط	ط	ط	ط

Masalan: طوطى شرط طلب عطار طالب لطف اطراف طاهر خط

طانى ديدور

اول سيزگا بولسون سلام

«طا» ديب بيرميشلار بيزگا نام

بعضى لار «اطقى» هم ديه ر

كيملار قاي بيرى نى سويار

ايكى اتيم هم اصلى بير

قاي بيرين قوللانگ بارى بير

ظ (ZO) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ظ (zo yoki izg'i) harfi o'zbek tilidagi z undosh tovushiga yaqin keladi. ظ(z) harfi satr chizig'ida yoziladi. Bu harf ham arab tilidan kirib kelgan so'zlar uchun xos. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ظ	ظ	ظ	ظ

Masalan: لفظ مظلوم ظلم حافظ نظم نظام ظالم نظر ظفر
ظا نی دبور

منگا ایکی نام بیر میشلار

«ظا» همده «اظفی» دیمیشلار

«ظا» گا اوخشار دیب سویورلار

نقته لیکدور دیب قویورلار

الفبادا رقمیم دور بیگیرمه

عاقل بولسانگ علم دن یوز اوگیرمه

ع (AYN) HARFINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



ع (ayn) harfi yozuvdagi vazifalari jihatidan boshqa harflardan ajralib turadi. ع (ayn) harfining yakka holda hamda soʻz oxiridagi shakllari satr chizigʻidan pastga tushirib yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, yaʼni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bogʻlanib yoziladi. Shuning uchun toʻrt xil yozilish shakliga ega. Ayn harfi ham arab tili uchun xos boʻlgan portlovchi boʻgʻiz tovushidir. Tilimizning leksik qatlamidagi arab tili orqali kirib kelgan soʻzlardagina uchraydi.

Yozilish shakllari			
Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida holda
ع	ع	ع	ع

عين نى ديدور

شكليم كوروب اوتيرمانگيز بيلمين

اتيم نى سورسانگيز ايتاين «عين»

ابجد حسابىندا جايىمىز يتميش

اوقىگان لار مراد مقصدا يتتيش

اورنيمىز قمرى لار اوداسيندا

منزلىمىز متصل لار توداسيندا

Ayn harfi quyidagi xususiyatlarga ega:

1. ع (ayn) harfi soʻz boshida kelganda tilimizga oʻzlashgan soʻzlarning ayrimlari a tovushi sifatida talaffuz qilinadi va yoziladi:

عجب عقل عمل عرض عصب

2. Arab tilidan oʻzlashgan ayrim soʻzlarda esa i unli tovushini ifodalaydi:

عمارت علم عشق عبرت

3. Tilimizga arab tili orqali kirib kelgan ayrim so'zlarda ayn harfi so'z boshida kelib u unli tovushini ifodalaydi:

عقاب عشاق عشر عزلت عذار عمان عمر

4. Ayn harfi ba'zi so'zlarda so'z boshida (alif) harfi bilan birikib cho'ziq o unli tovushini ifodalaydi: عا

عابد عادل عالم عارض عاقل عارف عاشق

5. O'zbek tiliga o'zlashgan ba'zi arabcha so'zlarda ayn harfi so'z boshida kelib o'z xususiyatlaridan yo'qotgan, lekin tarixiy-an'anaviy tamoyilga ko'ra ular yozuvda arab tilidagi shaklida yoziladi:

عصا -aso -hassa عید - iyd (hayit)

Mazkur so'zlar asrlar davomida o'z talaffuz xususiyatini yo'qotib, o'zbek tilining talaffuz qoidalariga moslashgan.

6. So'z ichida i unlisidan keyin kelganda, i tovushi e (ye) ga moyil qilib, cho'ziqroq talaffuz etiladi. Bu xususiyat lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida tutuq belgisi (') bilan ko'rsatiladi:

اعتبار -e'tibor

اعلان -e'lon

7. So'z oxirida ham i, e (ye)ga moyil aytiladi, lekin hozirgi imlo qoidasiga muvofiq (') tutuq belgisi yozilmaydi:

تابع شمع مانع

8. Ayn harfi a unlisidan keyin kelganda, shu unli odatdagidan cho'ziqroq talaffuz etiladi va bu cho'ziqlik hozirgi yozuvimizda (') tutuq belgisi orqali ifoda etiladi:

معنا رعا معركة

9. Ayn harfi so'z ichida yopiq bo'g'indan keyin kelsa, keyingi bo'g'inni oldingisidan ajratib turadi. Bu xususiyat lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosida tutuq belgisi (') bilan ifodalanadi:

صنعت بدعت طلعت معرفت

10. Hozirgi o'zbek tilidagi arab tilidan o'zlashgan ayrim so'zlarda so'z oxirida keluvchi ayn harfi talaffuz qilinmaydi va yozilmaydi. Lekin bu so'zlar eski o'zbek yozuvida, ya'ni arab grafikasida ifodalanadigan bo'lsa, ayn harfining yozilishi shart:

منع نفع جمع طالع تابع

غ (G'AYN) HARFI VA UNING IMLOSI



غ (g'ayn) harfi o'zbek tilidagi g' undosh tovushini ifodalaydi. غ (g'ayn) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Masalan: غريب ساغ تېغ يامغىر ياغ يانغاق تاغ غاز غنى باغيان غار
غىن نى ديدور

منينگ اسميم «غىن» دىرمن

بېلىشىنگنى تعين دىرمن

يگىرمه ايکىنچى اورىن من

«فى» حرفى در مين بورون من

قوليازمه دا چلکشتىريب

سوز اورتاسى گا اوخساتىب

Amaliy topshiriqlar



1-topshiriq. To, zo, ayn, g'ayn harflarining har bir ko'rinishini mashq daftaringizga husnixat asosida 2 qatordan yozib chiqing.

1-amaliy ish. Berilgan so'zlarni ovoz chiqirib o'qing va daftaringizga ko'chiring, yozilishini eslab qoling. To, zo, ayn, g'ayn harflari ifoda etgan tovushlarni izohlang. Ma'nosi tushunarsiz bo'lgan o'zlashgan so'zlarni ajratib, ularning ma'nosini izohli lug'tdan aniqlab daftaringizga yozing.

طلب طبابت لطف خط شرط ظلم ظفر مظلوم نظارت

نظام حافظ لفظ وعظ تلفظ طومار طغیان طنبور طبیعت

طرف وطن مطبوعات فقط خط ظلمت ظالم ظفر مظفر نظر
تعظيم وعظ الفاظ تلفظ انتظام مناظره.



2-amaliy ish. Quyda berilgan soʻzlarni “**Kichik guruhlarda ishlash**” usulu orqali eski oʻzbek yozuviga oʻgiring

1-guruh: odob, bola, doro, soz, asos, baxt, shart, Bahrom, Hirot, jarroh, xanjar, tabib, qalam, daraxt, sadoqat, tasodifan, attor, hissa, mashaqqat, ziyo, takror, imzo, savob, paxta, Alisher Navoiy;

2-guruh: maʼno, iqrar, eshik, uzum, davlat, vatan, ishq, olim, anbar, Furqat, bilim, qasos, ganj, oila, ovoq, xulq, mehr, chunki, bugun, quyosh, yaxshi, hikoya, oʻrtoq, sabot, hokim;

3-guruh: zikr, zarur, poliz, ajdar, sarhad, shahar, tashabbus, sayyod, gʻazab, Zafar, eʼlon, sham, odil, gʻarb, fursat, fuqaro, kitob, girdob, falak, shamol, oʻzbek, hamroh, habib, samimiy, shahar.

3-amaliy ish. To, zo, ayn, gʻayn harflarining umumiy va xususiy jihatlarini “Venn” diagrammasi asosida misollar bilan tushuntiring.



UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Alisher Navoiyning quyidagi hikmatlarini oʻqing, mashq daftaringizga koʻchirib yozing. Oʻzlashgan soʻzlar lugʻatini tuzing va maʼnosini tushuntiring.

از-آز اورگانیب دانا بولور

قطره - قطره بیغلیب دریا بولور.

اگر کیسه دین ظاهر اولسا یامان
کورار هر نیکیم ظاهر ایّدی همان.

بیلماگانین سوراب اورگانگان عالم
عارلانیب سوراماگان اوزیگا ظالم

2-topshiriq. Berilgan so'zlarni ko'chirib yozing va har bir so'zning ma'nosini izohli lug'atdan foydalanib tushuntiring.

طاوس طاقت طالب سلطان شیطان شرط ظلم ظالم مظلوم
ظاهر ظریف نظر نظارت اضطراب منظره مناظره عوض
علم عالم عقل عمارت عطا عرض عروض عرب عطر
عشق عمر شعر شاعر

HARFLARI ف ق ک گ

ف (FE) HARFI VA UNING IMLOSI



ف (fe) harfi o'zbek tilidagi f undosh tovushini ifodalaydi. (fe) harfi satr chizig'ida yoziladigan harflar sirasiga kiradi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ف	ف	ف	ف

Masalan: اطراف گفت فرهاد حرف آفت فن صاف صفت فاش

فی نی دیدور

”فی“ حرفی نی کورگان می سیز

حالی نی دیب سورگاتمیسیز

اوشل مین من ایکی قوللیک

متصل من تورت شکل لیک

ایتای سیزگا شودور حالیم

باشیم اوزره بار بیر خالیم

ق (QOF) HARFI VA UNING IMLOSI



ق (qof) harfi o'zbek tilidagi *q* undosh tovushini ifodalaydi. ق (qof) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ق	ق	ق	ق

Masalan: شفق عاقبت قویاش صادق صداقت قار قرق فاش نقاش

قاف نی دیدور

آتیم «قاف» دور قمری من

آغام «فی» نینگ جگری من

سورساتگیز بیز نینگ هم نسل

بیلیب قوینگلار متصل

بیزدا باردور تورت خیل شکل

سطردا توشارمیز بیلگیل

ک (KOF) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ک (kof) harfi o'zbek tilidagi *k* undosh tovushini ifodalaydi. Gof harfi bilan shakldosh harf hisoblanadi. ک (kof) harfi satr chizig'ida yoziladigan harflar sirasiga kiradi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ک	ڪ	ك	ك

Masalan: ملك تكرار ترك كمان اكبر تاك كباب اكا كاسپ
كاف نی دیدور

«كاف» ديب نام بيرديلار بيزگا

كمتر كلام ايناي سيزگا

اور نيميز يگيرمه بيشدور

اي حرف لاري گا تيگيشدور

ابجد حسابيم يگيرمه

جهالت يولي گا كيرما

گ (GOF) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: گ (gof) harfi o'zbek tilidagi g undosh tovushini ifodalaydi. Gof harfi bilan shakldosh harf hisoblanadi. گ (gof) harfi satr chizig'ida yoziladigan harflar sirasiga kiradi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
گ	گ	گ	گ

Masalan: تگ بیگانه گیلان رنگ غمگین گپ برگ اگر گرد
گاف نی دیدور

بیزگا «گاف» دیب نام بیردی لار

«کاف» گا شکلداس دیدی لار

فارسی حرف تورتاوان ایديک

الفباگا کین کیردیگ

قایسی دیب سورسانگ ایتارمن

«پی»، «چیم»، «ژی» لار همده مین



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Fe, qof, kof va gof harflarining har bir ko'rinishini daftaringizga husnixat asosida 2 qatordan yozib mashq qiling.

1-amaliy ish. Kof va gof harflarining alif bilan bog'langan shaklini daftaringizga 2 qatordan yozib mashq qiling.

2-amaliy ish. Hikoyatni ifodali o'qing va mazmunini tushuntiring.

تیراک

اکبر تیراک ایکدی. تیراک تیز کوندا برگ یازدی. تورت ییلا تیراک کاتتا بولوب سیاسیدا دم آلیشگا امکان بولدی. مسافرلار اونینگ سیاسیدا اوتورویشب دم آلیب تیراک ایککان اکبرگا تشکر ایئدیلار. اکبر هم اوز ایشیدان شادمان بولدی.

3-amaliy ish. Quyidagi so'zlarni o'qing va daftaringizga ko'chiring, qanday harflar bilan ifodalanishini yodda tuting:

تانگ سونگ مینگ بانگ چانگ دانگ رنگ-برنگ نهنگ
آهنگ بادرینگ شدرنگ آنگ؛

- نینگ: خوارزم خلغینینگ بیوقولیقی؛ بیزنینگ جماعتیمیز.

- نگ: بیرینگ کیلینگ آلینگ چیزینگ کورینگ.

4-amaliy ish. Hikoyatni ifodali o'qing va ko'chirib yozing.

حکایت

بیر نقاش بیر شهرغا باریب اول بیردا طبیبلیک آغاز قیلدی
بیر نیچا کوندین کییین بیر کیشی انینگ وطنیدین مذکور شهرغا
باریب نقاشنی گوروب سورادیکه امدی نیما ایش قیلورسین دیب
ایئدی او جواب بیردی طبیبلیک اول کیشی یانا سورادی نیکا
نقاش ایئدی بول سببیدیکه اگر طبیبایکدا خطا قیلسام توپراق انی
یاپار دیدی

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Quyidagi so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.



Kon, mosh, tol, qalb, avval, savol, qabul, navro'z, oltin, olim,

sovg'a, mazmun, alifbo, qashshoq, qalandar, oqshom, balo, bola, bobo, malol, maqol, quloq, islom, iqbol, salomat, shamol, saqlab, shamshod, dilorom.

2-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing va tinish belgilarini qo'yib daftaringizga ko'chiring, qanday yozilishini yodda tuting:

بو بولوت بو بولوتدور روشن قلم آلدی بو روشندور
 بو بنا بلنددور و نقشداردور. بو سوز بو بنادور آقدور
 شفتالو شیریندور بو شفتالودور بو بابلدور مقبولدور

HARFLARI ل م ن



Eslatma: ل (lom) harfi o'zbek tilidagi / undosh tovushini ifodalaydi. ل (lom) harfining yakka holda hamda so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Bu harfning alif harfi bilan bog'langan shakli qo'lyozma manbalarda "lomalif" deb ham nomlanadi. Muttasil harflar sirasiga kiradi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari

So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ل	ل	ل	ل

Masalan: بلبل فلک عمل لابر قلاق قلم لطف ایلک لاله

لام نی دیدور

مندن هم ایشیتینگ بیر نیچه کلام

شمسی حرف تورور من اسمیم ایسا «لام»

شکل، شما یایم گویا قرماقدیک

یا بو کیلگان اول کورساتکیچ برماقدیک

عاقل بولسانگ عقل بولاغیدن ایچ
بعضی لار ایتادور «لام» مثلی چومیچ

م (MIM) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: م (mim) harfi o'zbek tilidagi *m* undosh tovushini ifodalaydi. Mim harfi ham shakl, ham harf hisoblanadi. م (mim) harfining alohida so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
م	م	م	م

Masalan: كم احمد قدم كمال عمر مكان تمام مرد كرامت
ميم نى ديدور

ايتار بولسام اسميم «ميم»

بيلماسانگيز يوق تينچيم

تايانچ شكل ايماس من

نفته لازم ديماس من

اوزيم ايروور مستقل

نسل، نسب متصل

ن (NUN) HARFI VA UNING IMLOSI



Eslatma: ن (nun) harfi o'zbek tilidagi *n* undosh tovushini ifodalaydi. Nun harfi ham shakl, ham harf hisoblanadi. ن (nun) harfining alohida so'z oxiridagi shakllari satr chizig'idan pastga tushirib yoziladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari

So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida holda
ن	ن	ن	ن

Masalan: امکان نادر عنبر نام مکان رنگ زمان برنا نان
نون نی دیدور

«نون» دیدی لار بیزنینگ نام نی

ایشیتینگ اوشبو کلام نی

بیر کم اوتیزینچی حرف من

«بی» سیمان لارگا حریف من

ایکی شکلیم کیلار اوخشاش

ایتینگ قای صورتیم اویقا

ه (HOYI HAVVAZ) HARFI VA UNING IMLOSI



ه (hoysi havvaz) harfi ham shakl, ham harf hisoblanadi. Hoyi havvaz harfi muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. ه (hoysi havvaz) harfi satr chizig'ida yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Yozilish shakllari			
Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida holda
ه	ه	ه	ه

هائی هوز نی دیدور

هائی هوز دیرلار آتیم

یوقدور منینگ ذریاتیم

شکلاشیم یوق مین تنها

قمری ایچره بی بها

مندین هیچ بیر حرف یاسالماس

اوزگا حرف مندن کوزالماس

Ushbu harf oʻzbek tilidagi bir necha tovushni ifodalashga xizmat qiladi:

a) soʻz boshida, oʻrtasida kelganida h tovushini ifodalaydi:

هوا

هجران

همیشه

هنر

b) soʻz oxirida kelganida ham boshqa tillardan tilimizga oʻzlashgan soʻzlarda h tovushini ifodalaydi:

همراه

ماه

شاه

گاه

v) soʻz oxirida kelganda hozirgi tilimizdagi fors tili orqali kirib kelgan baʼzi soʻzlarda i (aslida e) tovushini ham ifodalab kelishi kuzatiladi:

چونکی کیمکی بلکی

d) soʻz oxirida kelganda hozirgi tilimizga oʻzlashgan baʼzi soʻzlarda a tovushini ham ifodalab kelishi kuzatiladi:

ناله

غله

همه

پیاله

باله

سایه

حکایه

غایه

AMALIY TOPSHIRIQLAR



qiling.

1-amaliy ish. Lom harfining alif bilan bog'langan shaklini daftaringizga 2 qator yozib mashq qiling.

2-amaliy ish. Faqat arab tiliga xos tovushlarni ifodalovchi harflarni "Klaster" usulu yordamida yozib tushuntiring.



3-amaliy ish. Berilgan matnni ifodali o'qing.

قارا كوزوم كىل و مردم ليغ ايمدى فن قيلغىل
كوزوم قارا سيدا مردم كىبى وطن قيلغىل
على شير نوايى
بو گلشن اچرا يوقتور بقا گليگا ثبات
عجب سعادت ايرور قالسا بخشيليك بيرلا ات
على شير نوايى

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan so'zlarni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.



Mardona, sazovar, mujgon, mashhur, zarba, lutf, talab, atrof, zolim, zulm, nazm, e 'tibor, ma'no, G'ofir, sharaf, naqsh, maktub, guvoh, gavhar, barg, olim, omon, Obid, oftob, farzand, mashaqqat, Zafar, shabnam, maqol, rizq, zinhor, qirq, Fozil, zakovat, sof, razil, zehn, qasos, ojiz,

ilova, maktab, ziynat, g'azab, haqiqat, suhbat, daryo, inson, xat, habib, bilim, terim, iqror, Shuhrat, chunki, anor, anjir, orzu, orom, vafo, bol, Vali, bugun, buzoq, do'st, o'rtoq, Farhod, biz, qizil, yosh, yog'och, ziyrak, ilmiy.

2-topshiriq. Berilgan matnni o'qing va daftaringizga ko'chirib yozing. Qanday adabiy janrga xos ekanligini tushuntiring. Ma'nosi tusunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini tuzing va ularning matndagi ma'nosini izohli lug'atdan aniqlang.

يارب اول شھدو شكر يا لمودور

يا مگر شھدو شكر يا لمودور

جانما پيوسته ناوک ائقالی

غمزه اوقین قاشیغا يا لمودور

علی شیر نوایی

قدیمنی فراق محنتی یا قیلدی

کونگول غم و اندوه اوتیغا یا قیلدی

ای گل حالیمنی صباغه آیتیب ایردیم

بیلمان سنگا شرح قیلمادی یا قیلدی

بابر

ARAB ALFBOSIDAGI O'ZBEK TILIGA XOS BO'LMAGAN TOVUSHLARNI IFODALOVCHI HARFLAR



Eslatma: Se harfi alifbodagi beshinchi muttasil harf bo'lib, s tovushini ifoda etishda ishlatiladi. Se harfining yozuvda alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxiridagi shakllari mavjud ya'ni bu harf yozuvda to'rt ko'rinishlidir. Se harfining barcha shakllari satr chizig'i ustida yoziladi.

1-mashq. Berilgan so'zlarni o'qing va husnixat asosida ko'chirib yozing.

ثبات نثر باعث مثل ثبا اثب تثبث

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida soʻz yasang.

ل م ث ث ت ا ب
ب ث ع ا ث ا ب
ر ث ن ث ب ش ت



Eslatma: Hoyi-hutti harfi alifbodagi sakkizinchi muttasil harfdir. Hoyi-hutti harfi h tovushini ifoda etishda ishlatiladi. Hoyi-hutti harfining yozuvda alohida, soʻz boshida, soʻz oʻrtasida va soʻz oxiridagi shakllari mavjud yaʼni bu harf yozuvda toʻrt koʻrinishlidir. Hoyi-hutti harfining yuqori qismi satr chizigʻi ustida, quyi qismi esa satr chizigʻi ostida yoziladi.

1-mashq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va husnixat asosida koʻchirib yozing.

حاکم محرم سطح روح حجت حج حکیم

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida soʻz yasang.

ح ط س م ی ک ح
ت ج ح ث ب ش ت
م ح م م ک ا ح



Eslatma: Zol harfi alifbodagi oʻn birinchi munfasil harfdir. Zol harfi satr chizigʻi ustida joylashadi. Bu harf oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan *z*ikr, *Zokir*, *zarra*, *mazkur* soʻzlaridagi z tovushini ifodalaydi.

Hozirgi zamon oʻzbek tilida bu tovushga muqobil keluvchi tovush yoʻq. Shuning uchun bu harf yot harflar sirasiga kiradi.

1-mashq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va husnixat asosida koʻchirib yozing.

ذاکر مذکور لذیذ ذات ذهن ذوق

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida soʻz yasang.

ق ذو
ذ ك ورم
ا ك ر ذ

ذ ه ن
ت ذ ا
ذ ي ذ ل



Eslatma: Sod harfi alifbodagi o'n yettinchi muttasil harfdir. Sod harfi s tovushini ifoda etishda ishlatiladi. Sod harfining yozuvda alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxiridagi shakllari mavjud ya'ni bu harf yozuvda to'rt ko'rinishlidir. Sod harfining yuqori ovalsimon qismi satr chizig'i ustida, kosacha qismi esa satr chizig'i ostida yoziladi.

1-mashq. Berilgan so'zlarni o'qing va husnixat asosida ko'chirib yozing.

صباح صفر صدا صادق صبا صالح صيقل

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida so'z yasang.

ر ق ص ب ص ا
ف ص ر ص ف ل
ت ص ل ا ب ت ص و ر



Eslatma: Zod harfi alifbodagi o'n muttasil sakkizinchi harfdir. Zod harfi z tovushini ifoda etishda ishlatiladi. Zod harfining yozuvda alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxiridagi shakllari mavjud ya'ni bu harf yozuvda to'rt ko'rinishlidir. Zod harfining yuqori ovalsimon qismi satr chizig'i ustida, kosacha qismi esa satr chizig'i ostida yoziladi.

1-mashq. Berilgan so'zlarni o'qing va husnixat asosida ko'chirib yozing.

ضابت ضميره ضيا ضامن فرض فضل فضا

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida so'z yasang.

ى ض ا م ى ض ر ه
ر ف ض ا ض م ن
ض ف ا ض ف ل



Eslatma To harfi alifbodagi o'n to'qqizinchi muttasil harfdir. To harfining yozuvda alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxiridagi shakllari mavjud ya'ni bu harf yozuvda to'rt ko'rinishlidir. To harfining barcha shakllari satr chizig'i ustida yoziladi.

1-mashq. Berilgan so'zlarni o'qing va husnixat asosida ko'chirib yozing.

صباح صفر صدا صادق صبا صالح صيقل

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida so'z yasang.

ب ص ا
ص ف ل
ت ص و ر
ر ق ص
ف ص ر
ت ص ل ا ب



Eslatma: Zo harfi alifbodagi yigirmanchi muttasil harfdir. Zo harfining yozuvda alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxiridagi shakllari mavjud ya'ni bu harf yozuvda to'rt ko'rinishlidir. Zo harfining barcha shakllari satr chizig'i ustida yoziladi.

1-mashq. Berilgan so'zlarni o'qing va husnixat asosida ko'chirib yozing.

ظاهر ظفر ظلمت ظرافت ظهر تقریظ تلفظ

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida so'z yasang.

ا ه ظ ر
ظ ن ر
ت ا ظ ر ا ب
ر ظ ی ف
ظ ن ا ر ت
ن م ظ ر ه



Eslatma: Ayn harfi alifbodagi yigirma birinchi muttasil harfdir. Ayn harfi tutuq belgisini va ba'zi unli tovishlarni ifoda etishda ishlatiladi. Ayn harfining yozuvda alohida, so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxiridagi shakllari mavjud ya'ni bu harf yozuvda to'rt ko'rinishlidir. Ayn harfining yuqori kichik yarim doita qismi satr chizig'i ustida, quyi katta yarim doira qismi esa satr chizig'i ostida yoziladi ¹.

1-mashq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va husnixat asosida koʻchirib yozing.

عرب عطر عشق عمر شعر شاعر فعل

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida soʻz yasang.

ع ر ف م ت ا ع ش ق
ن ف ع م ج ع
ع ط ر ع ش ق



Eslatma Hoyi-havvaz harfi alifbodagi oʻttiz birinchi muttasil harfdir. Hoyi-havvaz harfi h tovushini ifoda etishda ishlatiladi. Hoyi-havvaz harfining yozuvda toʻrt koʻrinishlidir. Hoyi-havvaz harfining alohida, soʻz boshida va soʻz oxiridagi shakllari satr chizigʻi ustida, soʻz oʻrtasidagi shakli esa bir qismi satr ustida, bir qismi satr ostida yoziladi.

1-mashq. Berilgan soʻzlarni oʻqing va husnixat asosida koʻchirib yozing.

همراه همراز هوا بهار بهرام فرهاد شاه

2-mashq. Berilgan harflar ishtirokida soʻz yasang.

م ر ا ز ه ب ه ر ا
د ف ر ه ا ب ه ر ا م
م ر ا ه و ه ا



MAVZUGA OID SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Se, Hoyi hutti, Zol, Sod, Zod, To, Zo, Ayn, Hoyi havvaz harflarining har biri ishtirokida 2 tadan soʻz yozing.

1-amaliy ish. Arab tiliga xos tovushlarni ifodalovchi harflarning umumiy va xususiy jihatlarni “BBB” usuli yordamida tushuntiring.

Bilaman	Bilib oldim	Bilmoqchiman
1.		
2.		
3.		

2-amaliy ish. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va daftaringizga koʻchiring, qanday harflar bilan ifodalanishini yodda tuting:

صفر صفا صبا قصر فصل صرف صورت صلابت
 فصاحت فاصق ضيا ضمير مضمون فرض فضل فضا
 فيض فايض طاوس طاقت طالب سلطان شيطان شرط ظلم
 ظالم مظلوم ظاهر ظريف نظر نظارت اضطراب منظره
 مناظره عوض علم عالم عقل عمارت عطا عرض عروض
 عرب عطر عشق عمر شعر شاعر فعل معرفت جمع نفع
 حكم احكام حاكم محكوم محكمه حكمت محرم حقيقت
 محنت حرام محروم حال احوال ثانی ثابت ثنا ثمر باعث
 حديث ثانيه مثقال مثال عثمان مراث وارث بحث وثيقه
 مثنوی ذات ذاتدار ذاكر ذكر ذوق ذكاوت ذيل عذر مذكور
 مذهب عذاب غذب ذهن .

3-amaliy ish. Berilgan izofiy birikmalarni ifodali oʻqing va joriy imloga oʻgirib yozing, yozilishi, oʻqilishi hamda maʼnosini izohlang.

بوی گل درد سر آشنای مهربان صدای تاشکندروی زمین
 نکته نظر آینه جهان ترجمه حال برادر عزیز والده محترمه
 عاشق زار درد بیدوا

عجائب المخلوقات دار الفنا دار البقا طالب العلم
 محاكمة اللغتين فوايد الكبار سعادۃ الاقبال نوادر الشباب
 لسان العرب قصص الانبياء عبد اللطيف عبد الله مناظره

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni eski oʻzbek yozuviga oʻgirib yozing.



Shafaq, qosh, Majnun, Bobur, tuproq, Asror, zot, tuz, dilbar, darmon, devon, savdo, mazmun, g ‘azal, bog’, bashorat, toqat, shart, shoir, qozon, qoʻrqoq, qor, manzil, oftob, kam, doʻst, dars, qalam, Nodira, balki, shamol, osmon, Odil, avlod, moh, mehr, nola, vatan, kovak, voris, Lisonut tayr, navo, shum, zehn, zavq, naqsh, marosim, murod, umr, lol.

2-topshiriq. Berilgan hikmatli soʻzlarni eski oʻzbek alifbosi asosida yozing:

1. Befoyda soʻzni aytma, foydasiz soʻzdan qaytma
2. Bevafo doʻstdin tayoq yaxshidur
3. Betashvish bosh yoʻq, bemehnat osh yoʻq
4. Betamizda or yoʻq, bezorida uyat yoʻq
5. Besabab oyoqgʻa tikon ham kirmas
6. Befoyda kundadin oʻtin yaxshidur
7. Orzu qildim vafo ahlin koʻray deb topmadim,
Xoh zohid, xoh fosiq, xoh soil, xoh shoh
8. Ey Navoiy yora yora boʻlsa koʻngling yaxshidur,
Kim taraddudsiz olishqoylar ani dilxohlar.

HARAKATLAR: FATHA, KASRA, ZAMMA BELGILARI



Eslatma: Arab alifbosida qisqa unilarni ifodalovchi maxsus harflar yoʻq, biroq baʼzi bir belgilar ularni ifodalashda ishlatiladi va ular **harakatlar** deb nomlanadi.

ادراک

- Fatha
- Zabar

مکتب

- Kasra
- Zir

- Zamma
- Pish

فرقت

فَتْحَه نى ديدور

«فَتْحَه» دور من مين عربى لسان دا

«زبر» دور من گوزل فارسى زبان دا

اوستون اتابدورلار تركى تامان دا

دايما بولگاي سيز ايسان امان دا

شرطلى بيلگيم كچيگ چيزيق

بيلماسانگ اورنيم يوتقىزيق

So'z boshida kelgan qisqa *a* unlisi *alif* harfining ustiga zabar belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan:

اكبر ادب اسرار احباب اتراك ابر ابرار

Shuningdek, so'z boshida qisqa *a* unlisi ayn harfining ustiga *zabar* belgisini qo'yish orqali ham qisqa *a* unlisi ifodalanadi. Masalan:

عفو عرب عنبر عطر عقل عطار عقر عهده عدالت

So'z o'rtasida esa qisqa *a* unlisi o'zidan oldin kelgan undosh harfning ustiga zabar belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan:

طَلَبَه
شَرَط
مَكْتَب
ذَوَق

زَر
دَرَس
دَر
دَفْتَر

Soʻz oxirida hoyi havvaz harfi undosh harfidan keyin kelsa, *a* unlisini ifodalaydi (bu haqda hoyi havvaz harfini oʻtganda toʻliq maʼlumot olasiz).

بَالَه نَالَه لَالَه پَحْتَه

Kasra yoki zir. Unli tovushlarning ifodalovchi harakatlarning ikkinchisi – belgisi boʻlib, qisqa *i* (e) unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida *kasra*, fors tilida esa *zir*, turkay tilda *satr osti* belgisi deb nomlanadi.

كسره نی دیدور

عرب لار مینی کسره دیر

فارسی خلق لار اتایدور «زیر»

ترکی لار تیلی دا «آستین»

ایتای سیزگا سوزیم راستین

بیلگیم «فتحه» سینگاری دور

اورنیم اونگا تیسگاری دور

Soʻz boshida qisqa *i* (e) unlisi *alif* harfning ostiga *zir* belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

إِسْمَ إِسْلَامَ إدْرَاكَ إِيْهَامَ إِقْبَالِ إِنْسَانِ إِقْرَارِ إِحْتِمَالِ إِحْسَانِ

Soʻz boshida qisqa *i* unlisi *ayn* harfning ostiga *zir* belgisini qoʻyish orqali ham qisqa *i* unlisi ham ifodalanadi. Masalan:

عِشْقِ عِبَادَتِ عِفْتِ عِصْيَانِ عِنَايَتِ عِلْمِ

Soʻz oʻrtasida qisqa *i* (e) unlisi oʻzidan oldin kelgan undosh harfning ostiga *zir* belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

جَلْمِ ضِدِّ ذِكْرِ فِكْرِ ذِهْنِ مِهْرِ طِبِّ كِتَابِ

Soʻz oxirida qisqa *i* unlisi uchramaydi.

Zamma yoki pish. Unli tovushlarni ifodalovchi harakatlarning uchinchi ^u zamma belgisi bo'lib, qisqa *u* unli tovushini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu belgi arab tilida *zamma* fors tilida esa *pish* deb nomlanadi.

ضمه نى ديدور

«ضمه» دور من مین عربی لسان دا

«پیش» اتالور ینه فارسی زبان دا

«اوتور» دیرلار مینی ترکی تاماندا

بیزدن بیخبرلیک جوده یامان دا

قیسقه «ا» اونلی سی مین بیلان رویا

شرطلی بیلگیم میتتی ویرگلدور گویا

So'z boshida qisqa *u* unlisi alif harfining ustiga *pish* ^u belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan:

أمت امیدوار أستاذ

Shuningdek, *ayn* harfining ustiga *pish* belgisini qo'yish orqali ham qisqa *u* unlisi ham ifodalanadi. Masalan:

عُرف عُمر عُزلت عُشاق عُنصور عُنصور علما

So'z o'rtasida qisqa *u* unlisi o'zidan oldin kelgan undosh harfining ustiga *pish* belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan:

ظلم نُطق خُلُق خُرما قُرْة قُلاف كُلى كُلب



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Berilgan so'zlarga tegishli harakatlarni qo'yib o'qing va daftaringizga ko'chiring, yozilishini eslab qoling.

طالب طبابت لطف خط شرط ظلم ظفر مظلوم نظارت
نظام حافظ لفظ وعظ تلفظ طومار طغيان طنبور طبيعت
طرف وطن مطبوعات فقط خط ظلمت ظالم ظفر مظفر نظر
تعظيم وعظ الفاظ تلفظ انتظام مناظره.

2-amaliy ish. Quyidagi soʻzlarga tegishli harakatlarni qoʻyib arab alifbosi asosida yozing: bahor, daftar, qalam, Ikrom, gul, salom, xalq, xulq, mulk, uzum, kuy, aka, daraxt, ish, lab, eshik, yuz, maktab, zarar, oʻzbek.

3-amaliy ish. Matnni ifodali oʻqing va koʻchirib yozing. Mazmunini "Insert" usuli yordamida tushuntiring.

تمام يېر يوزىنى ارض ديرلار اندا بشریت استقامت قیلور
 اینینگ تورت تامانی شمال مغرب مشرق و جنوب ديرلار
 اندا بیحساب دریا لار اولکان تاغ لار کاتتا موزلیکلار
 ارضداگی بارچه . ارض دومالاق شکلدادور. موجود دور
 بیرى ییلان بیر اعضا کبی باغلانکاندور نارسه لار بیر
 مضمون شول که بارچه انسانلار ضرور حالتده انگا کمک
 بیرماقلاری لازمدور

"Insert" usuli - mashgʻulot jarayonida oʻz anglashini kuztish uchun imkoniyat beradigan vositadir. Bu usul matn bilan ishlashda juda zarur usul hisoblanadi. Matn bilan ishlayotganda oʻquvchi bir qator belgilarni qoʻyib boradi:

V - bilganlarimni tasdiqlaydi

+ - yangi maʼlumot

- - bilganlarimga zid keladi

? - meni oʻylantirib qoʻydi.

"Insert" usulida quyidagi jadvaldan foydalanamiz.

"V"	"+"	"-"	"?"



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni eski oʻzbek yozuviga oʻgirib yozing. Kerakli oʻrinlarda qisqa unlilarni ifodalovchi harakali belgilarni qoʻying.

Shum, to 'q, shoh, pora, Nodira, Yusuf, tayyor, yumush, qilich, qiziq, bilim, maktab, oson, qalb, birodar, ajdar, daryo, odam, adolat, g'alaba, haqiqat, ulug', hurmat, xalq, Sodiql, Sadoqat, Sulton, Latif, shatranj, shahar, qalandar, maqol, shabnam, shitob, shogird, munosib, Furqat, nufuz, xursand, non, oftob, tabrik, oqshom, ko'z, ko'r, donishmand, ism, chaman, g'arib, choy, begona, olim, ishq,

nutq, g'olib, sobir, uzum, do'st, go'sht, saroy, iqrar, ertak, inkor, muyassar, terim, fosh, daftar, zafar, shafqat, qafas, gap, barg, qoloq.

2-topshiriq. Ushbu hikmatli so'zni o'qing va yod oling. Uning muallifi haqida ma'lumot bering. O'zingiz mustaqil ravishda hikmatli so'zlarga 4 ta misol yozing.

حق يولندا كيم سېنگا بېر حرف اوقوتمېش رنج اېلا
اېلاماك آسان اېماس حقين ادا مېنگ گنج اېلا

SATR USTI BELGILARI: TASHDID, TANVIN, SUKUN, HAMZA, MADD,

VASLA BELGILARI



Eslatma: Arab tilidan kirib kelgan, faqatgina satr ustiga qo'yiladigan tashdid, tanvin, sukun, hamza, vasla va madda belgilari arab satr usti belgilari deyiladi.



1. Tashdid (تشديد). Tashdid ikkilantirish degan ma'noni anglatib, so'z tarkibidagi undosh harflarning ustiga qo'yiladi. Tashdid belgisi tushgan undosh kuchaytirilgan va ikkilantirilgan holda talaffuz etilishi lozim. Bu belgi ko'pincha tilimizga arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarga qo'yiladi. Arab yozuvida qo'sh undoshli so'zlar kelganda o'sha undoshning biri yozilib, uning ustiga tashdid belgisi qo'yiladi va shu orqali so'zda ikkita bir xil tovush borligi anglashiladi. Masalan:

تفكر تثبّت مكار شفاف نقاش عطار اول

Ba'zi sop'zlarda tashdid belgisining ustiga fatha yoki zamma belgilari qo'yilishi ham mumkin. Bu esa har ikkalasini ham o'qish zarurligini bildiradi. Buning uchun avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab so'ngra tashdid ustidagi harakatni o'qish lozim. Masalan:

مشقت تفکر تشبث محبت

Tarkibida qo'sh undoshi mavjud bo'lgan turkiy so'zlar, jumladan, o'zbekcha so'zlar arab grafikasida yozilganda, tovushlarning miqdoriga ko'ra yozamiz. Bu so'zlarda tashdid belgisi ishlatilmaydi. Masalan:

ساكيز قاتنيق كيتي ييتي توققيز

2. Tanvin (توين) belgisi ham arab satr usti belgilaridan biri bo'lib, faqatgina arabiy so'zlardagina ishlatiladi. Tanvin ko'pincha so'z oxirida kelgan alif harfining ustiga qo'yiladi. Tanvinning 3 xil ko'rinishi bor: fathalik tanvin "an", kasralik tanvin "in", zammaliik tanvin "un" tarzida talaffuz qilinadi. Tilimizga arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'pchiligi fathalik tanvin (an) belgisini olib, ravish so'z turkumiga kiradi. Tanvin belgisi yozuvda tushib qolishi mumkin, lekin talaffuzda hamisha saqlanadi. Masalan:

شخصا خصوصا تصادفا بعضا اعتبارا ذاتا

3. Sukun (سكن) . Sukun arabcha so'z bo'lib, *to'xtab turish, tinchlik, orom* degan ma'nolarni bildiradi. Bu belgi ba'zan sokin deb ham yuritiladi. Uning asosiy vazifasi bo'g'inning yopiq ekanligini bildirishdir. Sokin belgisi undosh harflar ustiga qo'yiladi va shu undoshdan so'ng unli yo'q ekanligini, ya'ni yopiq bo'g'inni bildiradi. Masalan:

مكتب مرحمت دفتر مملكت مكتب فرزند

4. Hamza belgisi (همزة). Bu belgi arab tilida harfga teng vazifani bajaradi. Bu belgi ko'pincha unli harflarning ustiga qo'yiladi va talaffuzda unli tovushni undosh tovushdan farqlashda hamda qator kelgan ikki unlinking qo'shilib ketmasligini ta'minlaydi¹. Uning vazifasi quyidagilardan iborat:

a) so'z tarkibida ikki unli qator kelganda ularni ajratish uchun yoziladi. Masalan:

عائلة عجائب تأكيد انشاءت تأثر تأسيس تاثيرات مسؤول

b) forsiy-tojik tilidan o'zlashgan izofiy birikmalarda agar aniqlanmish qisqa i unlisi bilan tugallangan bo'lsa, hamza belgisi shu harfning ustiga qo'yiladi.

شجره ترك ترجمه حال ديوانه مشرب

نقطه نظر شجره تراكمه

5. Vasla (وصله). Bu belgi arab tiliga xos bo'lib, noaniq holatdagi otni aniq holatga o'tkazish va arabiy izofalarda ishlatilib, al aniqlik artikli ustiga qo'yiladi. Vasla so'zi arabcha so'z bo'lib, *qo'shish, bog'lash* degan ma'noni bildiradi. Demak, vasla belgisi qo'yilgan al aniqlik artikli to'la holda o'qiladi. Agar al

¹ R.Jumaniyozov. Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent, 1989. B-124.

aniqlik artikli ustida vasla belgisi qo'yilmasa, biz faqatgina artiklning a harfini o'qib, keyingi kelayotgan so'zning birinchi tovushini ikkilantirib o'qiymiz. Bu haqda shamsiy va qamariy harflar va izofa bo'limlariga qarang. Masalan:

لسان الطير

6. Madda (مد) belgisi faqat bitta vazifani bajaradi. U so'z boshidagi alif harfi ustiga qo'yilib O tarzda talaffuz qilinishini bildiradi.

آداب آسمان آرزو آدم



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Berilgan so'zlarga harakatli belgilarni qo'yib o'qing va ko'chirib yozing.

مقند منجم مداح تعجب مشقت تلفظ كله ترقيبات غدار تردد
تبر طنز مره ذره بطل تفكر تصور معلم مقلد رسام
مكار بره شفاف كذاب منت سله رقاص تشبث مؤلف
تصدق.

1-topshiriq. Quyidagi so'zlarga tegishli harakatlarni qo'yib arab alifbosi asosida yozing.

Baqqol, siddiq, takallum, farrosh, arra, tasadduq, darra, tashabbus, hammol, taalluq, xurram, tasavvur, sattor, takubbur, g'alla, raqqos, zarra, oppoq, hatto, hurriyat, dallol, salla, shaddod.

2-topshiriq. Mazkur so'zlarni joriy alifboga o'giring.

تاریخ انشات مؤرخ تاکید غرائب مؤلف تآثر تآمین تأسف
عجائب تأمل مأمور عائله قرأنت تألف

2-amaliy ish. Quyidagi so'zlarni o'qing, vasla belgisini tegishli o'rinlarga qo'yib ko'chiring.

عجائب المخلوقات دار الفنا دار البقا طالب العلم
محاكمه اللغتين فوايد الكبار سعادت الاقبال نوادر الشباب



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarga tegishli harakatlar va satr usti belgilarini qoʻyib soʻzlarni daftaringizga koʻchirib yozing va imlosini izohlang.

مصور ميسر ضمنا لسان العرب تكلم تنفس ترقیات جلاذ
عفت باطنا تكبر علت مشقت مناظره تبرک قصص الانبياء
منور عبد اللطيف عبد الله

2-topshiriq. Berilgan soʻzlarga tashdid (ّ) belgisini qoʻyib oʻqing va husnixat asosida koʻchirib yozing.

منچم مداح تلفظ كله ترقیات ذره كنه تصور معلم كذاب رقااص
غله شدت تشبث تكبر اچيق قتيق مره عطار محله محمد ذره محبت
خطاط اول رسام مكمل مقدس مكرم

3-topshiriq. Berilgan soʻzlarni eski oʻzbek yozuviga oʻgirib yozing.

Voqea, avlod, avval, ov, vaqt, vafo, bugun, uzum, toʻq, zavq, mehr, qahr, shox, chunki, hirot, havo, vaʼda, johil, hamroh, hijron, muhr, podshoh, gul, rang, gap, guvoh, gavhar, barg, jigar, gado, gashtak, gulchin, goh, latif, tamal, qalam, lobar, lola, mashq, laqab, lison, kon, lugʻat, kamol, mulk, tamgʻa, ilhom, mosh, maqom, men, shom, osmon, mamlakat, dard, karam, faxr, harf, furqat, gʻarb, naqsh, shafqat, sharaf, fosh, daftar, fard, sharofat, qilich, naql, qiliq, tosh, xalq, muqimiy, naqqosh, qosh, qodir.

ARAB IZOFASI, SHAMSIY VA QAMARIY HARFLAR



Izlatma Izofa - soʻzinig lugʻaviy maʼnosi qoʻshish va bogʻlash demakdir. Aniqlanmish va aniqlovchi, qaralmish va qaratqich munosabatlarini ifodalovchi tushuncha izofa deb ataladi.

Arab izofasining koʻrsatkishi ال (yoki ul) ikkala soʻz oʻrtasida kelgan holda ularni bir-biriga bogʻlashga xizmat qiladi. Arab izofasi eski oʻzbek tilida, oz boʻlsa-da uchraydi. U koʻpincha asar va joy nomlarida, kishilarning ismida koʻzga tashlanadi. Izofa koʻrsatkichi hisoblanmish ال (ul) har doim ham talaffuz qilinavermaydi, lekin yozuvda albatta, qayd etiladi. Uning qaysi paytlarda talaffuz qilinishi yoki qaysi paytlarda talaffuz qilinmasligini bilib olish uchun shamsiy va qamariy harflar hususida ham toʻxtalib oʻtish lozim.

Arab alifbosidagi harflar oʻz tabiatiga koʻra ikki guruhga boʻlinadi:

Birinchi guruh harflar harfush-shams (“quyosh harflari”) deb yuritilib, unga quyidagi 14 harf kiradi:



Ikkinchi guruh harflar esa harful qamar (“oy harflari”) deb ataladi va unga tubandagi 14 harf kiradi:



Arab tilida aniqlanmish aniqlovchidan oldin keladi. Ularni o‘zaro bog‘lovchi ul izofa ko‘rsatkichidan keyin kelgan harf shamsiy harflarga tegishli bo‘lsa, al (ul) artikilidagi ل (lom) talaffuz etilmaydi, undan keyingi harf tashdid bilan, ikkilantirib o‘qiladi. Misollar:

السلام - assalom

فخر الدين Faxriddin

نور الدين - Nuriddin

لغتاترى - lug‘at-ut turk

Agar ال artiklidan keyin kelgan so‘z ikkinchi guruh, ya‘ni qamariy harflardan biri bilan boshlansa, al (yoki ul) to‘liq talaffuz qilinadi. Misollar:

الخوارزمى - al-Xorazmiy

محبوبالقولوب - Mahbub-ul qulub



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Shamsiy va qamariy harflarning har birini 2 qatordan daftaringizga husnixat asosida yozib mashq qiling.

2-amaliy ish. “Venn” diagrammasi asosida shamsiy va qamariy harflarning umumiy va xususiy jihatlarini misollar asosida tushuntirib bering.

Quyosh
harflari(harf-
ush shams

Oy
harflari(harf-
ul qamar

3-amaliy ish. Berilgan izofali birikmalarni arab yozuviga o'giring.

Kamoliddin, Lutfullo, Abdullo, "Mezon ul-avzon", Al-Buxoriy, Al-Forobiy, "Qisas ul-anbiyo va hukamo", "Saddi Iskandariy", "Mantiqat tayr", "Zarbulmasal", "Mahbub ul-qulub", Sa'dullo, Nizomiddin, Hikmatullo.

4-amaliy ish. Arab izofa ko'rsatkichining yozuvda ifodalanishini berilgan sxema asosida tushuntiring.



5-amaliy ish. Berilgan matnni o'qing va izofali birikmalarni ko'chirib yozing, yozilishi va ma'nosini izohlang.

استعداد لی طلبه

فضل الدین مدرسه گا بارغان چاغدا ۱۳ یاشدا بولوب طلبه لار آراسیندا اوتکیر ذهنی بیرلان اوزگا طلبه لارگا نمونه ایردی. ریاضیات جغرافیا و فلکیات علملاریدا اوز بیلیم درجه سی بیرلا حتی استادلارینی هم تعجبگا سالار ایردی نظم رشته سیدا استاد لتفی و نوایی نی کوپ سویار و الارغا تقلید ایلاب غزل لار یازیب الارنی مهارت لاریغا حمد و ثنا اوقور ایردی کمال الدین

بهزادگا تقلید ایلاب گاهی تصویرلار کشید قیلار ایردیکیم مدرسه
استادلاری اینینگ چیزغان تصویرلارینی کوروشوب آفرینلار ایتور
ایردیلار شول سببدین اکثر طلبه لار اینینگ استعدادیغا هوس بیرلا
بعضی لاری حسد هم قیلور ایردیلار

4-amaliy ish. Berilgan soʻzlarga tegishli harakatlar va satr usti belgilarini
qoʻyib koʻchirib va soʻzlarni joriy imloga oʻgirib yozing.

مصور میسر ضمنا لسان العرب تکلم تنفس ترقیات جلا د عفت
باطنا تکبر علت مشقت مناظره تبرک قصص الانبیا منور عبد
اللطیف عبد الله

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Berilgan gaplarni koʻchirib yozing. Jumalarda
ishtirok etgan izofali birikmalarni aniqlang va ularning imlosini tushuntiring.

مولانا لطفی علیہ الرحمہ اوز زمانی نینگ ملک الکلامی
ایردی فارسی و ترکی دا نظیری یوق ایردی
(علیشیر نوایی "مجالس النفاس" دان)

حضرت لقمان حضرت علیہ السلام نی وقتلاریدا بار ایردی
(ریغوزی "قصص النبیدان")

چون لسان الحانی بیلا ترنم توزوب مین قوش تیلی اشارتی
بیلا حقیقت اسرارین مجاز صورتیدا کورگوزوب مین
(علیشیر نوایی "محاکمة اللغتين" دان)



FORS IZOFASI

Eski oʻzbek yozuvi yodgorliklari tilida arab izofali birikmalariga
qaraganda forsiy izofali birikmalar juda koʻp. Ular yozma yodgorliklar tiliga

qo'shnichilik va qardoshlik aloqalari yo'sinida shunchaki kirib qolgan emas, balki jonli grammatik vosita sifatida tilda muhim vazifa bajargan².

Ma'lumki, arab va fors izofalari mohiyat e'tibori bilan hamda so'z tartibi jihatidan o'zbek tiliga teskari. O'zbek tilida oldin aniqlovchi, so'ngra aniqlanmish kelsa, arab va fors tillarida aksincha holatni ko'ramiz. Forsiy izofali birikmalarning ba'zilari hozir ham adabiy tilimizda, shuningdek, xalq jonli so'zlashuv nutqida mavjud, ular asrlar mobaynida tilga butunlay singishib ketgan. Misollar: *درد دارد* dard dardi bedavo *درس* darsdisar

Arab tilidagi izofa ko'rsatkichi *ال* al (ul) bo'lsa, fors-tojik tilida *ی* (i) tovushlidir. Forsiy izofa ko'rsatkichi, odatda, yozuvda aks etmaydi. Lekin u ba'zi istisnolardan holi emas.

Agar aniqlanmish ma'nosidagi so'zning so'nggi tovushi undosh bilan tugasa, unday holda yozuvda hech qanday belgi qo'yilmaydi. Lekin talaffuzda aniqlanmish bilan aniqlovchi (qaratqich va qaralmish) o'rtasiga albatta *i* tovushi qo'shib aytilishi shart. Misollar:

مردگار مرد میدان تخت روان

Bordi-yu, aniqlanmish *a* unlisi bilan tugasa, u holda aniqlanmishdan keyin *hamza* belgisi qo'yiladi va *i* tovushi sifatida talaffuz qilinadi. Misollar:

نقطه نظر ترجمه حال آینه جهان والد محترمه

Mabodo aniqlanmish *u* yoki *o'* unililari bilan tugasa, ulardan keyin (*ye, yi*) harfi yozuvda ifodalanishi kerak, masalan:

روی سیاه بخارای شریف روی راست

Eslatma: Shuni ta'kidlash kerakki, izofali birikmani o'qiganda alohida emas, balki bir butun umumiy intonatsiya bilan talaffuz qilinishi lozim. Shuning uchun ham izofali birikmalar, odatda, bir butun sintaktik birlik sifatida tushuniladi. Xullas, eski o'zbek tilida, ayniqsa, klassik she'riyatimizda forsiy izofadan keng foydalanilgan. Adabiy tilda va jonli nutqda forsiy hamda turkiy izofa barobar qo'llanilgan.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Fors izofa ko'rsatkichining yozuvda ifodalanishini berilgan sxema asosida tushuntiring.

² R.Jumaniyozov. Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent, 1989. B-132.

Fors izofasi



2-amaliy ish. Berilgan izofali birikmalarni arab yozuviga o'giring.

Sarvi noz, shomi hijron, oshiqi beqaror, ofatijon, nuqtai nazar, ro'yi zebo, ahli ilm, labi xandon, sadoi Turkiston, abri navbahor, ahli din, fasli zemeston, luqmai shirin, bo'yi gul, baloi nafs, oromi jon, xok-i aziz, bog'i eram, bandai nochor.

3-amaliy ish. Berilgan matnni o'qing va izofali birikmalarni ko'chirib yozing, yozilishi va ma'nosini izohlang.

ريغوزى قصص الانبياء د ن

اون بيرينچى قصه ابراهيم عليه السلام نى ماقعه لارى

نياده تورت كيشى جميع عالمغه پادشاه دوركيم د ديب دورلار تقليد...

ن نى بيرى ن ايكى سى كافر ايردى مسلما بولغان ايردى ايكى سى مسلما سليمان عليه السلام بيرى اسكندر زوالقرنين ايردى لار كافر نى بيرى شداد لعين بيرى نمرود لعين ايردى روايت قيليب دورلار كيم بير كون نمرود توش يكيم اسماندين بير قوچقار پيدا بولوب كيليب نمرودنى اوروب كورد دى نمرود لعين قورقوب او يغاندى ايرته بيرله جميع تختيدىن بيقيتيب تشلا معبرلارنى ييغيب تعبيرينى سوردى معبرلار جواب بيرديكيم بات فرصتيده بير اوغول پيدا بولوب ملك مملكت لارينگ نى خراب قيلور نى كونگليغه بير وهم توشوب ايتى كيم هر خاتون ديب بوسوزدين نمرود توغسه اوغول بولسه اولدورونگ لار ديب همه اوغول باله لارنى ديلار اندين نمرود عليه العينه نى بير بت اولدورديلار قيز بولسه تيگما ن اوچون آزر دير ايرديلار تراشى بار ايردى آتى تارخ ايردى بت قيلغا

انى خاتونىنى ھېچكىم بىلماسا يېرى كۈن اوغۇل توغدىكە آفتاب تىلەت
مىشتىرى سەدەت قىرانغە كىچە نى شەلە نۇرى رۇش قىلۇردى آتلىرىنى
ابراھىم قۇيدىلار



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Fors izofasiga 15 ta misol topib arab alifbosi asosida
yozing va imlosini izohlang.

“ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINI O‘QISH VA TAHLIL QILISH



عبدلله اولانى “توركى گلىستان ياخود اخلاق” د ن
اخلاق

انسانلارنىڭ ياخشىلىكغە چاقىرغۇچى پامانلىكنى
قايتارغۇچى بىر علم دور. ياخشى خلق لارنىڭ ياخشىلىگىنى پامان خلق
لارنىڭ پامانلىگىنى دىل و مثال لار ايله بيان قىلدورگان كىتابنى اخلاق
دىيىلور. اخلاق علمىنى اوقۇب بىلۇب عمل قىلگان كىشى لار اوزى نىڭ
كىم اىكانىن جناب حق نه اوچون خلق قىلگانىن بىر يوزىده نىمە ايش قىلمىك
اوچون يورگانىن بىلور. بىر كىشى اوزىد ن خبردار بولماسە علم نى،
عامانى، ياخشى كىشى لارنى، ياخشى نرسە لارنى، ياخشى ايشلارنى
قدرىنى، قىمتىنى بىلماس. اوز عىبنى بىلۇب اقرار قىلىپ توزاتمىكە سى و
كوشش قىلگان كىشى چىن بهادر و پهلوان كىشىدور رسول اكرم نبى محترم
افند ىمىز مىزان ترازوسىگە قويدورگان عمل لارنىڭ اىچىدە ياخشى خلق
د ن اغىر راغى يوقدور. مؤمن بنده ياخشى خلقى سىبىلى كوندوزلارى روزه
توتۇب عبادت قىلگان كىشى لار د رجه سىگە يىتار د ىمىشلار.

سويلاسانگ سويلا ياخشى سوزلارد ن

يوقسە جىم تورماقنىڭ ايرور ياخشى

اويلاسانگ ياخشى فكرلار اويلا

يوقسه گنگ بولما قينگ ايرور ياخشى
ايشلاسانگ ايشلا ياخشى ايشلارنى
يوقسه بيكارليغينگ ايرور ياخشى

1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chiring.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntirng.

1-topshiriq. A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan keltirilgan matnni eski o'zbek alifbosi asosida yozing. O'zlashgan so'zlar lug'atini tuzing.

Vatanni suymak

Vatan. Har bir kishining tug'ulib o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortuq suyar. Hatto bu vatan hissi tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayirilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilning bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar.

Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortuq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar.

Bobolarimiz: "Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l", -demishlar. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: "Hubbul-vatani minal-imani - Vatanni suymak imondandur", -demishlar.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Matnni daftaringizga ko'chirib yozing va mazmunini tushuntirib bering.

عبد الله اولانى نينگ بيرينچى معلم كىتابدان
ياماتلىق جزاسى

بىر كىشىنىڭ قاسم اسملى بىر اوغلى بار ايردى آتا و
آناسىنىڭ سوزىغا كىرماسدان هر خىل يامان ايشلارنى قىلور
ايردى بالالار بىرلا اوروشىپ ياقالاشىپ كىيملارنى بىرتوب
كىلور ايردى اويدا آناسى مهمان اوچون اسراب قويگان طعاملا

رینی بیگان وقتدا آناسی قاسم اوغلیم طعمانی سین بید ینگمی دیسا
مین بیگانیم یوق موشوک بیگان دور دیر ایردی بارا بارا آتاسینینگ
پولینی هم اوغیرلاب آلدورغان بولدی آتاسی بیلپ اوغلیم پولنی
کیم آلدی دیسا آنام آلدور دپ آناسینی اوغری قیلور ایردی
بیر کونی آتاسی اوستال اوستیگا بیر تنگه پول قویپ اوزی
اوخلاگان کیشی بولپ یادی قاسم کیلیپ سیکین تانگه نی آلیپ
آغزیگا سالدی شول وقت آتاسی اوشلاب آماقچی بولگاندا تانگانی
یوتیب یوباردی تانگه باریپ قاسم نینگ خلقومیغا تیقلیب جان
بیردی.

محترم کتابخوان کورد ینگیز - می یاما ن نینگ یامانلیگی
اوزینینگ باشیگا بیتدی



عبدلله اولانی "تورکی گلستان یاخود اخلاق" دن
یاخشی خلقلار

یاخشی خلق: بیر قسمی اوز نفسیمیزگه بیر قسمی بیر بیریمیزگه قارشو
ایشلاتمک اوچون کیرکای بولگان یاخشی خلقلار: فطانت، دیانت،
اسلامیت، نظافت، غیرت، ریاضت، قناعت، شجاعت، علم، صبر، حلم،
اینتظام، مقیاس نفس، وجدان، وطنی سویمک، حقاییت، نظر عبرت،
عفت، حیا، ادراک و ذکا حفظ لسان اقتصاد، وفا، خوف و رجا، اطاعت،
حق شناسلیک، خیرخواهلیک، مونسلیک، صداقت، محبت و عفودور. منه:
بو یازد یغیمیز یاخشی خلقلار عقل و شرع شریفه موافق الله تعالی هم
بنده لار قاشیده مقبول معتبردور. ایمدی بو یاخشی خلقلار نی قولگه آماک
اوچون آتا آنا، معلم استادلاریمیز حضرتلارینینگ حکمتلی نصیحتلارینی
جان قولای بیرله تینگلاب دایم خاطرده توتماق، اخلاقی یاخشی کیشیلار
بیرله الفت بولمک، اخلاقی بوزوق یامان کیشیلاردن قاچماق لازم دور.
بیزم شریعت اسلامیة ده «اخلاق حسنه» یاخشی خلقلار ایله خلقلانمک هر

نرسه گه عبرت كوزى ايله باقوب خالقنى توزاتمك واجب دور. رسول
اكرم نبى محترم صلى الله عليه وسلم «اسلاميت ده بوزوقلق يوق دور.
بوزوقلقنى اوستيگه آلو هم يوقدور. اسلاميت ده اينگ معتبر كيشى لار
ياخشى خلق ايگالاريدور» ديميشلار.

بيت

ياخشى برله يورسه هر كيم مقصودى حاصل بولور
يورسه نادانلار ايله بير كون باريپ قاتل بولور
كلاته لار قيلگان نصيحتنى كيچيكلار آلمسه
عاقبت خلقى بوزوق بير بى ادب جاهل بولور



1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. A.Avloniy "Birinci muallim" kitobidan keltirilgan matnni daftaringizga husnixat asosida ko'chirib yozing va mazmunini tushuntirib bering.

قناعت

بیر کیشینینگ علی و ولی آتلیغ ایککی اوغلی بار ایردی
علی قناعتلیغ ولی قناعتسیز ایردی بیر کون آتاسی بازاردین آما
آلیب کیلیپ ایردی بالالارینی سینماق اوچون چاقیریب مانا
سیزلارغا آما آلیب کیلیم دیدی ولی تیزلیک بیرلا کیلیپ
آتاجان مانگا همه سینی بیرینگ دیدی علی سیکینگنا کیلیپ
مانگا بیرگینا آما بیرسانگیز بولادیر دیدی آتاسی علی نینگ
قناعتیگا آفرین ایتدی و قوچاغیغا آلدی بیساناسیدان اوپوب ایککی

آلما بیردی اما ولی گا آلما بیرماک قایدا قناعتسیز بولما دیب اد
ب بیردی

قناعت بیرلا قارین تویدورورسیز
قناعت بولماسا کوپ آچ قالورسیز
قناعتسیز کیشی بقرینی داغلار
قناعتلیک کیشی آغزینی یاغلار



عبدلله اولانی "تورکی گلستان یاخود اخلاق" دن
حفظ لسان

حفظ لسان دیب هر بیر ملت اوز آنا تیل و ادبیاتینی ساقلاماکنی ایتیلور.
هر بیر ملت نینگ دنیاده بارلیغین کورساتادورگان آیینه حیاتی تیل و
ادبیاتیدور. ملی تیلنی یوقاتمک ملت نینگ روحینی یوقا تمکدور. هیهات!
بیز ترکستان لیلار ملی تیلنی ساقلامک بیر طرفده تورسون کوندن کون
اونوتمک و یوقاتمکده دورمیز. تیلیمیزنینگ یا رمیگه عربی، فارسی
اولانگانی کم لیک قیلوب بیر چیتیکه روس تیلینی هم پاشدورمکده
دورمیز. درست، بیزلارکه حکومتیمیز بولغان روس لسانینی بیلیمک حیات
و سعادتیمیز اوچون آش و نان کبی کیراکلک نرسه دور. لیکن اوز
بیرینده ایشلاتمک و سوزلامک لازم دور. زغیر یاغی سالوب
ماشکیچیری کبی قیلوب آرا لاش قورالاش قیلیمک تیلنینگ روحینی
بوزادور. یاها! بیزگه نه بولدی؟ بابالاریمیز یولیدن چیقوب کیندوک.
«یاخشی قوشنینگدن آگونچه یامان اوپینگنی قیدیر» دیمیشلار.
بابالاریمیزگه بیتوشغان و یاراگان مقدس تیل و ادبیات بیزگه هیچ کمک
قیلماس. اوز اوپیمیزنی قیدیرساک و آختارساک یوقالغانلارنی هم
تاپورمیز. «یوقالسه یوقالسون اوزی باشمگه تار ایدی» دیب یوروپا
قالپاغینی کیوب کولگی بولمک زور عیب و اوپاتدور. پیغمبریمیز
«ایرلارده جمال لسان و تیلدور» دیمیشلار.

ای آنا تیل! عزیز قدر دانیم

التفات رحيم رحمانيم
 توغد يغم كوندن ايلادنگ الفت
 اولگونيمچه آييلمه اى جانيم
 مينگه علم و ادب سن اورگاتدينگ
 چين اديب معلم شانيم
 ملتئينگ روحينى کوتارگوچى سن
 اينگ مقدس كرملى سلطانيم
 عمومى مى تيلنى ساقلاماك ايله برابر خصوصى آغيز آراسيده گى تيلنى
 هم ساقلاماك لازم دور. چونكه سوز انسان نينگ درجه و كمالينى، علم و
 فضائينى اولچاب كورساتادورگان ترازوسيدور. عقل صااحب لارى كيشى
 نينگ دليده گى فكر و نيتى نى، علم و قوتينى، قدر و قيمتى نى
 سوزلاگان سوزيدن بيلورلار.....



1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chiring.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

1-topshiriq. Matnni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Bahor fasli

Bahor faslida kunlar uzayur, daraxtlar barg chiqarur, qishning zulmidan har tarafdan qochgan qushlar kelur, yer ustiga o'tlar yashil gilam kabi yozilur, suvlar toshar, yoqimli yellar turar, gullar yashnar, otlar kishnar, bulbullar sayrar. Yer yuzidagi insonlar-u hayvonlarning yuzida shodlig-u sevinch bir asar ko'rilar. Xususan, sahrov-u bog'larning manzarasi, har tarafdan suvlarning shalolasi, gullarning xush isi, qushlarning go'zal ovoz-nag'masi insonlarning dumog'larini chog' qilub, yangi hayot, yangi ruh, yangi safo berur. (A.Avloniy "Ikkinchi mualim" kitobidan)



1-topshiriq. Matnni daftaringizga ko'chirib yozing va mazmunini tushuntirib bering.

عبدلله اولانى "توركى گلستان ياخود اخلاق" د ن

عفو

عفو دىب كىچورمكى ايتىلور. بير كىشى قىلگان كمچىلىك لارنى بوينىگه آلوب اوكونوب كىچورمكى سوراسه عفو قىلمك لازم دور. چونكه عفو ياخشى خلق لارنىنگ افضللى انسانيت نىنگ اكمل دور.

خدا، حق قرآن كريمده عفونى ماقتاب مدح قىلمىشدور. عاليجناب كىشى لار عذرنى قبول قىلور. بير كىشى قصور و قباحتىنى بوينىگه آلوب عذر ايتسه عفو قىلور، كىچورور. كته ليك و اولوغ ليكنىنگ لذتى بير اودن اوج آماقده ايماس بلكه عفو قىلماقده دور. مثلاً احمد محمودگه بير پامان ايش قىلوب د لىنى آغرىتىدى. محمود احمد د ن اوچىنى آلدى. احمد ايله محمود نىنگ آرايى داگى پامانلكده گى فرق نه اولدى. حال بوكه هر ايكىسى هم بير بيرىگه پامانلىك قىلدى. هر ايكىسى هم غملىك و پريشان بولدى. بير پامانلك ايكى بولدى. اگرده احمد نىنگ قبا حنىگه محمود عفو مكافاتىنى بيرسه ايكىسى هم شاد و مسرور اولور، همده جناب حق عفو و مغفرت قىلوچىدور. نوشيروان «بىر گناه كارنى عفو قىلماكدن قانداي لذت آلگائىمنى هيچكىمگه ايتمىن» د يمش.

اولوغ لارنىنگ ايشى عفو ايلامكدور

كىچىك لار عذر اوچون بىل بايلامكدور

مسلمان ليغده يوق كين و عداوت

د له عفو عدالت جايلامكدور

بىزىم ايشلار حسد بغضو خصومت

حدود د ن چىب چيقوب چىت پايلامكدور

بوتون افعاليمىز بير بيرىگه ضد ليك

اوروب تارتوب آغزنى مايلامكدور



اقسام جهالت

جهالت ایکی قسم دورکه بیرینی «خهل بسیط» ایکینجی سینی «جهل مرکب» دیلور. جهل بسیط مرضی گه مبتلا بولگان کیشیلار بیر نرسه نی بیلماسه لار بیلماگان لیک لارینی اقرار و اعتراف قیلورلار. شونینگ اوچون یونینگ دواسی آسان: فقط بیلمک و اورگانمک یولیده جهد و جدل قیلیمک ایله بولور. جهل مرکب مرضی گه مبتلا بولگان کیشیلار بر نرسه نی بیلماس، بیلماگاننی هم بیلماسدن بیلمن دیب دوعا قیلور. بیزده موندای کیشیلارگه «اوزباشیمچه» و «اوزوم بیلارمان» اسمینی بیرورلار. بو درد بید وانینگ علاچی جناب حق نینگ لطف و عنایتی ایله حل اولنمسه توزالماغی مشکل و آغردور.

MATNLAR USTIDA ISHLASH



1-amaliy ish. Berilgan matnni o'qing va husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

اتفاق

بر کشی نینگ یتى سکز نفر بالاسی بار ایدی بالا لاری نینگ آراسیده بولگان اتفاقسیزلک، اوروش تالاشلارنی کوروب همه لاری نی آلدیگه چاقریدی اون دانه اینگچکه چوب نی برگه قوشوب باغلاب بونی سندورینگیز دیب بالالاریگه بیردی بالالاری نینگ هر برلاری قول لاری گه آلوب زور بیروب کوردیلار هیچ برلاری سندورالمادیلار آخرده سندورماقغه کوچیمیز یتمادی دیب قایتاروب بردیلار آتالاری چوبنینگ باغلغینی چیچوب هر قیمی لاریگه بر دانه دن بیروب منه بونی سندوروب کورینگیز دیگانیده هر برلا ری سویونوب آلوب اونگغایلیک ایله سندوردیلار صونگره اول کشی بالالاریگه باقوب اوغلانلاریم کوردینگیزی سز هم شول چوبلارگه اوخشیسز اگرده بارچه نگر اتفاق بولوب برگه قوشولوب تورساتگیز سزگه هچمینینگ کوچی یتمیدور

اگرده بر برینگز ایله اوروشوب تالاشوب ایریلیشوب یورسانگز سزگه
هرکمینینگ کوچی بیتوب آیاغ آستی قیلادور دیدی
2-amaliy ish. Berilgan hikoyani ifodali o'qing va joriy imloga o'girib yozing.

قناعت



بر ایت اغزیده نان تیشلاب کچکنه کوپروک اوستیدن اوتوب
کتمکده ایدی کوزیگه سو ایچیده اوزیگه اوخشاب نان تیشلاب
تورگان بر ایت کورندی اول ایت نینگ اغزیده گی نانگه هوسی کیلوب
آنی تارتوب آلمک آرزوسیده تیز تیز تیکلگانه سوده گی ایت هم بونگه
کوزین آلایتوروب قاراب قویار ایدی آخرده نفسی غلبه کیلوب آغزین
آچوب ایریلاب سوگا اوزین تاشلادی سوگا توشگاچ بر شونغوب ینه سو
یوزیگه چیققی قرسه نه ایت بار و نه نان سوده کورونگان ایت ایسه
اوزینینگ عکسی ایکان صونگره سوزوب سوزوب زورغه چیتگه بیتوب
اولار حالتده سودن چیقدی اوز نانیدن هم ایریلدی چونکه ایریلاب آغزین
آچگانه ناتی سوگا توشوب آقوب کیتگان ایدی حصه: اوز اغزیده گیگه
قناعت قیلماسدن بر اونینگ نرسه سیگا قول اوز اتگان کشی اوز نرسه سید
ن هم ایریلور

3-amaliy ish. Berilgan hikoyani o'qing va mazmunini tushuntiring.
O'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

حکایت

کونلار نینگ بیریدا سلطان حسین بایقارا شکارگا چیقیشنی اختیار
ایتدی اونگا علیشیر نوانی حضرتلاری همراه بولدی شکاردان قایتار
ایکانلار بیر قیشلاقدان اوتدیلاز کوچه چیتیدا تورگان آلتی بیتتی
یاشلاردگی بالا سلام بیردی سلطان حسین قولینی کوکسیگا قویب علیک
آلدی و اوتیب کیتا بیردی علیشیر نوانی ایسا باله نی کوریب آتینی
توختاندی پاستگا توشوب بالا بیلان قوش قوللاب کوریشدی اوندان
سونگ آتگا مینیب یولگا توشدی نوانی نینگ بو ایشی سلطان حسین
بایقارانی حیران فالدیددی او نوانی گا یوزلانیب سیز سلطان نینگ

وزیری بولسانگیز بونینگ اوستیگا جهانگا تانیقلی شاعر بولسانگیز
 نیمه اوچون گودک بیر بالاگا شونچه لار مروت کورساتادورسیر عالم
 پناه دیدی نوانی گپ بالادا ایماس گپ شوندا که بیر وقتلار شو
 بالانینگ آتاسی مینینگ سوادیمنی چیقارگان ایردی مین استا دیمینینگ
 ییتتی پوشتی آلدیدا همیشه قرضدار دورمان
 4-amally ish. Berilgan hikoyani o'qing va matn asosida savolllar tuzing.

نان قنری

بیر کونی نان ساتیب آلیش اوچون نان دکانیگا باردیم مندان آلدین بر بالا
 نان آلدی اوندان سونگ مینینگ نوبتیم کیلدی و مین هم نان آلدیم اویگا
 قایتایاتگانیمده میندان آلدین نان آلگان بالا آلدیمدا کیتایاتگان ایدی بلا آلگان
 نانیدان بیر توغرام آلیب بیب باراردی ناگاهان اونینگ نانیدان بیر پرچه
 بیرگا توشیب کیتدی مین ایسا نان پرچه سینی بیردان آلیب بیر چیٹگا
 قویدیم بونی کورگان بالا میندان عذر سورادی مین ایسا اونگا نان هم
 اونینگ اوشاگی هم نان ایکانینی شو سبیلی نانی یوروب بیماسایک
 توشونتیردیم کیراکلیگینی



UYGA VAZIFZA

1-topshiriq. Berilgan matnni o'qing, husnixat asosida mashq
 daftaringizga ko'chiring va joriy imloga o'girib yozing.

توغریلغ

بیر کمپیرنینگ اویدا بیر توپ بلخ توتی بار ایردی نهایتدا
 توغری اوسغان ایردی بیچاره کمپیرنینگ شو توتدین باشقا هیچ
 نیمرسیاسی یوق ایردی پیشگان وقتدا قوروتوب قافغا سالوب
 پایلارغا تارتوق قیلوب پول آلیب شو آرقالی وقتینی اوتکارور
 ایردی بیر کون اول شهرنینگ پادشاهی بیر ایوان سالماقچی
 بولوب اوستون اختارگاندا کمپیرنینگ توتی آلدیدا توختادی و
 اوزیچا شول توت یاغاجی توغری کیلسا کیراک دیب اویلادی و
 انی کمپیردین مینگ آلتونغا ساتیب آلدی بیچاره کمپیر بای خاتون
 بولوب قالدی بیر کون کمپیر توتنی کورماق اوچون کیلدی کوردیکه

تۆتى جنت كىبى بىر ايوان اورتاسىندا تۇرىدور كىمىر تۇتىغا
قاراب دىدى كه :

اي تۇتوم تۇغرايىنىڭ قىلدى بىزى دولتغا يار
اىگرى بولسانگ سان اوتون بولغاي ايردىنگ مان خار- زار
تۇغريلار جىننىنگ ايوانىدادور
اوغريلار رنج و علم كوينىدادور

ARAB O'ZLASHMALARI ISHTIROK ETGAN MATNLAR TAHLILI



احمد پستوى حكمت لريد ن

بىشك بىلىنگ بو دنيا پارچا خلقدىن اوتارا
اينانماغىل مالىيگا بىر كون قولدىن كىتارا
آتا آنا قرىنداش قىان كىتى فكر قبل
تورت آياغلىغ چوبىن آت بىر كون سنگا يىتارا
دنيا اوچون غم يىما حقدين اوزگانى دىما
كىشى مالىنى يىما صرات اوزره توتارا
اهل و عيال قرىنداش هىچكىم بولمايدى يولداش
مردانه بول غريب باش عمرىنگ بىلدىك اوتارا
قل خواجه احمد طاعت قيل عمرىنگ بىلما نىچه يىل
اصلىنگ بىلسانگ آب و گل نه گل گآ كىتارا
حكمت

غريب لىغ ده غريب بولگان غريب لار
غريب لار حالى نى بىلگان غريب لار
سبب بىرله يراق بىرگا بارىبا ن
قرىنداش قدرىنى بىلگان غريب لار
سوساگانده سوگا محتاج بولغان
ترىكده زار اولوب اولگان غريب لار

کیشی بیلماس غریب لار حالی نیدور
 مگر بیلگای غریب بولغان غریب لار
 غریب لیغ قاتیغ ایشدور ای عزیزیم
 کیم اول بی قدر اولار مسکین غریب لار
 کیل ایمدی احمد اوزونگا باقغیل
 غریب سین سین غریب مسکین غریب لار



1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chiring.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Ahmad Yassaviy hikmatini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Nodon birla o'tgan umring nori saqar,
 Nodon birla, do'zax andin qilg'ay hazar,
 Nodon birla do'zax sari qilmang safar,
 Nodon ichra xazon yanglig' so'ldum mano.

Ishq dardini talab qildim, darmoni yo'q,
 Ishq yo'lida jon berganning armoni yo'q.
 Bu yo'llarda jon bermasa, imkoni yo'q,
 Har na qilsang oshiq qilg'il, parvardigor.

Shariatning bo'stonida javlon qildim,
 Tariqatning gulzorinda sayron qildim,
 Haqiqatdin qanot tutub tayron qildim,
 Ma'rifatning eshigini ochtim do'stlar.

!?

BOBORAHIM MASHRAB G'AZALLARIDAN O'QISH VA TAHLIL QILISH

1-topshiriq. Mashrab g'azalini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Ko'rsat jamoling mastonalarg'a,
Ishqingda kuygan parvonalar'ga.
Mendin duodur, sendin ijobat,
Jonim tasadduq jononalarg'a.
Ey ko'ngli qattig', rahm aylamaysen,
Qilg'il nazar sen bechoralar'ga.
Kuygan g'aribman, shafqat qil oxir,
Ko'yingda yurgan devonalarg'a.
Mashrab seni deb kechti jahondin,
Boshini qo'yib ostonalar'ga.

2-topshiriq. Matn ustida ishlash.

مشرب غزل لار

اورتار

اگر عاشقلىغيم ايتسام كويوب جان و جهان اورتار
بو عشق سرين بيان قيلسام تقى اول خانمان اورتار
من بيخانمان تينماي كويوب يانديم فراينگده
آتینگ توتسم نگارا ديب كه زوقيدین زبان اورتار
قبو تیل بېرله ای جانا سنى وصفینگ بیان ایلاى
تيلیم لال و كوزوم گریان سونگاكلاریم نهان اورتار
نه فاتیح كون ایكان جانا وصالینگدین جدا بولماق
منی اھیم توتونیغه زمین و آسمان اورتار
بو درد ایلا خراب اولدوم کیلیب حالیمنى سورماسسن
غمینگ باشقه الم باشقه یوراگیمنى فغان اورتار
بو مشرب دردینی جانا كه هیچکیم باشیغه سالمه
اگر محشرده آه اورسم بهشت جاودان اورتار

1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

3-topshiriq. Matn ustida ishlash.

بیر باقیشینگا جمله جانانه تصدق
شہلا کوزینگا عاقل و دیوانہ تصدق
برقع کوتاریب یار منگا نیم قراسہ
جاتیم بیر ایین یولیدہ ہم خانہ تصدق
ساقی بولوبان سونسہ قدح ناز ایلہ ہر دم
اول غمزہ سیدین ساغرو پیمانہ تصدق
یوسف صفت اول جلوہ قلیب چیقسہ قاشیغہ
مین اورگولایین کعبہ و بتخانہ تصدق
جانینگنی اگر بیر دیسہ اول دلبر رعنا
مژگان اوقیغہ قیاسہ بو جاتیم نی نشانہ
کوکسوم بیر ایین یولیدہ حیرانہ تصدق
وعدہ قلیبان ایدی جمالیمنی کورارسن
وحدت میدین ایچکہ بو پیمانہ تصدق
گلگون کیبان چیقسہ اوئل قامت رعنا
مجنون بولایین اورگولایین یانہ تصدق
مشرپ سنی زلفونگنی تراسہ رشکی کیلادور
زلفونگ ناریدین باد صبا شانہ تصدق

1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni joriy imloda mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

4-topshiriq. Matn ustida ishlash.

جمالینگ ساغینیب شام و سحر زار بیغلار من
جنون صحرا سیده دیوانه مجنون وار بیغلار من
یوزینگ شمس و ضحی ماه منور ای پری پیکر
لب لعل و لسانینگ شهد و شکروار بیغلار من
خطینگ باغ بهار و لاله و نسرين سمن ایردی
که من چون بلبل شوریده گلزار بیغلار من
کورای دیب آرزو برله جمالینگ نی من ای زیبا
تور و بدور من ایشیکینده ایا غمخوار بیغلار من
کوز و مدین موج اوروب سیلاب اشکیم توله قان آفتی
اگر یاد یمغه توشساتگ ای پری رخسار بیغلار من
الهی مغفرت در یاسیدین مشربنی شادان ایت
همیشه شیا لله دیب قلند روار بیغلار من

1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

3-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Mashrab g'azalini joriy imloga o'girib yozing va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

ازلدين تا ابد دوست لار همیشه آه دیب کیلیم

تیلیمده ربی الا علی ینه الله دیب کیلیم

که سن اولاد پیغمبر آتینگیز حضرت آفاق

که نومید قیلماغایلار کیم اولوغ درگاه دیب کیلیم

ازلدين منگا سالدی اوشبو اوتنی ای مسلمانلار

انی اوچون کویار من تونکون یوز آه دیب کیلیم

هدایت کورگوزونگ آفاق خواجه پشت پناهم سیز

ادشگان بولده قالگان مین غریبگا راه دیب کیلیم
 کیل ای مشرب امید اینکیل که عفو اینگوی گناهینگی
 حسن برله حسنین حرمتی اول شاه دیب کیلیم

2-topshiriq. Mashrab murabba'sini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Hamdu sanolar aytay Xudog'a,
 Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
 Yetgaymu dodim nozuk adoga,
 Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
 Shum toleimdan ko'rdum jafoni,
 Holim so'r emdi, bergil davoni
 Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
 Bulbuldayinkim faryod etarman,
 Ishq daftarini bunyod etarman,
 Ko'nglumni bir dam men shod etarman,
 Yorga yetar kun bormu, yoronlar?
 Sham'i firoqing ko'ksimda yondi,
 Ko'z yoshim oqib bag'rimga tomidi,
 G'aflatda qolgan Mashrab uyondi
 Yorga yetar kun bormu, yoronlar?



LUTFIY RUBOIYLARIDAN O'QISH VA TAHLIL QILISH

1-topshiriq. Lutfiy ruboiylarini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Ey ko'ngul, bu yo'lda ne g'amdur senga
 Kim, xayoli yor hamdamdur senga.
 Sevdung o'z haddingdin ortuq yorni,
 Gar seni kuydursalar, kamdur senga.

Furqatingni chekkali jon qaydadur,
 Sabr etarga sensiz imkon qaydadur!
 Bizni bir yo'li faromush aylading,
 Ul burunqi ahdu paymon qaydadur?!

لطفی رباعی لاری

اول منینک جان و جهانیم غا سلام

جاندین آرتوق مهربانیم غه سلام

بیر زمان خالی ایماس مین یادی دین

مونس جان و روانیم غه سلام

بی دوالیغ ایچره رونق مو بولور

دعوی عشق ایلاسه حق مو بولور

بیر ساغینسانگ بیزنی ییل و آی کیراک

یخشی لارنینگ ایشی مونداق مو بولور

کیم که جان لیق بولسه جانانی کیراک

خسته نینک البته درمانی کیراک

بیر نیچه کون هر کیشی سیوگای ولی

بومحبت نینک کی پایانی کیراک

بو نی قاشو غمزه عیار ایرور

بو نی شکل و شیوه و رفتار ایرور

سیزگا آسان دور اگر مین بولماسام

سین سیز مین لیک منکا دشوار ایرور

1-amaliy ish. Lutfiy ruboiylarini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Lutfiy g'azalini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Nigoro, sensizin mendin ne hosil?

Agar jon bo'lmasa tandin ne hosil?

Chu guldin rang emas, bulbulg'a bo'ye

Bahor-u, bog'-u gulshandin ne hosil?

Jafoyu ishvalarni fan tutubsen,
 Munungtek ishva-yu fandin ne hosil?
 Kishikim, yo'qturur mehr-u vafosi,
 Agar xurshidturur, andin ne hosil?
 Bu turluk husn ila Lutfiy qulung'a
 Inoyat qilmasang, sandin ne hosil?

2-topshiriq. Lutfiy tuyuqlarini joriy alifboga o'girib yozing va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

تويوق لاری

بیر نظر قیلدیم قول اولدوم آیه مین
 اول سببتین جان و دلنی آیه مین
 گر منی شاهیمغه بیتکور سه خدی
 خصرتینده سرگذشتیم آیه مین
 مین سینینگ ایلکینگ دین ای دل بنده مین
 وه قچان بیتکایمین اول دل بنده مین
 بیوقالار غه مینی قیلدینگ اسیر
 سین منگا سلطان سن ای دل بنده مین
 ای کونگول یار سیز سنگا نی بار بار
 قایداکیم اول ذلف عنبر بار بار
 چیک جفا و جور و نازی بارینی
 بیر کون اولغای کیم دیگای لار بار بار
 گرچی قوروتماس کوزوم نینگ یاشینی
 حق اوزون قیلسون اول آی نینگ یاشینس
 بیغلاما کوپ بو وجودنینگ عشق اوتی
 نی قوروغین قویغوسی نی یاشینی

غزل اطفی

سین سن سواریم خواه اینان خواه اینانما
 قاندور جگریم خواه اینان خواه اینانما
 هجران کیچاسی چرخ فلک کا پیثار آری
 آه سحریم خواه اینان خواه اینانما
 حقاکه قیلچ کیلسا باشیمغا ایشیکینگ دین
 یوقتور کوزیم خواه اینان خواه اینانما
 اسروک کوزونگ اشکالینه هر که نظر ایتسام
 قالماس خبریم خواه اینان خواه اینانما
 یعقوب دابین کوب بیغیدین قالمادی سین سیز
 نور بصریم خواه اینان خواه اینانما
 آی یوزیگا کوز سالغالی اوزگا کیشی برلا
 یوقتور نظریم خواه اینان خواه اینانما
 عشق اوستیدا لطفی یوزی التون نی یاشوردی
 ای سیمبریم خواه اینان خواه اینانما



1-amaliy ish. Lutfiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

غزل اطفی

قان بولدی کونگول فراقینگز دین
 جان کویدی هم اشتیاقینگز دین
 دین و دل و عقل بولدی یغما
 جان الغوچی اول فراقینگز دین
 سو بولدی حالیم ولی دمدام

اوت قا ياقيلور دوداقينگيز دين
 اوقديك بويوميز ايگيلدى يايديك
 اول فتنه ليك ايكي طاقينگيز دين
 آلتون كبي چهره بولدى ساريغ
 اول سيم بकिन سقاقينگيز دين
 كور سام كيراك آي و كون بولوت سيز
 ساچنى كيتارينگ ينگاقينگيز دين
 بو لطفى خسته نى سورونگ كيم
 بيچاره اولور فراقينگيز دين

1-amaliy ish. Lutfiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. G'azalni joriy alifbo asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

غزل اطفی

ای پری رخساره لار بیزگا نگاه ایلاب اوتونگ
 بر نظر بر لا گدانی پادشاه ایلاب اوتونگ
 گرچه اوتگاندا کیرار سیز کوپ کیشی نی قانینه
 بو گدا کونگلی اوچون مونچه گناه ایلاب اوتونگ
 خار لیق حدین آشورمانگ چونکه عزت بولدادور
 آتینگیز نعايندا بیزنی خاک راه ایلاب اوتونک
 هر قچان جان بیرسام اول قد و اغیز یادی بیله
 ای محب لار تربیتیم اوستیده آه ایلاب اوتونگ
 بیر نیچه کیم سیزگا زحمت دور زکات حسن اوچون
 التقاتی لطفی ساری گاه گاه ایلاب اوتونگ

1-amaliy ish. Lutfiy g'azallarini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Lutfiy g'azalini daftaringizga ko'chirib yozing va mazmunini tushuntirib bering.

2-topshiriq. G'azalni joriy alifboga o'girib yozing.

3-topshiriq. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

غزل اطفی

جانیم چیقادر درد ایلا جانانیمه ایتینگ
مین خسته گدا حالینی سلطانیله ایتینگ
بو غضبنی اول شمع شایستهانیله ایتینگ
قت قت یوراکیم باغلادی قان غنچه مینگز لیق
بو درد دلیمنی گل خندانیمه ایتینگ
قان یاشیم ایرور یوز اوزه کبی ساتسیر
اول کوزلاری چولپان مه تابانیمه ایتینگ
لطفی دل افکار تیلار هجر ایلیدین داد
احوالینی اول بیگیم و خانیمه ایتینگ

1-topshiriq. Lutfiy g'azalini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring.

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,
Xoru rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
O'q bikin qomatimizni qora qoshliqlar uchun
Muttasil yo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
Meni yozg'urma sevar debkim, mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
"Borma,-derlar,-eshigi sori damo-dam". Netayin,
Ko'p taqozo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
Tori mo'yin havasi birla qorong'u kechada
Jonni savdo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
Dushman-u do'st orasinda meni g'ofilni mudom
Besaru po qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.
O'zgin ko'rmakka ko'zung yoshini, ey Lutfiy,
Ayni daryo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

نَوَائِي حِكْمَتَلَارِي

دانه درنی قولاق آزاری بیل
سوزنی قولا قنسنگ در شهواری بیل

کبه که عالم نینگ اولوب قبله سی
قدری یوق اندا قکه کونگول کعبه سی

چرخ که مهر آلتونین ایلار نهان
یوزینی آنینگ قرا ایلارجهان

ترک ادب دین بری کولگودورور
کولگو ادب ترکیگا بیلگودورور
کولگوکه اوز حدیدین اولدی یراق
یغلاماق اندین کوب ایرور یخشیراق

قیقهه کیم هزیل انینگ یاریدور
قربقه صوتی بیلا رفتاریدور

اول که سقال باغلابان ایل کولدورور
کولگی سقالیغه اوزی کیلتورور
مسخره کیم کولگو اوچون یاج بیر
بر درم آغونچه ایکی کاژ بیر

سجده گدا الیدا ایرماس کرم
بیلکه کرم دور انگا بیرمک درم

باشنى فدا ايلا انا قاشيغە
جاسمنى قيل صدقه انا باشيغە
اككى جهاتينگ گيا تيلارسين فضا
حاصل ايت اوش بو اككيسيدىن رضا
ئون كونونگه ايلاغالى نور فاش
بريسين آي انگلا بريسين قوياش
سوزلاريدىن چيكمه قدم تاشقارى
حتلاريدىن قويمه قدم تاشقارى
بولسون ادب برله بارى خزميتينگ
حم قيل ادب دالى كىي قاميتينگ

1-amaliy ish. Navoiy hikmatlarini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Alisher Navoiy hikmatlarini daftaringizga ko'chirib yozing va mazmunini tushuntirib bering.

كىمكه اولوغراق انگا حرمت كيراك
اولكه كيچيكر ك انگا شفقت كيرك

عزتى حد ين كيم ايسا خوب ايسا س
حد ين آرتوق داغى مرغوب ايسا س

گل کورونور ياتيدا يوز خواری بار
بار ايسا بر عشق مينگ آزاری

تیلبه گَا اوت شکلی گلستان ایرور
توشسه خلاص قچان امکان ایرور

عیش نوایی نیچه دلکش دورور
لیک ادب برلا حیا خوش دورور

ساقی ادب شرطینی آماده توت
آل نیمه تققوز یوکونوب باده توت
تا انی ایچ دیب سنگا من یوز توتای
تامسه توقوز آقسه خود اوتتوز توتای

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDAN O'QISH VA TAHLIL QILISH

علیشیر نوایی غزلاریدن

تایمادیم

مهر کوپ کورگوزدوم اما مهربانی تایمادیم
جان بسی قیلدیم فدا آرام جانی تایمادیم
غم بیله جانیمغا بیتیم غمگساری کورمادیم
هجر ایله دل خسته بولدوم دلستانی تایمادیم
عشق ارا یوز مینگ ملامت اوقیغا بولدوم نشان
بیر کمان ابرودا توزلوکدین نشانی تایمادیم
کونگولوم ایچره سرو اوقدور غنچه پیکان گل تکان
دهر باغی ایچره مونداق گلستانی تایمادیم
حسن ملکی ایچره سیندیک شاه ظالم کورمادیم
عشق کویدا اوزومدیک ناتوانی تایمادیم
کوپ اوقودوم وامق و فرهاد و مجنون قصه سین
اوز ایشیمدیک بوالاجبراق داستانی تایمادیم
اول زمان ایچیندا بولسون ای نوانی گرچه مین

بیر زمان ایشقیدا محنتدین امانی تاپمادیم
طبع گنجیدین معانی خرده سین یوز قتله حیف
کیم نثار ایتماککا شاه خرده دانی تاپمادیم



1-amaliy ish. Navoiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib

yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

علی شیر نوایی غزل لار
خانقه ده خلقه ء ذکر ایچرا غوغا قیلدی شیخ
اهل دل لار نقد اوقاتینی یغما قیلدی شیخ
اول بیرری دام ایرد بیو بیر دانه ایل صیدی اوچون
هر قچان کیم عزم تسبیح و مصلا قیلدی شیخ
یا خیال ینک یاخود خانقه فکری ایدی
هر کرامات و مقالاتی که افشا قیلدی شیخ
کف قاقیب فرید ایتیپ سیکر اب پری وش لارنی صید
قیلغالی دیوانه لیغ لار آشکارا قیلدی شیخ
نوق چیقید خلوت دین اوزنی روزه دیب جهالدین
اسرو کوپ باداننی اوز طور یغه شیدا قیلدی شیخ
با وجودی مسح ذادانلیق مرید ایلار اوچون
کوپ اوزیدین مسح نادانراقنی پیدا قیلدی شیخ
دیر بیرری نینگ مریدی مین که فیضی عام ایرور
خانقه دا فیض عام ایلدین تمنا قیلدی شیخ
دیر ارا تیندی قولاغیم راهبا ذکرینگ بغیر
کیم سحر ذکر ایتوریدا کوپ علا لا قیلدی شیخ
ای نوایی خرقة سین بیردی کرامات ایلادی
کیم منکا ترتیب وجه رهن صهبا قیلدی شیخ

1-amaliy ish. Navoiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

1-topshiriq. Navoiy hikmatlarini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring.

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Kamol et kasbkim, olam uyidin -
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak oson emas oning haqqin yuz ganj ila.

Turk nazmida chu tortib men alam
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Alisher Navoiy g'azalini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing, mazmunini tushuntiring va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

Kecha kelgumdur, debon, ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.
Lahza -lahza chiqtim-u, chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-u, ul sho'xi badxo' kelmadi.
Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'onda qarong'u kelmadi.
Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.
Ko'zlaringdin necha suv kelgay, deb o'lturmang meni
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.
Tolibi sodiq topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam
Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqi o'tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,

Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

2-topshiriq. Alisher Navoiy g'azalini joriy imloga o'girib yozing, o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

علیشیر نوای غزلاریدن

یوزین کور قیلما غیل مژگان و خط و خالیدین ژاله

که بولماس خارسیز کل دودسیز اوت داغ سیز لاله

چو مین دور تیشلارینگ هجریدین اولدوم نی اسینگ کر چرخ

نجوم اشکینی یاغدورسا باشیمغه اولاکیم ژاله

ایماس بو بیر سرشکیم قانی کیم کوز مردمی سالور

ایتینگ آلیدا باغریمنی اوزوب پرکاله پر کاله

لبینگ آب حیاتین خضر خطینگ نوش ایتار ساعت

حباب اولمیش اوشاق بیر ایکی آنی دیمه تبخاله

یوزونگ دور ایلا خط چتری ارا ای خوبالار شاهی

که بولمایدو قمر دوریدا هرکز بو کیبی هاله

پیاله برلامی آغزیمه کویتین قویما ای ساقی

کی اول جوهرغه کوپارکیم مناسب کیل ایرور کاله

بو بزم اهلیمغه بیل کیم عاقبت جزی وفالیم یوق

نوایی خواه لغن عیش توزکیل خواه قیل ناله

BOBUR RUBOIYLARIDAN O'QISH VA TAHLIL QILISH

بابر رباعی لاری

یاد ایتماس ایمیش کیشی نی غربت دا کیشی

شاد ایتماس ایمیش کونکول نی محنتدا کیشی

كونكلوم بو غريب ليغ دا شاد اولمادی آه
غربت دا سيونماس ايميش البته كيشی

ای کل نی اوچون قاشینگدا مین خوار اولدوم
یوز محدنت و اندوه بیلا یار اولدوم
وصلینگ بیلا بسیار سیووندوم اول
هخرینگ بیلا عاقبت کرقتار اولدوم

قایغونکنی چیکا چیکا قاریب دور بابر
رحم ایلاکه اوزیدین باریب دور بابر
نارنج ییاردی سنکا کیم بیلکای سین
یعنی که بو نوع سارغاریب دور بابر

كونكلی تىلاكان مراد غا يیتسا كیشی
یا بارچا مرادلار نی ترک ایتسا كیشی
بوایکی میسر بولماسا عالم دا
باشینی آلیب بر ساریغا کیتسا كیشی



1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Bobur ruboiysini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing, mazmunini tushuntiring va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

Tole' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuzqarolig‘ bo‘ldi.

Eykim, yoralig‘ jismima marham sensen,
Majruh ko‘ngulg‘a nishtarim ham sensen.
Gah shodu gahi g‘amgin esam, ayb etma,
Kim boisi shodmonlig‘-u g‘am - sensen.

Ko‘pdin berikim, yoru diyorum yo‘qtur,
Bir lahzau bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

BOBUR G‘AZALLARIDAN O‘QISH VA TAHLIL QILISH

1-topshiriq. Z.M.Bobur g‘azallari matni ustida ishlash.

غزل بابر

جرخ نینگ مین کورماکان جور و جفاسی قالد یمو
خسته کونکولوم چیکماکان درد و بلاسی قالد یمو
مینى خارايتى و قیلدى مدعیى غه پرورش
دهردون پرورنى اوزگا مدعاسی قالد یمو
مینى اولتوردی جفا و جور برلا اول قویاش
ایمدی تیرکوزماک اوچون مهر و وفاسی قالد یمو
عاشق اولغاچ کوردوم اولوم نی اوزوم کا ای رفیق
اوزکا کونکولوم نینگ بو عالم دا هواسی قالد یمو
ای کونگول کر بابر اول عالم نی ایستار قیلما عیب
تتکری اوچون دی بو عالم نی صفاسی قالد یمو

1-amaliy ish. Bobur g‘azalini ovoz chiqarib ifodali o‘qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko‘chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o‘zlashgan qatlamga oid so‘zlar lug‘atini tuzing.

4-amaliy ish. O‘zlashgan qatlamga oid so‘zlarning matndagi ma‘nosini izohli lug‘atlardan foydalanib tushuntiring.

2-topshiriq. Bobur g'azalini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring.

Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?
Kimki, ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshilig'!
Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko'rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig'!
Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko'ngluma,
Kelmadi jonimg'a hech oromijondin yaxshilig'.
Eu ko'ngul, chun yaxshidin ko'rdung yamonliq asru ko'p,
Emdi ko'z tutmoq ne ma'ni har yamondin yaxshilig'?
Bori elga yaxshilig' qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'!
Yaxshilig' ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko'rubdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshilig'?



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Bobur g'azalini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring, o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

Sendek manga bir yori jafokor topilmas,
Mendek sanga bir zori vafodor topilmas.
Bu shakl-u shamoyil bila xud huru parisen,
Kim jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.
Ag'yor ko'z olidau ul yor ayon yo'q,
G'am xori ko'ngul ichrayu g'amxor topilmas.
Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko'zum yumub ochkuncha, bu gulzor topilmas.
Bobur senichun yor dedi, yorlig' etgil,
Olamda kishiga yo'q esa, yor topilmas.



BOBUR "BOBURNOMA"DAN O'QISH VA TAHLIL QILISH

پاپورفامه دان

تینگری تعالی نینگ عنایتی بیلان و حضرت آن سرور
کائنات نینگ شفاعتی بیلان و چهار یار با صفا لاری نینگ همتمی

بیرلان سه شنبه کونی رمضان آیینینگ بیشیدا تاریخ ساکیز یوز
 توقسان توقوزدا فرغانه ولایتی دا اون ایکی یاشتا پادشاه بولدوم
 فرغانه ولایتی بیشینچی اقلیم یندور معموره نینگ کناره سیدا واقع
 بولوبتور شرقی کاشغر غربی سمرقند جنوبی بدخشان نینگ
 سرحدی تاغلار شمالیدا اگرچه بورون شهرلار بار ایکاندور مثل
 المالیق و الماتو و ینگى کیم کتبلاردا اطرار کنت بیتیرلار مغول
 و اوزبیک جهتیدین بو تاریخدا بوزولوبتور اصلا معموره
 قالمابتور مختصر ولایت تور آشلیق میوه سی فراوان گرده - گردی
 تاغ واقع بولوبتور غربی طرفیدا کیم سمرقند و خجند بولغای تاغ
 یوقتور اشبو جانبین اوزگا هیچ جانبین قیش یاغی کیلا آلماس
 سیخون

دریاسی کیم خجند سوی غا مشهوردور شرق و شمالی طرفیدین
 کیلیب بو ولایتینگ ایچی بیلا اوتوب غرب ساری آقار خجند
 نینگ شمالی فناکت نینگ جنوبی طرفیدین کیم حالا شاهروحیه غا
 مشهوردور اوتوب ینا شمالغا میل قیلیب ترکستاندین خیلی قوییراق
 بو دریا تمام قومغا سینگار هیچ دریاغا قویلماس فرغانه نینگ
 بیتتی پاره قصبه سی بار بیشی سیخون سوی نینگ جنوبی
 طرفیدا قالغان ایککیسی شمالی جنوبیدور جنوبی طرفیداغی
 قصبه لاردان بیرى اندیجان دورکیم وسطا واقع بولوبتور فرغانه
 ولایتی نینگ پایتختی دور آشلیغی وافر میوه سی فراوان قاوون و
 اوزوملاری یاخشی بولور قاون محلیدا فالیز باشیدا قاون ساتماق
 رسم بولماس اندیجان نینگ ناشباتی سیدین یاخشی راق ناشباتی
 بولماس

ماورالنهردا سمرقند و کیش قورغانیدین سونگرا موندین اولوغراق
 قورغان یوقتور اوچ دروازه سی بار ارکی جنوب طرفیدا واقع
 بولوبتور توقوز ترناو سوکیرار و بو عجب تورکیم بیر بیردین هم
 چیقماس قلعه نینگ گرده - گردی خندق و خندق نینگ تاش یاتی سنگ

ریزه لیق شاه راه توشوبتور قلعه نینگ گرده – گردی تمام محلات تور
بو محله بیرلا قلعه غا فاصله اوشبو خندق تور و یاقاسیداغی شاه راه
تور قوشلاری کوب بولور قیرغاولی بیحد سیمیز بولور انداق روایت
قیلدیلار کیم بیر قیرغاولنی اسکنه سی نی تورت کیشی بیب توگاتا
المایدور ایلی ترکتور.

1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. "Boburnoma"dan Samarqand shahri tasvirini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.



MUQIMIY G'AZALLARIDAN O'QISH VA TAHLIL QILISH

1-topshiriq. Muqimiyning "Ko'nglum sandadur"
murabbasini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Mehring o'ti nogoh tushdi jonlarga,
Parvoyim yo'q zarra xon-u monlarga,
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Ertta-yu kech fikr-u zikrim xayoling,
Bir so'rmading, nalar kechti ahvoling,
Eslaringa tushib shirin maqoling,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

2-topshiriq. Muqimiy g'azallari matni ustida ishlash.

مقیّی غزل لاری

نوبهار آچیلدی گل لار سیزه بولدی باغلار
صحبت ایلایلوک کیلینگ لار جوړه لار اورتاغ لار
خوش بو محفله تیریکلیک الفت و احباب ایلان
اویناشیب گاهی طبیعت نی قیلایلوک چاغلار
رخ آچیب کوزدین نهان بولسه پریدیک نیلاسون
آیریلیب هوش و عقل دین تیلبه بولملی ساغلار
هیف کیم اهل تمیز اوشبو محله خار ایکان
آلدیلار هر بیرده بلبل آشیانین زاع لار
وهم ایستاب کیمسه دین غم د لنی اظهار ایلاسم
چاره قیلمکدین اوزگا اوستیغه تیرناغلار
تابکی مونداغ ملامت کنجیده دایم مقیم
بو زمان کوز توتکین ایمدی سنگا اولسون تاغلار

1-amaliy ish. Muqimiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnни husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

3-topshiriq. Matn ustida ishlash.

یارب اول آی هجریده افغان قچانغچه
دادیم ایشیتماس اول شه خویان قچانغچه
یاتتیم یولیده گلخن اییب فرقت اوتیدین
باقمای اوتار منینگ ساری جانان قچانغچه
عاشق لار تظلم و جوړو جفالارینگ

اغيار ايلغىغە لطف ايله احسان قچانغچە
 يعقوب وار حسرتيده نوكتى قان كوزوم
 بيلماس بو سرنى يوسف كنعان قچانغچە
 ضعف اولدى جسم زاريم و سورماس كىليپ نگار
 قيلماس طبيب دردمه د رمان قچانغچە
 عرض ايل اكي ماميد ايله حالينگنى اى مقيم
 رحم ايلاماس گداسيغە سلطانقچانغچە

1-amaliy ish. Muqimiy g'azalni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni joriy imloda mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Muqimiy g'azalini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring, o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

Oshiq bo'lubman, ey yori jonim,
 Vaslingni izlab, yo'qdur majolim.
 Bir yo'qlamaysan kuygan qulingni,
 Ko'zlari jallod, nozik niholim.
 Rahm ayla manga, ey bag'ri qattiq,
 Diydam to'la qon, ey sho'xi zolim.
 Lab tashnalarga ayla nazora,
 Qildi chu shamshod qoshi hilolim.
 Oldung ko'ngulni bir-ikki so'zlab,
 Devona bo'ldim, to'ti maqolim
 Har dam kuyarman, yoding'a tushsang,
 Bir ko'rmaguncha yo'qdur majolim
 Necha zamondur, ko'zdin nihondur,
 Oshiq Muqimiy, ey xasta holim.

فرقت غزل لاریدن نمونه لار

آه کیم رحم ایلاماس حالیکه جانانیم منی
 کوییدی بو حسرت اوتیده کویماکان جانیم منی
 بیغلامیمو گوشه ظلمات آرا تاتگ آتتوجه
 بولماسا بیر تون کییب شمع شبستانه منی
 باشیمه سودا توشوب آشفته حال اولمای نیتای
 جلوگر بولسه اوئل کاکل پریشانیم منی
 عارضی گل زلف سنبل کویلاگی برگ سمن
 خلعتی رعنا بویی زیبا گلستانیم منی
 گرچه اولدوم عشقیده بیر ذره پروا ایلاماس
 اول تغافل پیشر استفناچی لقمانیم منی



1-amaliy ish. Furqat g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

فرقت غزل لاریدن نمونه لار

هر کیچه عشقینگده جانا کوزلاریم قان بیغلادی
 سوزشیمدین اورتانیب شمع شبستان بیغلادی
 کیچه لار بیرگا توکولگان آنقد ر کوکب ایماس
 رحم ایتیپ حالیم کوروب گردون گردان بیغلادی
 ابر باران ایرماس ایردی اول بهار ایامیده
 روزگار سنگدل حالیمغه چندان بیغلادی
 یوز ایله کوزینگ غمی آواره قلدی جمله نی
 لاله قان یوتی و آهوی بیابان بیغلادی

كېلدى قاصد كوردى سارغارغان عزاريم هجردين
 نامه نى بېرماسدين اول تارتيب افغان بېغلادى
 نازديم هر لفظين او قورده قان بولوب آقدى جگر
 كونگلوم اورتاندى باغير ايزدى همان جان بېغلادى
 ساجراغان صحن قلك كا هر طرف ايرماس شفق
 فرقتينگده قان ساچيب شام غريبان بېغلادى

1-amaliy ish. Furqat g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni joriy alifbo asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

فرقت غزل لاريدن نمونه لار

اى مسلمان لار ايكي كافر كوزى بيداريدىن
 قالمادى جان و كونگل ده صبر و سامانيم منى
 قولگاندين كويده اولتورگاي ايردى كاشكى
 استانيغه توكولسه بېر قاشوق قانيم منى
 درديمه بى چاره ليغدين چاره قيلماسمودى
 بولسه ايردى تاشكندده بېر قدردانيم منى
 فرقت اول مهوش فراقيده يتار گردون سارى
 كيچه دين تا صبح چيكان آه و فغانيم منى

1-amaliy ish. Furqat g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

3-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Furqat musaddasini arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring, o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek,
 Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek.

O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismi ko'b yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Kes rishtanikim, qilsun chapaklar otib jasta,
Hajringda alam tortib, bo'ldi jigari xasta,
Tog'larg'a chiqib bo'lsun yori bila payvasta,
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta.
Hijron o'qidin jismi ko'b yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,
Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg'ur suyi to'lganda, tog' lolani jom etsun,
Haqqingg'a duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o'qidin jismi ko'b yora ekan mendek,
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mendek,.

YANGI VA ESKI YIL HISOBLARI

Kitoblarning yozilgan va ko'chirilgan vaqti har doim ham abjad hisobida berilavermaydi. Agar siz qo'lyozma kitoblarning tugallanmasiga e'tibor bergan bo'lsangiz quyidagicha yozuvlarga ko'zingiz tushadi³:

۱۲۳۱

ایزدی مسؤل کلام فضلی و کرمی برله تمام تاپتی... سنه

Izadi mas'ul kom fazli va karami birla tamom topti sanasi 1231, yoki

تمت الكتاب بعون الملك الوهاب در سنه ۱۲۴۶

tammat-ul-kitabi bia'v-il-malik-il-vahhabi dar sanai 1246 (yoki boshqa yil raqami kelib chiqadigan jumla yozilgan bo'lishi mumkin). Yuqoridagi 1231 va 1246 raqamlari eski yil hisobi bo'yicha asar tugallangan yilni bildiradi. Mana shu eski yil hisobi hijriy yil deb ataladi. Hijriy yil 622 milodiy yildan, ya'ni Muhammad payg'ambarning Makkadan Madinaga ko'chgan davridan boshlanadi. Hijriy yil ikki xildir. Biri – hijriy - qamariy, ikkinchisi – hijriy - shamsiy yil hisoblari.

³ Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. –T.:O'qituvchi, 1989. –B.144.

Musulmon mamlakatlarining barchasida hozir ham hijriy yil hisobidan foydalaniladi. Hujriy - qamariy yil hisobi oyning yer atrofida aylanish davriga asoslangan, hisob oy kunlari asosida olib boriladi. Bu hisob bo'yicha yil 354(355) kundan iborat.

Hijriy - qamariy yil 12 oydan iborat bo'lib, toq oylar 30, juft oylar 29 kunlik qilib olingan. Kabisa yilida esa 12 oy 30 kunlik qilib olinadi. Shu yil kabisa hisoblanib, 355 kundan iborat bo'ladi.

Hijriy - shamsiy yil hisobi yerning quyosh atrofida aylanish davriga asoslangan, hisob quyosh kunlari asosida olib boriladi. Yer quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishi davri bir yil hisoblanib, bu davr 365(366) kunga teng bo'ladi.

Hijriy - shamsiy yil ham 31 va 30 kunlik 12 oydan iborat bo'lib, faqat bir oy 28 kun bo'ladi. Har to'rtinchi yilda bu oy 29 kunlik hisoblanib, shu yil kabisa, ya'ni 366 kunlik bo'ladi. Hijriy - qamariy va hijriy - shamsiy yillar orasidagi 11 kunlik farq qamariy yil oylarining siljib yurishiga sabab bo'ladi. Har 33 yilda hijriy - qamariy yili bir davrani aylanib chiqib, yana bir vaqtga to'g'ri keladi, qamariyning 33 yili shamsiyning 32 yiliga tengdir.

Ma'lumki, milodiy yil Grigoryan yili bo'lib, bunda oylarning ba'zilar 30 va ayrimlari 31 kundan, yolg'iz biro y 28 kundan iboratdir. 28 kunlik oy to'rt yilda bir marotaba 29 kun bo'ladi va shunday yil kabisa yili deb ataladi. Shunday qilib, milodiy yil 365-366 kunlikdan iborat bo'ladi.

Oyni 29, 5,30,59 kecha-kunduzda o'zining birinchi joyiga qaytib kelishi aniqlangan. Ammo kun, hafta va oylar faqat butun sonlardan iborat bo'lishi lozimligidan yil oylari shartli ravishda 30 va 29 kecha-kunduz deb olingan. Ko'rinib turibdi - ki, taqvimiy oy hisobi oyning haqiqiy davridan ortda qolib boradi. Bu ortda qolish 30 yilda taxminan 11 kecha-kunduzga yetadi. Arablar bu farqni yo'qotish uchun hijriy taqvimga har 30 yilda 11 kecha-kunduz qo'shib, 30 yilning 19 yilini odatdagidek 354 kecha-kunduz, 11 yilini 355 kecha-kunduz hisoblaydilar, binobarin, har 30 yillik siklning 2, 5, 7,10, 13, 16, 18, 21, 24, 26, 29 yillari kabisa, ya'ni 355 kunlik hisoblanadi. "kabisa" arabcha so'z bo'lib, "to'ldirilgan", "orttirilgan" degan ma'nolarni bildiradi. Demak, kabisa yili to'ldirilgan yildir.

Yilning oddiy yoki kabisa yil ekanini bilish uchun uni 30 ga bo'lish kerak. Agar qoldiq yuqorida ko'rsatilgan sonlardan biri bo'lsa, shu yil kabisa yili bo'ladi. Kabisa yilida zu - 1 - hijja oyiga bir kun qo'shilib, 30 kun hisoblanadi. Bu hisoblash shartli bo'lib, amalda esa mazkur ortiqcha kun istalgan oyda paydo bo'lishi mumkin.

HIJRIY-QAMARIY YILNI MILODIYGA, MILODIY YILNI HIJRIY-QAMARIYGA AYALANTIRISH

Hijriy yilni milodiy yilga aylantirish uchun uni 33 ga bo'lish (33 soni, avval aytib o'tganimizdek, hijriy va milodiy yillarning bir-biriga to'g'ri kelish davrini bildiradi), bo'lishdan chiqqan sonni hijriy yildan ayirish. ayirishdan qolgan songa 622 ni qo'shish kerak (622 soni, yuqorida ta'kidlaganimizdek, Muhammad payg'ambarimiz Makkadan Madinaga ko'chgan yilini anglatadi). Shu amallardan chiqqan natija milodiy yil bo'ladi. Misol uchun buyuk qomusiy olim AbuRayhon Beruniyning tug'ilgan yilini (hijriy 362) olaylik. Yuqoridagi shartga muvofiq, Beruniyning tug'ilgan yilini (hijriy 362) olaylik. Yuqoridagi shartga muvofiq, Beruniyning tug'ilgan yilini milodiyga aylantirmoqchi bo'lsak, quyidagicha yechim chiqadi:

$$362:33=11, 362 - 11 \cdot 33 = 351, 351+622 = 973$$

Demak, Beruniy milodning 973 yili dunyoga kelgan ekan.

Bu amalning formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$M = H - \frac{H}{33} + 622$$

(H – hijriy yili, M – milodiy yili).

Endi milodiy yilni hijriyga aylantirish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak.

Milodiy yildan 622 ayirib olinadi, yana suratda milodiydan 622 ayirib olinib, 32 ga bo'linadi va ikki amal natijasi qo'shiladi. Mana shu qo'shima natijasi hijriy – qamariy yil bo'ladi. Bu amalning formulasi quidagicha:

$$H = M - 622 + \frac{M-622}{32}$$

Izoh: Ba'zan 33 ga yoki 32 ga qilinganda natija qoldiq bilan chiqadi. Agar o'sha qoldiq bo'luvchi (33 yoki 32) ning yarmidan ziyoda bo'lsa, ya'ni 17 dan katta bo'lsa, u holda $\frac{H.q.}{23}$ yoki $\frac{M-622}{32}$ – chiqqan natija butun songa yaxlitlanadi, ya'ni butun qismiga 1 qo'shib olinadi. Agar qoldiq 16 va undan kam bo'lsa, unda $\frac{H.q.}{33}$ yoki $\frac{M-622}{32}$ natijaning faqat butun qismi olinadi.

HIJRIY-SHAMSIY YILNI MILODIY YILGA, MILODIY YILNI HIJRIY-SHAMSIYGA AYALANTIRISH

Ma'lumki, hijriy – shamsiy yil hisobi ham milodiy yil kabi quyosh kunlariga asoslanadi. Ya'ni har ikkala yil muddatining davomiyligi 365(366) kundan iborat. Milodiy yilni hijriy- shamsiy yilga aylantirish uchun milodiy yildan 622 ni ayirish kerak. Chiqqan natija hijriy-shamsiy yilni bildiradi. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin.

1989 (milodiy yil) – 622 = 1367 (hijriy – shamsiy yil)

Hijriy – shamsiy yilni milodiy yilga aylantirish uchun esa xuddi shunga teskari amal qilinadi. Ya'ni hijriy – shamsiyga 622 soni qo'shilsa, milodiy yil kelib chiqadi:

1367 (hijriy- shamsiy yil) + 622 = 1989 (milodiy yil)

HIJRIY SHAMSIY YILNI HIJRIY QAMARIYGA, HIJRIY QAMARIY YILNI HIJRIY –SHAMSIYGA AYLANTIRISH

Hijriy shamsiy yilni hijriy qamariyga aylantirish uchun hijriy shamsiy yilga hijriy shamsiy yilning 32 ga bo'linishidan chiqqan bo'linma butun songacha yaxlitlanib qo'shiladi. Chiqqan natija hijriy-qamariy yil bo'ladi Buning formulasi quyidagicha:

$HQ = HSH + (HSH : 32)$

$1367(\text{hijriy-shamsiy}) + 1367(\text{hijriy-shamsiy}):32 = 1367 + 43$

$HQ = 1410$ (bu yil 4- avgustdan boshlanadi).

Hijriy –qamariyni hishriy-shamsiyga aylantirish uchun esa ana shunga teskari amal qilinadi. Deylik, 1410 hijriy-qamariy yilning hijriy-shamsiy yilga aylantirish uchun nima qilish kerak?

1410 dan 1410 ni 33 ga bo'linishidan chiqqan natijani yaxlitlab ayirish kerak. Chiqqan natija hijriy-shamsiy yil bo'ladi. Buning formulasi quyidagicha:

$HSH = HQ - HQ : 33; \quad 1410 - 1410 : 33 = 1410 - 43 = 1367$

Demak, 1410 hijriy –qamariy yil 1367 hijriy-shamsiy yilga mos keladi.

HIJRIY - QAMARIY YIL OYLARI

Qo'lyozma kitoblarning xotima qismiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda nafaqat asarning yozib tugallangan yili, balki qaysi oy va qaysi sanada tamomlanganini ham aniq ko'rsatilganining guvohi bo'lamiz. Demak, tarixiy dalillarni aniq, to'g'ri anglashimiz uchun hijriy yil oylari nomlari bilan ham yaxshi tanish bo'lishimiz kerak bo'ladi.

Hijriy qamariy yil oylari o'n ikki oydan iborat bo'lib, yigirma to'qqiz va o'ttiz kundan tashkil topgan:

Hijriy qamariy oylari	Kuni	حجری قمری ییل ایلاری	№
Muharram	30	محرم	1.
Safar	29	صفر	2.

Rabiul-avval	30	ربيع الاول	3.
Rabiul-oxir	29	ربيع الآخر	4.
Jumodiul-avval	30	جمادى الاول	5.
Jumodiul-oxir	29	جمادى الآخر	6.
Rajab	30	رجب	7.
Sha 'bon	29	شعبان	8.
Ramazon	30	رمضان	9.
Shavvol	29	شوال	10.
Zul-qa 'da	30	ذوالقعدة	11.
Zul-hijja	29-30	ذوالحجة	12.

HIJRIY - SHAMSIY YIL OYLARI

Hijriy shamsiy yil oylari 622-yilning yigirma birinchi martidan, ya'ni kecha va kunduzning uzunligi barobar bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi. Yil davomiyligi huddi Grigoriy taqvimidagi singari 365 yoki 366 kundan iborat bo'ladi. Bu hisob quyoshning davriyligiga asoslangani uchun oylar doimo yilning ma'lum bir vaqtida keladi:

Oylarning boshlanish sanalari	Kunlar	حجرى شمسى يىل ايلارى	
21 mart – 20 aprel	31	حمل	1.
21 aprel – 21 may	31	سور	2.
22 may – 20 iyun	31	جوزا	3.
21 iyun – 22 iyul	31	سرطان	4.
23 iyul – 22 avgust	31	اسد	5.
23 avgust – 22 sentyabr	31	مئبولة	6.
23 sentyabr – 22 oktyabr	31	ميزان	7.
23 oktyabr – 21 noyabr	30	عقرب	8.
22 noyabr – 21 dekabr	30	قوس	9.
22 dekabr – 20 yanvar	30	جدى	10.
21 yanvar – 19 fevral	30	دلو	11.
20 fevral – 20 mart	29-30	هوت	12.

MUCHAL YIL HISOB

Ajdodlarimiz arab istilosiga qadar o'zlarining yil hisoblariga ega bo'lganlar. Muchal hisobi bilan yuritiluvchi yil hisobi ana shulardan biri. Muchal haqida ma'lumot juda ko'p manbalarda, jumladan Beruniyning "Osor ul-boqiya" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarlarida ham batafsil berilgan.

Mahmud Qoshg'ariyning muchal hisobining turkiy versiyasi haqidagi fikrlari qiziqarlidir. Quyida uning fikrlarini keltiramiz⁴:

"Turklar o'n ikki hil hayvon ismini o'n ikki yilga ot qo'yganlar. Tug'ilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar. Buning kelib chiqishi shunday: turk xoqonlaridan biri o'zidan bir necha yil oldin bo'lib o'tgan urushni o'rganmoqchi bo'lgan, shunda u urush bo'lib o'tgan yilni aniqlashda yanglishgan. Bu masala yuzasidan (xoqon) qavmi bilan kengashdi va aytdi: "Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo'lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo'lgach biz endi o'n ikki oy va osmondagi o'n ikki burjga asoslanib, o'n ikki yilga ot qo'yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo'lib qolsin". Ular "aytganingizdek bo'lsin" deyishdi.

Xoqon ovga chiqdi va odamlarga vahshiy hayvonlarni ila daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Odamlar ov qilib hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar, shunda o'n ikki hayvon suvdan o'tdi. O'n ikki yilni ana shu o'n ikki hayvon ismi bilan atadilar. Eng oldin suvdan o'tgan hayvon sichqon bo'ldi. Shuning uchun yil boshi uning nomi bilan ataldi, shu so'zga yil qo'shib, sichqon yili deb atadilar. Undan keyin o'tganlari quydagi tartibda bo'ldi:

Ud (sigir) yili, bars (yo'lbars) yili, tovushqon (quyon) yili, nak (timsoh) yil, yilon (ilon) yili, yund (ot) yili, qo'y yili, bijin (maymun) yili, taqag'u (tovuq) yili, it yili, to'ng'iz yili.

To'ng'izga yetgandan keyin, hisob yana sichqondan boshlanadi... Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor deb tahminlaydilar. Masalan, ularcha sigir yili bo'lsa, urush ko'p bo'ladi. Chunki sigir bir-biri bilan so'zlashadigan hayvon.

Tovuq yili kirsas, oziq -ovqat ko'payadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo'lib, uni topib yeyish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh (ilon) yili kirsas, yog'ingarchilik va hosil ko'p bo'ladi, chunki u suvda yashaydi. To'ng'iz yili kirsas, sovuq, qor va fitna ko'p bo'ladi. Shunga o'xshash, har yilga biror tahmin yuritadilar.

Turklarda haftadigi yetti kunning ismi yo'q, chunki hafta islomdan so'ng shuhratlanadi. Shunga o'xshash oy ismlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko'chmanchi va musulmon bo'lmagan turklar oylarni to'rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritadilar. Yil o'tishini shunday biladilar. Masalan: navro'z (yangi kun)dan keyingi avval bahorga o'g'loq oy, so'ngra ulug' o'g'loq oy derlar. Chunki oy bu vaqtda katta bo'lib qoladi. Bundan keyingisiga ulug' oy deydi. Chunki bu oy yozning o'rtasida bo'lib, bu vaqtda sut va ne'matlar mo'l-

⁴ Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. - T.: O'qituvchi, 1989. - B. 155.

ko'1 bo'ladi. Bu ismlar kam qo'llangani uchun hammasini aytishni munosib ko'rmadik.O'zining tushin"⁵

Muchal yili hisobi uzoq davrlardan beri mo'g'ul, Xitoy, O'zbek, Qozoq, Uyg'ur, turkman va Osiyoning boshqa xalqlari o'rtasida qo'llanib keladi. Muchal yili 22 martdan boshlanadi. Kishi tug'ilgan yilini muchal yili bilan hisoblash uchun qanday amallarni bajarishi kerak? Buning uchun tug'ilgan yiliga 9 raqami qo'shiladi va hosil bo'lgan yig'indi 12 ga bo'linadi. Masalan, bir kishi 1960 yilda tug'ilgan bo'lsa, bu muchal hisobining qaysi yilga to'g'ri keladi. Buni quyidagicha yechiladi: $1960+9=1969$; $1969:12=164$, qoldiq -1.

Demak, u kishi muchal hisobi bilan sichqon yilida tug'ilgan ekan.

Quyidagi jadvalda muchal yilining amaldagi yillarga mosligi berilgan.

1.	Sichqon(mush)	1924	1936	1948	1960	1972	1984	1996	2008	2020
2.	Sigir (baqar)	1925	1937	1949	1961	1973	1985	1997	2009	2021
3.	Yo'lbars (palang)	1926	1938	1950	1962	1974	1986	1998	2010	2022
4.	Quyon (xargo'sht)	1927	1939	1951	1963	1975	1987	1999	2011	2023
5.	Baliq (nahang)	1928	1940	1952	1964	1976	1988	2000	2012	2024
6.	Ilon (mur)	1929	1941	1953	1965	1977	1989	2001	2013	2025
7.	Ot (asp)	1930	1942	1954	1966	1978	1990	2002	2014	2026
8.	Qo'y(go'sfand)	1931	1943	1955	1967	1979	1991	2003	2015	2027
9.	Maymun (hamduna)	1932	1944	1956	1968	1980	1992	2004	2016	2028
10.	Tovuq (murg')	1933	1945	1957	1969	1981	1993	2005	2017	2029
11.	It (sak)	1934	1946	1958	1970	1982	1994	2006	2018	2030
12.	To'ng'iz(xo'k)	1935	1947	1959	1971	1983	1995	2007	2019	2031

BURJ

“Burj” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “yasanmoq”, “bezanmoq” degan ma'nolarni anglatadi. Ilmi falakiyotda quyoshning yillik harakati doirasidagi o'n ikki to'p yulduz nomini bildiradi. Burj nomlari quyidagilardan iborat:

1. Hamal. 2. Savr. 3. Javzo. 4. Saraton. 5. Asad. 6. Sunbula. 7. Mezon. 8. Aqrab. 9. Qavs. 10. Jadiy. 11. Dalv. 12. Hut.

Yetti sayyora – Oy, Utorid, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhallar mana shu burjlarni turli vaqtlarda bosib o'tadilar. Chunonchi, quyosh bir yil davomida, oy esa bir oy ichida mazkur o'n ikki burjni bosib o'tadi.

⁵ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. Uch jildlik. 1-jild.-Toshkent, 1960. –B.333.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, turkiy xalqlardagi oylarning nomlari ham burjlardan olingan. Masalan:

Bahor fasli "burji obiy" deb atalgan va o'z ichiga hamal (21-martdan), "savr"(21-apreldan), javzo (21-maydan) oylarini olgan.

Yoz fasli – "burji noriy" deb atalib, saraton (21-iyundan), asad (21-iyuldan), sunbula (21-avgustdan) oylaridan iborat bo'lgan.

Kuz fasli – "burji bodiy" deb yuritilgan va o'z ichiga mezon (21-sentyabrdan), aqrab (21-oktyabrdan), qavs (21-noyabrdan) oylarini olgan.

Qish fasli- "burji hokiy" nomi ostida jadiy (21-dekabrdan), dalv (21-yanvardan), hut (21-fevraldan) oylarini o'zida mujassam qilgan.

Burjlardan qo'lyozma asarlarning yozib tugallangan muddatini belgilashda, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim hujjatlarning bitilgan yoki tasdiqlangan sanasini hamda biron muhim hodisa yoxud voqealarning sodir bo'lgan aniq vaqtini belgilashda istifoda etilgan. Shuningdek, badiiy adabiyotda ham burjlarining harakati yoki tavsifidan obrazli tasvir yaratishda muvaffaqiyat bilan foydalanilgan. Misol tariqasida Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonining muqaddimasini keltirish mumkin. Muqaddima tarkibidagi mavjud na'tda Muhammad payg'ambarning o'z arg'umog'i – Buroqi bilan ma'naviy olamga qilgan sayohati tasvirlanadi. Uning samoviy safari osmoni falakning sakkiz charxi falagi, ya'ni sakkizta yulduz to'plami va burjlar orqali o'tadi. Navoiyning yuksak mahorati shundaki, u ana shu sayohat orqali koinot go'zalliklari, yulduzlar turkumi, burjlar, ularning xususiyatlari, holatlarini haqqoniy tasvirini ham yaratib o'quvchining ko'z oldida jonli manzara chizadi. Eng muhimi, u o'z kitobxonini koinot sirlariga oshno qiladi.

Navoiy payg'ambar qadami tekkan har bir falak yoki burjni tasvirlar ekan, ularning masnadnashin "hokim"lari sifatlariga hayotiy jonli ko'rinishlardan chizgilar beradi. Inson hayotiga xos ayrim ko'rinishlarni ularning harakatlariga moslab go'zal badiiy tasvirlar yaratadi.

Chunonchi, Muhammad payg'ambarning Buroqi ikkinchi falakka qadam qo'yishi bilan, Utoridning siyohdon-u qalami sinadi. Bu maktab ko'rmanlar (yulduzlar turkumi)ning mashg'uloti tezlik bilan ilm o'rganishdan iborat bo'lib qoladi. (Ikkinchi planeta hisoblanmish Utorid sayyorasi afsonalarga asoslanib adabiyotimizda "falak kotibi" yoxud "shoirilar homiysi" deb atalgan), yoki uchinchi falak sohibasi Zuhra Muhammad payg'ambarni ko'rgach, aytayotgan qo'shig'ini bas qilib, chalayotgan udini tezlik bilan chodiriga yashiradi va o'rnidan turib yo'l bo'shatadi. (Qadimgi shoirilar "Zuhra" – "Cho'lpon" yulduzini "osmon cholg'uchisi", "sozanda"si deb ataganlar).

Muhammad payg'ambarimiz shu tariqa har bir sayyorani bosib o'tgach, uning safar yo'li endi o'n ikki burj orqali o'tadi: "Hamal" Muhammadbek mehribon kishini topgach, Muso (payg'ambar) singari cho'pondan voz kechdi. Osmon-u falak esa xuddi juvzokash Ho'kiz (savr) singari unga fidoyilik bilan atrofida aylanar edi. "Javzo" ("egizaklar", "dupaykar" deb ham yuritiladi) ham uning xizmatiga bel bog'lab, duosiga qo'l ochib turardi. Falakdagi "boshqoq" donalari jilvalanuvchi gavharni eslatar, gavhar ham emas, yonib, porlab nur sochayotgan yorug' yulduzlar singari edi. Uning oyoq tomonida "Mezon" joylashgan bo'lib, o'z ishini adolat bilan yuritar edi. "Dalv" esa yo'l ustiga qo'yilgan katta xumlarni suv bilan to'ldirish ila ovora, suvi tugasa, o'rniga inju sochish niyatida aylanar edi. Sakkiz falak va burjlarni osonlik bilan bosib o'tgan Muhammad o'z arg'umog'i bilan osmonning eng yuksak - to'qqizinchi qavati Arshi a'loga kirib boradi. Ma'naviy safar uning Haq bilan uchrashuvi va undan gunohkor bandalarining gunohini o'tishi hamda osoyishtaligini ta'minlashni so'rab olishi bilan yakunlanadi.

Ko'rinadiki, Navoiy bu hayratomuz safar tasviri orqali kitobxonni yo'l-yo'lakay osmon jismlarining holati, haqiqat sirlari, sakkiz sayyora va o'n ikki burj bilan tanishtirib boradi. Shu bilan birga ular tasavvurini o'rta asr astronomik bilimlari bilan boyitishdek oliyjanob maqsadni ham amalga oshira borgan.

Adabiyotimizda "Quyosh Asad burjida" degan gap ham bor. Ma'lumki, asad (iyul-avgust) yilning juda issiq davriga to'g'ri keladi. "Sher ustida quyosh chiqishi" (Sherdor madrasasi) tasviri shunga ishora bo'lib, u shon-shavkatni, qudratni bildiradi. Bu Ibn Sinoning hayot yo'liga ishoradir, ya'ni u ilimli bo'lib bu yo'lda baxt topdi, qiyinchiliklarga ham duchor bo'ldi. Oxir-oqibat ularni bilim kuchi, ilm qudrati bilan yengib shon-shavkatga burkandi.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Muchal yili va burj nomlarini arab alifbosida daftaringizga ko'chirib yozing va yod oling.

2-topshiriq. O'zingiz va oila a'zolariningizning muchal yillarini va qaysi burjda tavallud topganliklarini hisoblab aniqlang va daftaringizga ko'chirib yozing.

3-topshiriq. Berilga yillarni hijriy yilga aylantiring.

780, 854, 1020, 1501, 1870, 1989, 1991, 1995, 2000, 2001, 2016, 2020

1-amaliy ish. Hijriy va Milodiy yillarning umumiy va xususiy jihatlarini "Venn" diagrammasi orqali tushuntiring.

Hijriy yil

Milodiy yil



2-amaliy ish. Berilgan test topshirig'ini bajaring.

1. Qaysi javobdagi so'z imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan?

- a) يوز b) اوى c) سدا d) غاز

2. Hijriy yil boshlanishi melodiy yilning qaysi yiliga to'g'ri keladi?

- a) 522 yil b) 654 yil c) 780 yil d) 622 yil

3. Abjad hisobidagi so'zlar tartibi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) abjad, havvaz, hutti, sa'fas, qarashat, kalaman, zazag', saxxaz

b) abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag'

c) abjad, hutti, havvaz, kalaman, qarashat, zazag', saxxaz, sa'fas

d) abjad, havvaz, hutti, kalaman, sa'fas, zazag', qarashat, saxxaz

4. Adolat so'zining abjad hisobidagi son qiymatini toping?

- a) 354 b) 524 c) 625 d) 505

5. Abjad hisobidagi beshinchi so'zlik qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) sa'fas b) qarashat c) zazag' d) kalaman

6. ق av غ harflari abjad hisobida qanday son qiymatiga teng?

- a) 70, 200 b) 300, 80 c) 100, 1000 d) 500, 1000

7. Alisher Navoiyning nasriy asari nomi qaysi javobda to'g'ri yozilgan?

- a) ميزان الاوزان b) لسان الطير c) حيرت الابرار d) ليلي ومجنون

8. صيد av صيد so'zlari qanday ma'nolarni anglatadi?

- a) uzoq va yaqin b) ov qilish, ovchi c) kiyik, ovchi d) ov va jang

9. Quyosh harflari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

a) ت ث ذ ز س ش ص ض ط ظ ل ن

b) ب ت ث ج ح خ ف ق ل م

c) ا ب ت ث ج ح خ ف ق ل م ض ش

d) ا د ذ ر ز و ه ي ن

10. Oy harflari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

a) ا ب ت ث ج ح خ ف ق ل م ض ش

b) ا د ذ ر ز و ي ن

c) ا ب ج ح خ ع غ ف ق ك م و ه ي

d) ت ث د ذ ر ز س ش ص ض ط ظ ل ن

11. Qaysi javobdagi so'z arab izofasiga misol bo'la oladi?

a) اهل علم

b) ديوان لغات الترك

c) آي يوز

d) هرات

12. Qaysi javobda teng aloqalar to'g'ri berilgan?

a) قاراگوزوم

b) استراياد

c) علم عمل

d) ترك دنيا

13. Qaysi javobdagi so'z fors izofasiga misol bo'la oladi?

a) ضرب المثل

b) سمرقند

c) تولون آي

d) نورديدم

14. Qaysi javobda o'zbek tiliga xos bo'lmagan tovushlarni ifodalovchi harflar beirlgan?

a) اص ن و ي د

b) ح ذ ص ج ث ژ

c) پ چ ژ گ

d) ث ص ح ع ض



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Quyida berilgan savollarga javob yozing.

1. Qachondan boshlab milodiy yil amalga kiritilgan?

2. Milodiy yil hisobi nimaga asoslanadi?

3. Hijriy yil nima?

4. Hijriy shamsiy yil hisobi nimaga asoslanadi?

5. Hijriy shamsiy yil oylarini ketma-ketlik asosida aytib bering.

6. Hijriy qamariy yil hisobi nimaga asoslanadi?

7. Hijriy qamariy yil oylarini ketma-ketlik asosida aytib bering.

8. Muchal hisobi deganda nimani tushunasiz?

9. Muchal hisobi tarixi haqida gapirib bering?

10. Muchal hisobi qaysi xalqlarda amalda bo'lgan?

11. Muchalni topish amallari xususida gapiring?

12. Muchal nomlarini ketma-ketlik asosida aytib bering.

13. Burj nima? Burj nomlari nimadan kelib chiqishini gapirib bering.

14. Burjlarning nomlanishi nimaga bog'liq?

2-topshiriq. Hijriy qamariy, Hijriy shamsiy yil oylarini va Muchal hisobini

"Klaster" usuli asosida yozib tushuntiring.



XAT TURLARI, XATTOTLIK BOSQICHLARI ARAB YOZUVINING USLUBIY KO'RINISHLARI

Qadimiy Misr yozuvi arab yozuvining kelib chiqish zanjirining dastlabki, birinchi halqasi hisoblanadi. Bu yozuv asosida finikiy xati vujudga keladi. Finikiy xatini ixtro qilgan xalq dengiz sohilida, Finikiya o'lkasi va Livan tog'i etagida yashar edilar. Ular qadimgi Misr yozuvlaridan 15 harfni o'z o'lkalariga olib keladilar va unga shakliy o'zgartirishlar kiritib, yana boshqa harflar qo'shib, finikiy yozuvini keltirib chiqaradilar. Keyinchalik esa ushbu xatdan ikki shaxobcha kelib chiqadi. Bular musnad va oromiy yozuvlaridir. Oromiy va musnad yozuvlari Arabiston yarim orolining janubida yashovchi somiy xalqining yozuvidir. Uning shoxobchalari esa samudiy, safaviy, laxyoniy yozuvlaridir¹. Oromiy yozuvi juda tez rivojlanib, yarim orolning shimolida joylashgan davlatlar Suriya, Iordaniya so'ngra Iroq sarhadlarigacha yetib bordi. 270-milodiy yilda Nabatiy yozuvi vujudga keldi. Ko'fa yozuvi yuzaga kelgunga qadar nabatiy yozuvidan o'zga bir qancha yozuv turlari vujudga kelgan. Bular hiriy, xijoziy yozuvlaridir. Bu yozuvlar asosida yana nimara, zayd, xiron yozuvlari ham paydo bo'ladi. Nimara yozuvi Xira shahri yaqinidagi Duruz tog'i yozuvi hisoblanadi. Uning vujudga kelish sanasi 323 milodiy yiliga to'g'ri keladi. Zayd yozuvi Firot daryosi bo'yida yashovchi xalq yozuvi hisoblanadi. Bu yozuv 512 yilda vujudga kelgan. Xiron yozuvi esa zayd yozuvidan kam farq qilib 568 yil paydo bo'lgan. Undan so'ng Ma'qaliy xati vujudga kelgan. Ma'qaliy xati ko'fiy xatigacha bo'lgan qadimgi yozuvlardan biri bo'lib, harflarning to'g'ri chiziq yozilishi bilan ko'fiy xatidan ajralib turadi.

V asrdan boshlab Xatti ma'qaliy o'rmini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri hisoblangan Xatti ko'fiy egallaydi. Ko'fiy yozuvining rivoji X asrga kelib biroz susaydi. Bu davrga kelib endi nasx va suls yozuvlari ko'fiy yozuvi o'rmini asta-sekin egallay boshladi.

Ma'qaliy va ko'fiy yozuvlari asosida arab yozuvining san'atkorona yaratilgan olti xil asosiy uslubi maydonga keladi. Bular muhaqqaq, suls, nasx, tavqe, rayhoniy, riqo xat turlaridir. Ba'zi tilshunos olimlar ta'liq xat turini bu olti xat turi yoniga qo'shib asosiy xat uslublaridan biri deb ko'rsatadilar. Bu xat forsiy matnlarni yozish uchun ixtiro qilingan. Keyinchalik bu xat turi nasx bilan qo'shilib nasxi ta'liq xat turi yaratilgan. Bu xat turida forsiy va turkiy matnlar bitilgan. Xattotlar arab xat turlarini rivojlantirib yangi-yangi xat turlarini ijod

¹ Ma'sudali Hakimjon. Xatti mu'allimiy.-Toshkent, 1991. 3-bet.

qilganlar. Keyinchalik xatshunos olimlar tadqiqotlarida yuzdan ortiq xat turi haqida ma'lumot beradilar.

Tarixda eski o'zbek yozuvining bir necha xil uslubiy ko'rinishlari bo'lgan. Yozuvning uslubiy ko'rinishlari deganda har bir qalam egasining o'ziga xos yozuvi, uning dastxati emas, balki yozuvning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan odat tusiga kirib qolgan umumiy uslubiy ko'rinishi – xat shakllari nazarda tutiladi. Matbaachilik yuzaga kelmagan kitobat ishlari zahmatkash kotiblarning qo'l mehnati va san'ati bilan amalga oshirilgan davrlarda xilma-xil yozuv usullarining kelib chiqishi tabiiy bo'lgan. Xattotlik tarixiga oid ma'lumotlarda kotiblarning xatti suls (suls xati), xatti nasx, xatti muhaqqaq, xatti rayxoniy, tavqe, riqo xatlari bo'yicha yozishda san'at va mahorat ko'rsatganliklari tilga olinadi¹.

Arab yozuviga asoslangan xatning eng ko'hna usullaridan biri xatti ko'fiydir. Bu xat turi Ko'fa shahrida V asrda ijod etilgani uchun ko'faga nisbat berilib "ko'fiy" den nomlangan, Qur'onning ilk namunalari ko'fiy xati bilan bitilgan edi. Nuqtasiz harflarni g'isht qoliplari shakliga solib siyrak, yakka-yakka qilib yozishga asoslangan bu yozuvning har xil tarmoqlari yuzaga keladi va natijada asl ko'fiy xati bora-bora qabr toshlari, binolarni ishlatishdagina qo'llaniladi. Ko'fiy xati tarmoqlari bilan bir qatorda O'rta Osiyoda nasx xati ham keng tarqala boshlaydi. Harflar ost-ust belgilari bilan tikroq ingichkaroq va zichroq qilib yozilgani, o'z o'rniga ko'proq gapni sig'dirish mumkin bo'lgani uchun nasx xati hayotdan ancha mustahkam o'rin egallaydi. Temur zamonidan boshlab Xuroson va Movarounnahrda nata'liq xati shakllana boradi. Sulton Ali Mashhadiy asos solgan Hirot xattotlik maktabi bu yozuvning keng yoyilishi va chuqur ildiz otishiga sababchi bo'ladi. Navoiy, Bobur asarlari, uch xonlik davrida yaratilgan va ko'chirilgan forscha-tojikcha va turkcha-o'zbekcha yozma yodgorliklarning deyarli hammasi nasta'liqning O'rta Osiyo xati deb atalayotgan uslubiy ko'rinishida yozilgan.

Muhaqqaq - klassik otilikka kiruvchi arab yozuv turlaridan biri. Bu yozuv turida harflarning ko'proq qismi tekisdir. Tikka chiziqli harflar juda uzun yoziladi. O'ramlarining uchi ingichka bo'lib tugaydi.

Rayhoniy xati - muhaqqaqdan kelib chiqqan. Muhaqqaq va rayhoniy xatlarining ixtirochisi Ibn Bavvob bo'lgan. Rayhoniy chiroyli yozuv uslubi bo'lib, aylanma shaklli harflar "suls" xatiga qaraganda yotiqroq "vov", "re", "mim" harflari cho'ziqroq yoziladi. Rayhoniy yozuvi sahifalarning bezagi va duo kitoblarini tuzishda ishlatilgan.

¹ S.Ashirboyev., I.Azimov., M.Rahmatov., A.G'oziyev. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. - Toshkent: Ijod nashriyoti, 2006. 125-bet.

Riqo xatida - harflar bir-biriga qurama qilib yoziladigan yozuv turidir. Bu yozuv Turkiyada, Usmoniylar xalifaligi davrida keng iste'molda bo'lgan. Riqo xati oddiy maktublarni tez bitishlik uchun qo'llanilgan. Shuning uchun ham hozirgi kunda arab mamlakatlarida ko'p ishlatiladi.

Divoniy xati - devonxona, daftardor, kotiblarning bir turli shikasta xati. Bu yozuv Usmoniy davlatida lotin grafikasiga o'tilguniga qadar iste'molda bo'lib, unda turli farmonlar yozilgan. Bu yozuv "gajak" ilib yozilgani uchun o'qilishi ancha mushkuldir.

Nasx xati - xattotlar tomonidan keng qo'llanilgani uchun ham shunday nomlangan. Nasxning arab tilidagi ma'nosi o'chirish, bekor qilish bo'lib, bu xat turi ijod qilinishi bilan boshqa xat turlari chetga chiqarildi. Bu xat tez va ravon yoziladi. Bu yozuv turi faqat qog'ozgagina emas balki yozuv sifatiga va yozilish sur'atiga ham to'sqinlik tug'diruvchi ma'danlar, temir, jez va yog'ochga ham bitishga imkonini beradi. Nasx xati go'zal va bejirim bo'lgani uchun ham matbaalarda chop etiladigan adabiyotlarga asos qilib olingan. Shuning uchun ba'zida bu xat turini bosma xat deb atashadi.

Ta'liq xati - ya'ni osilib turuvchi, ilingan yozuv uslubi bo'lib, XV asrda ijod etilgan. Bu aslida riqo xatidan kelib chiqqan xat turi sifatida tarqaladi. Bu yozuvdan rasmiy va shaxsiy yozishmalar, hujjatlarda foydalanilgan. Mazkur yozuvda harflar yuqoridan chapga qiyaroq holda yoziladi. Ta'liq xatiga nasx xatidan olingan ba'zi belgilar qo'shib, xatning yangi turi nasta'liq xati vujudga keladi. Bu xat turida ko'plab turkiy asarlar bitilgan. Shuning uchun ham ta'liq va nasta'liq xatining ham har xil yozilish tartibini to'liq o'rganamiz.

Bundan tashqari yozuvning yana xatti ta'liq, xatti devoniy, xati shikasta kabi ko'rinishlari ham bor. Xatti ta'liq-xatti nasxga, xatti devoniy esa nasta'liq xatiga yaqin bo'lgan. Ammo shikasta (siniq) xati harflarning o'zaro zanjirsimon bog'lanib kelishi, so'z yoki qatorlarning uzuq-uzuq yozilishi bilan yozuvning boshqa uslubiy ko'rinishlaridan ajralib turadi. Shuni qayd etish zarurki, yozma faoliyatda, ayniqsa, kitobat ishida bu yozuvlarning davrga mos ko'rinishidagina foydalanib qo'ya qolmasdan, uning boshqa usullarini ham qo'llaganlar. Masalan, kitobning bezagi yoki sarlavhalarini yozishda bir usuldan, oyatlarni ajratib ko'rsatish maqsadida ikkinchi bir usuldan, asosiy matnni yozish uchun uchunchi usuldan, tug'ro xatidan imzo uchun, tumor, g'ubor, shajariy xatlaridan yana o'zga maqsadlarda foydalanish odat bo'lgan. Xattotlik - (arabcha-kalligraf) yozuv, xat san'ati kitob ko'chirish kasbi O'rta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan shug'ullana boshlashgan. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalganidan so'ng xattotlik keng rivoj topgan. O'rta Osiyoda matbaachilik vujudga kelgunga qadar, kitob tayyorlash, ularning nusxasini ko'pay-

tirish ishi bilan xattotlar shug'ullangan. Saroylarda ayrim amaldorlar huzurida xattotlar jamoalari tashkil topgan.

Xattotlik san'ati uslublari to'g'risida ko'p risolalar yaratilgan. Amir Temur hukmronligi davrida nasta'liq uslubi yaratilgan, uni yaratgan mashhur xattot Mirali Tabriziy shuuningdek, Sultonali Mashhadiy, Majnun ibn Kamoliddin, Rafiqiy, Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy, Ishoqxon To'raqo'rg'oniy kabilarning xattotlik haqidagi risolalari bizgacha yetib kelgan. Ularda yozilishicha xattotlikda yetti xil asosiy san'at mavjud: **suls, muhaqqaq, nasx, tavqe, riqo, ta'liq, nasta'liq.**

XATTOTLIK BOSQICHLARI

Mufradot - harflarning alohida ko'rinishlarini yozish mashqi. Bu bosqichda alifdan boshlab boshqa ko'rinishdagi harflarni o'xshashligiga ko'ra yozib o'rganishgan. Bunda o'quvchilar har bir harf bilan tanishib, o'qish va yozish malakasi ega bo'ladi.

Murakkabot - mufradot bosqichida o'rganilgan harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashq qilinadi. Bunda har bir harfning turli ko'rinishlari bir-biriga ulanishi yoki ma'lum bir harfning turli ko'rinishlari boshqa harf ko'rinishlari bilan o'zaro bog'lanishi o'rganiladi.

Muqattaot - murakkabot bosqichida o'rganilgan malaka va ko'nikmalar yordamida ma'lum so'z va so'z birikmalarini ko'chirib yozish, fard, qit'a va ruboiylarni mustaqil ravishda yozishni mashq qilish o'rganiladi.

Insho - bu bosqichda o'rganilgan bilimlar asosida jumla va bir necha jumalardan iborat kichik matnlar tuzilgan.



XATTOTLIK QUROLLARI

Qalam - qo'lyozma kitob yaratishdagi eng asosiy yozuv qurollaridan birining nomi. Qalam so'zi asli yunoncha "qalamos" bo'lib, yunon tilida qamishni ifodalagan. Xattotlik ishida qo'llangan qamish qalam tayyorlash jarayoni ancha murakkab bo'lgan.

Qog'oz - qog'ozning yaratilish tarixi miloddan avvalgi V asrlarga borib taqaladi. Qadimda qog'ozlar papiros daraxtidan maxsus ishlov berilgan teridan tayyorlangan. Eramizning II asrida Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan.

Siyoh - yozuv ishida rang sifatida qo'llangan suyuqlik. Bu so'z fors tilida qora degan ma'noni ham bildiradi.

Mixrak – terini dovot, ya’ni siyohdondagi siyohni aralashtirishda foydalanilgan cho’p. Bu so’z asli arabcha bo’lib, harakatga keltiruvchi ma’nosini ifodalaydi va u “harraka” aralashtirmoq, harakatga keltirmoq fe’lidan yasalgan.

Mistar – kotib tomonidan matnni ko’chirishda qog’ozdagi qo’lyozma satrlarning to’g’ri va ravon chiqishini ta’minlashda ishlatiladigan maxsus yozuv quroli.

Satr – qo’lyozma asarning, umuman maktub, hujjat kabilarning yozilgan har bir qator satr termini bilan ifodalangan. Satr so’zi arabcha so’z bo’lib, chiziq, yo’l, qator kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Poygir – poygir so’zining lug’aviy ma’nosi qadam olmoq bo’lib, fors tilidagi **po** - oyoq, **grifan** - olmoq fe’lining hozirgi zamon shakli bilan o’zaro birikuvidan hosil bo’lgan. Poygir kelgusi sahifadagi birinchi so’zni tugallanayotgan sahifaga yozib qo’yilishiga aytiladi. Demak, poygir sahifalarni chalkashtirib yubormasligimizning oldini oladi. Bundan anglashiladiki, poygir yozma yodgorliklarda raqamlar ifodalashi mumkin bo’lgan vazifani ham bajarib kelgan.

Tug’ro – imzo qo’yishda qo’llanilgan.

Shajariy – harflar daraxt shoxlariga o’xshab ketadi.

G’ubor – mayda xat bo’lib, ixtirochisi Saidqosimdir.

XV asr boshlaridan kitob ko’chirishda (fors, eski o’zbek tillarida) nasta’liq xati rasm bo’ldi. Navoiy ta’biricha, xattotlar sultoni bo’lgan Sultonali Mashhadiy nasta’liq xatini ajoyib san’at darajasiga ko’targan. Kitobatchilikda bosmaxona paydo bo’lguncha kotib, xattotlar mehnati asosiy rol o’ynadi. Kitob chiqarish ishlari hukmdorlarning xohishi va mablag’lari bilan amalga oshirilgan. Bu borada Boysunqur, Alisher Navoiy, Feruz va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir.



QO’LYOZMA ASARLARGA XOS YOZUV USULLARI

Qo’lyozma kitob hamma zamonlarda barcha xalqlarda, ayniqsa, O’rta Osiyo xalqlarida alohida e’zozga ega bo’lgan. Shu soha tadqiqotchilarining aytishicha, o’tmishni tushunishga va kelajak to’g’risida o’ylashga da’vat etuvchi, bilim va estetik zavq manbai bo’lgan qo’lyozma kitobni o’qish va bezaklarini tomosha qilishdagi tuyg’uga faqat kashfiyot tuyg’usigina tenglasha oladi. Sharq xalqlari, shu jumladan, O’rta Osiyo xalqlarining madaniyat tarixi eng qadimiy va ko’p sohalarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishganligi bugungi kunda butun dunyo ilm-fan ahli tomonidan e’tirof etilgan haqiqatdir.

Arablar istilosidan so’ng VIII-X asrlarda O’rta osiyoda, ayniqsa, Xorazmda madaniy va ilmiy tafakkur beqiyos barq urib gulladi. Jahonga tanilgan al-Farobiy,

Ibn Sino, al-Beruniy singari ulug' mutafakkir olimlar dahosidan hozirgacha bashariyat bahramand bo'lib kelmoqda. Arab yozuvida kitobat qilingan ming yillik madaniy meros nasldan-naslga qo'lyozma shaklida o'tib kelgan. Shu qo'lyozma kitoblarni tufayligina O'rta Osiyo xalqlari ota-bobolari yaratib qoldirgan madaniy merosdan xabardordir. Shu qo'lyozmalar tufayli O'rta Osiyodagi har bir xalq, har bir millat o'z tarixiga ega bo'lgan.

Bizgacha yetib kelgan qo'lyozma kitoblarni Osiyo tarixining barcha tomonlariga oid bilimlarimizni to'ldiradi, ko'p hollarda, uning shu paytgacha ma'lum bo'lmagan yangi sahifalarini ochadi. Ana shu sababli ham hozirgi paytda O'zbekiston va O'rta Osiyodagi boshqa respublikalarda qo'lyozma yodgorliklarni madaniy merosning muhim bir qismi sifatida umummilliy e'zoz-ehtiromga loyiq ekani va nihoyatda diqqat-e'tibor bilan o'rganilayotgani tabiiy holdir¹.

O'rta Osiyo xalqlari o'z tarixi mobaynida turk-runiy, xorazm, O'rxun-Enasoy, kushon, uyg'ur, arab yozuvlaridan foydalanib kelgan. Ma'lumki, VII asrdan boshlab arablar O'rta Osiyo va Kavkaz bo'ylab Islom dinini targ'ib qila boshladilar. Tez fursat ichida arablar o'z tili, yozuvi va madaniyatini, urf-odatini, mahalliy xalqlarga singdirishga harakat qildilar. Shu tariqa bu o'lkalarda arab alifbosi asosiy yozuvga aylandi. Fan va madaniyat, adabiyot va san'at, o'qish va o'qitish ishlari arab yozuvi va tili negizida amalga oshirila boshladi. Eng nodir asarlar, qo'lyozmalar, risola-yu to'plamlar, buyuk mutafakkirlarimizning turli sohalarga oid ilmiy asarlari dastlab arab, fors hamda turkiy tilda bo'lsa-da, ana shu arab yozuvida bitildi. Mashhur xattotlar o'z husnixatlarini chiroyli va jozibador bo'lishi uchun arab alifbosidagi har bir harfga sayqal berishga intilganlar. Bu esa arab yozuvining, xususan, undagi harflarning turlicha yozilishiga olib kelgan. Shuning uchun ham o'tmish davrlardan saqlanib qolgan kitoblarning bosma hamda qo'lyozma nusxalari o'rtasida katta tafovut bor². Shuningdek, arab harflari she'riy san'at, tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh va bezak vazifasini ham bajargan. Adabiy asarlar qanday materialga yozilgani to'g'risidagi asl manbalar bo'yicha fikr yuritish qiyin, tasodifan va kamdan-kam uchraydigan yoki bevosita ma'lumotlar esa birdek qiymatga ega emas, chunki bir xil atamalarning (varaq, qirtas, tumor) o'zi turli davrlarda xilma-xil materiallarga nisbatan qo'llangan. Nisbatan arzon va yuqori sifatli yozuv materiali keng ishlab chiqarila boshlanishi qo'lyozma kitoblarni ko'plab paydo bo'lishiga hamda pirovard oqibatda adabiyot bilan ilm-fan gurrakib rivojlanishiga olib keldi. Qo'lyozma kitob yaratish uchun zarur bo'lgan yozuv ashyolari orasida qalam (uchi o'tkirlangan

¹ Hamidov Z., Egamova Sh., Ubaydullayev A. Eski o'zbek tili va yozuvi (Ma'ruza matni). - Toshkent, 2001.11-bet.

² Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent: O'qituvchi, 1989. 9-bet.

yassi taxtacha, qush pati, palma shoxchasi) birinchi o'rinda turadi. Yana davot-qalamdon va siyohning sifatiga talab qat'iy va muhim omillardan edi. XV asrdan boshlab O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Turkiya va Hindiston olimlari xattotlik, miniatura san'ati, badiiy bezak tarixi va nazariyasi bo'yicha ko'plab risolalar yozishdi. Arab alifbosidagi harflarning yozilishiga asoslanib, ular faqat ana shunday shaklda ifodalanadi, deb o'ylash unchalik to'g'ri emas. Yuqoridagi fikrlarimizni arab harflarining yozilishidagi temir qonun, muhr ma'nosida tushunmaslik kerak. Chunki asrlar davomida arab harflari sayqallanib, turli xil usul va shakllarda yozib kelingan. Turli joylarda, turli zamonlarda ko'chirilgan qo'lyozma manbalarni kuzatsak, ulardagi yozuv bir-biridan keskin farqlanib turishining guvohi bo'lamiz. Hatto muayyan bir qo'lyozmaning o'zida ham ayrim so'zlar turli shakllarda yoziladi. Bu esa arab harflarini yozishda ma'lum bir qoidaga rioya qilinavermasligi, yozuvda harflar har bir xattotning o'z didi va saviyasiga muvofiq tarzda o'zgarishi mumkinligini anglatadi.

Shuning uchun ham har bir qo'lyozmani to'g'ri va ravon o'qish uchun xattotning yozuv uslubiga xos xususiyatlarni ham o'rganib chiqish kerak, qolaversa, yozuvda arab harflarining turlicha ifodalanishi yana shu bilan ham izohlanadiki, ko'plab xat turlaridan xabardor bo'lgan xattotlar ko'chirish jara-yonida arab xatining boshqa turlariga xos yozuv uslublarini ham ishga solishgan. Natijada nasta'liq xati shikasta, suls, nasx, riqo kabi xat turlariga xos yozuv belgilarini ham muayyan darajada o'ziga singdirgan.

Ma'lumki, arab yozuvining bosma shakli nasx xatiga o'xshash bir chiziqda izchil bosiladi. Yozma shaklida esa ma'lum qoida ko'rinmaydi. Unda ba'zi harflar, so'zlar satr chizig'idan tushirib yozilsa, ayrimlari satr chizig'ida yoziladi. Ba'zi qo'lyozmalarda harf nuqtalari bejo qo'yib ketiladi. O'sha nuqtaning qaysi harfga tegishli ekanligini matn mazmuni orqaligina bilish mumkin bo'ladi. Ba'zan esa ikki harf uchun bitta nuqta qo'yiladi. Bunday holda biz o'sha nuqtani ikkala harfga ham qo'yib o'qishimiz lozim. Xullas, arab imlosini o'qishda zukkolik va topqirlik juda zarur.

Bunday shaklda yozish ko'pincha shoirlarning devonlarida uchraydi. Xattotlar misralarni bir qolipga tushirish, satrdagi so'zlarni bir qatorga sig'dirish maqsadida atayin shunday shaklda yozadilar. Misol sifatida Fuzuliy devonidan bir baytning yozilishini keltiraylik:

ای فضولی قیلمزم ترک طریق عشق کیم
بو فضیلت داخلی اهل کمال ایلا ربنی

Xattotlar hatto ba'zi qo'lyozmalarda harflarning nuqtalarini umuman qo'ymasdan yozib ketganlar. Bu esa kitobxondan topqirlik, zukkolik va katta bilimdonlikni talab etadi. Bunga javoban xattotlar tilida qadimdan bir naql yuradi.

“Oqil kishilar uchun o‘qish jarayonida nuqta qo‘yilgan-qo‘yilmaganligining ahamiyati yo‘q”¹.

Ma‘lumki, ا د ذ ر ز haflari munfasil harflar bo‘lib, ular o‘zidan keyingi kelayotgan harflarga qo‘shilmaslik xususiyatiga ega. Yozma manbalarda ba‘zan ana shu qoidaga ham amal qilinavermaydi. Shuningdek, eski o‘zbek til va yozuvida imlo va punktuatsiya qoidalari mukammal bo‘lmaganligi sababli ba‘zan so‘z va qo‘shimchalar qo‘shilib, ba‘zan ajratib yozilgan. Masalan:

سرای دن - سرایدن
خان لار - خانلار

Xullas, arab alifbosi asosidagi eski o‘zbek yozuvini to‘g‘ri o‘qish va o‘rganish uchun ikki narsaga alohida e‘tibor qilish kerak: birinchidan, o‘qilayotgan matnning umumiy ruhi va mazmunini anglab olish, jumla, har bir so‘zning ma‘nosi va ohangini ilg‘ash, qisqasi, matndan kelib chiqqan holda o‘qishga intilish bo‘lsa, ikkinchisi, tinimsiz o‘qish, mashq qilish, turli xil qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechirishda boy malaka va tajribaga ega bo‘lishdir. Bularsiz arab yozuvini to‘la va puxta o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Eski o‘zbek tilidagi yozma yodgorliklarni varaqlar ekanmiz, ularda arabcha va fors-tojikcha so‘zlar, iboralar benihoya ko‘p ekanligini ko‘ramiz. Shuning uchun ham lug‘at ustida ishlash, so‘zlarning ma‘nolarini bilish, yozilish usullarini yodda saqlash ravon o‘qish va to‘g‘ri yozishning muhim omilidir.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. “Klaster” metodi orqali arab xat turlari haqida ma‘lumot bering.



¹ S.Ashirboyev., I.Azimov., M.Rahmatov., A.G‘oziyev. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: Ijod nashriyoti, 2006.



1. "Fors yozuvi" nomi bilan ataladigan xat turlariga qaysi xat turlari kiradi?

- [illegible]

3-amaliy ish. Mavzuga oid berilgan quyidagi savollarga yozma javob bering.

1. Arab grafikasiga asoslangan xat turlari va uning yuzaga kelish sabablari haqida nimalarni bilasiz?
2. Xattotlik nima? Xattot kim?
3. Xattotlikka oid qanday atamalar mavjud?
4. Qadimda kitobchilik san 'ati rivoji nimaga asoslangan?

5. Kitobatchilik terminlari va ularning nomlanishi bilan bog'liq qanday ma'lumotga egasiz?



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan harflarni alifbo tartibida joylashtirng va har birini 2 qatordan yozib mashq qiling.

ول ز ب ح ث ا ش ض ج ن ق ی ف ع م ک د ط ر

2-topshiriq. Xattotlik bosqichlarini “**Piramida**” usuli yordamida tushuntiring.



Islamo: Nasx xati - xattotlar tomonidan keng



Ta'liq xati - ya'ni osilib turuvchi, ilingan yozuv uslubi bo'lib, XV asrda ijod etilgan. Bu aslida riqo xatidan kelib chiqqan xat turi sifatida tarqaladi. Bu yozuvdan rasmiy va shaxsiy yozishmalar, hujjatlarda foydalanilgan. Mazkur yozuvda harflar yuqoridan chapga qiyaroq holda yoziladi. keladi. Bu xat turida ko'plab turkiy asarlar bitilgan. Shuning uchun ham ta'liq va nasta'liq xatining ham har xil yozilish tartibini to'liq o'rganamiz.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Berilgan matnni o'qing va arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing. Qaysi mumtoz janrga xosligini tushuntiring va uning muallifi haqida ma'lumot bering.

Yo rab ul shahdu shakar yo labmudur
Yom agar shahdu shaker yolabmudur
Jonima payvasta novak otqali
G'amza o'qin qoshig'a yolabmudur

Charxi kajraftor eliding yozamen
Chiqmadim hijron qishidin yoza men
Bir meni yorliq bila yod etmas ul
Har necha ul shahke qulluq yozamen

2-amaliy ish. Matnni o'qing va husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

... قورغانينىڭ شرق جنوبى جانبيدا بىر موزون تاغ توشۇتۇر
براكوه غا موسوم بو تاغنىڭ قله سىدا سلطان محمودخان بىر
حجره سالييتور اول حجره دين قوبيراق اوشبو تاغنىڭ تومشوغىدا
تارىخ توقوز يوز ايكىدا مین بىر ايوانلىق حجره سالدیم اگرچه اول
حجره موندين مرتفع دور

... خبردا كىلىمىش قوشلوق اشيغا تورت يوز قانگلى يانا
ايمىشلار يىتتى يوز قانگلى اون خرج بولور ايردى تاقى

ایمیشلار تال ییغاچلار ییغیب سید توقوب کیلیم کیب سید ساتار
ایردی یاریم بهاسین صدقه قیلور ایردی یاریم بهاسی غا ارپا
ایتماک نی آلیب بیور ایردی

3-amaliy ish. Berilgan matnni o'qing va joriy alifboga o'girib yozing.

قارا کوزوم کیل و مردم لیغ ایمدی فن قیلغیل
کوزوم قارا سیدا مردم کبی وطن قیلغیل
علی شیر نوایی

بو گلشن ایچرا یوقتور بقا گلیگا ثبات
عجب سعادت ایرور قالسا یخه، یایک بیرلا ات
علی شیر نوایی

مینى بیحال ایلاگان یار آی دورور
کیم آنینگ وصلی منگا یار ایدورور
گر وصلی بولماسا کیتار بیریم
یا خراسان یا خطا یا رایدورور
بابر



1-topshiriq. Berilgan matnni ifodali o'qing. O'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing, izohli lug'atdan foydalangan holda ularning matniy ma'nosini izohlang.

قصة يوسف پیک امد پیک

اما راویلا رانداغ روایت قیلورلا ریم اصفهان
شهرینده برپادشاه بار ایردی آدمی غه
بوز اوغلان خان دیر ایردیلا اما انشیک ایکی
سرکرده سی بار ایردی برینه آغجه پیک و
ینه برینه بابا پیک دیر ایردیلا روینه بوز اوغلان
خان نیشیک ایکی قرینداش بار ایردی آغ
بیک بیلان بابا پیک ایکی لارینه ایکی قرینداش
لاری نی بریب کیو قیلدیلا ایکی لایردین ایکی
اوغول پیدا بولدی بابا پیک نیشیک اوغلی نیشیک

آدی یوسف بیک ایردی آغ بیک نینک
 اوغلی نینک آدی احمد بیک ایردی بواکی
 لاری هم بوز اوغلان خان نینک جین لاری
 ایردی یوسف بیک اون سکیز یاشغ کیردی
 احمد بیک اون تور ت یاشغ کیردی اما
 اصفهان نینک بخش بیکیت لاری کیلیب
 یوسف بیک نینک آلدینده بزم صحبت قیلور
 ایردی یوسف بیک بیکیت لاری کاجولان
 بریب انعام احسان بریب آما سرپامی
 لاری بریب وقت لاری فی فحوشن قیلیب
 ایردی یوسف بوز اوغلان خان نینک بخش بیکیت



1-amaliy ish: Berilgan matnni o'qing va husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

اتفاق

بر كشي نينگ يتي سكرز نفر بالاسي بار ايدى بالا لارى نينگ
 آراسيده بولگان اتفاقسيزلك اوروش تالاشلارنى كوروب همه لارى نى
 آلدیگه چاقردى اون دانه اينگچكه چوب نى برگه قوشوب باغلاب بونی
 سندورینگیز ديب بالالاریگه بیردی بالالاری نینگ هر برلاری قول لاری
 گه آلوب زور بیروب کوردیلار ر هیچ برلاری سندورالمادیلار آخرده
 سندورماقغه کوچیمیز یتمادی ديب قايتاروب بریلار آتالاری چوبنینگ
 باغلغینی چیچوب هر قیسی لاریگه بر دانه دن بیروب منه بونی سندوروب
 کورینگیز دیگانیده هر برلاری سویونوب آلوب اونگغایلك ایله
 سندوردیلار صونگره اول كشي بالالاریگه باقوب اوغلانلاریم
 کوردینگز می سز هم شول چوبلارگه اوخشیسز اگرده بارچه نگرز اتفاق
 بولوب برگه قوشولوب تورسانگیز سزگه هچکمنینگ کوچی یتمیدور
 اگرده بر برینگز ایله اوروشوب تالاشوب ایریلیشوب یورسانگیز سزگه
 هرکمنینگ کوچی یتوب آياغ آستی قیلادور دیدی

2-amaliy ish. Berilgan hikoyani o'qing va joriy imloga o'girib yozing.

قناعت

بر ایت آغزیده نان تیشلاب کچکنه کوپروک اوستیدن اوتوب کتمکده ایدی
 کوزیگه سو ایچیده اوزیگه اوخشاب نان تیشلاب تورگان بر ایت کورندی
 اول ایت نینگ آغزیده گی نانگه هوسی کیلوب آنی تارتوب آلمک
 آرزوسیده تیز تیز تیکلگانه سوده گی ایت هم بونگه کوزین آلایتوروب
 قاراب قویار ایدی آخرده نفسی غلبه قیلوب آغزین آچوب ایریلاب سوگا
 اوزین تاشلادی سوگا توشگاچ بر شونغوب ینه سو یوزیگه چیقتی قرسه نه
 ایت بار و نه نان سوده کورونگان ایت ایسه اوزینینگ عکسی ایکان
 صونگره سوزوب سوزوب زورغه چیتگه یتوب اولار حالانده سود ن

چېقدی اوز نائید ن هم آیریلدی چونکه ایریلاب آغزین آچگاندە نانی سوگا
توشوب آقوب کیتگان ایدی حصه: اوز آغزیده گیگه قناعت قیلماسد ن
براونینگ نرسه سیگا قول اوزاتگان کشی اوز نرسه سید ن هم آیریلور

3-amaliy ish. Berilgan hikoyani o'qing va mazmunini tushuntiring.
O'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

حکایت

کونلارنینگ بیریدا سلطان حسین بایقارا شکارگا چیقیشنی اختیار
ایتدی اونگا علیشیر نوانی حضررتلاری همراه بولدی شکاردان قایتار
ایکانلار بیر قیشلاقدان اوتدیلار کوچه چیتیدا تورگان آلتی بییتی
باشلارداگی بالا سلام بیردی سلطان حسین قولینی کوکسیگا قویب علیک
آلدی و اوتیب کیتا بیردی علیشیر نوانی ایسا باله نی کوریب آتینی
توختاتدی پاستگا توشوب بالا بیلان قوش قوللاب کوریشدی اوندان
سونگ آتگا مینیب یولگا توشدی نوانی نینگ بو ایشی سلطان حسین
بایقارانی حیران فالدیردی او نوانی گا یوزلانیب سیز سلطان نینگ
وزیری بولسانگیز بونینگ اوستیگا جهانگا تانیقلی شاعر بولسانگیز
نیمه اوچون گودک بیر بالانگا شونچه لار مروت کورساتادورسیر عالم
پناه دیدی نوانی گپ بالادا ایماس گپ شوندا که بیر وقتلار شو
بالانینگ آتاسی مینینگ سوادیمنی چیقارگان ایردی مین استا دیمنینگ
بییتی پوستی آلدیدا همیشه قرضداردورما ن

4-amaliy ish. Berilgan hikoyani o'qing va matn asosida savolllar tuzing.

نان قدری

بیر کونی نان ساتیب آلیش اوچون نان دکانیگا باردیم مندان آلدین بر بالا
نان آلدی اوندان سونگ مینینگ نوبتیم کیلدی و مین هم نان آلدیم اویگا
قایتایاتگانیمده میندان آلدین نان آلگان بالا آلدیمدا کیتایاتگان ایدی بلا آلگان
نانیدان بیر توغرام آلیب بیب باراردی ناگاهان اونینگ نانیدان بیر پرچه
بیرگا توشیب کیتدی مین ایسا نان پرچه سینی بیردان آلیب بیر چیتگا
قویدیم بونی کورگان بالا میندان عذر سورادی مین ایسا اونگا نان هم

اونینگ اوشاغى هم نان ايكانىنى شو سببلى نانتى يوروب بيماسلىك
توشونتيرديم كير اكلينگىنى



UYGA VAZIFZA

1-topshiriq. Berilgan matnni o'qing, husnixat asosid mashq daftaringizga ko'chiring yozing.

توغرىلىغ

بىر كمپىرنىڭ اويدا بىر تۈپ بلخ تۈتى بار ايردى نھايتدا
توغرى اوسغان ايردى بېچاره كمپىرنىڭ شو تۈتدىن باشقا ھېچ
نېمىرساسى يوق ايردى بېشگان وقتدا قوروتوب قافغا سالوب
بايلارغا تارتوق قىلوب پول آلب شو آرقالى وقتىنى اوتكارور
ايردى بىر كۈن اول شھرنىڭ پادشاهى بىر ايوان سالماقچى
بولوب اوستون اختارگاندا كمپىرنىڭ تۈتى آلدیدا توختادى و
اوزىچا شول تۈت ياغاچى توغرى كىلسا كىراك دېب اويلادى و
انى كمپىردىن مىنگ آلتونغا ساتىب آلدی بېچاره كمپىر باى خاتون
بولوب قالدی بىر كۈن كمپىر تۈتنى كورماق اوچون كىلدی كوردىكه
تۈتى جنت كىبى بىر ايوان اورتاسىندا تۈرىپدور كمپىر تۈتىغا
قاراپ دىدى كه :

ای تۈتۈم توغرىلىغىنىڭ قىلدی بىزى دولتغا يار
ايگرى بولسانگ سان اوتون بولغای ايردينگ مان خار-زار
توغرىلار جنتنىڭ ايوانىدادور
اوغرىلار رنج و علم كونىندادور

MATN USTIDA ISHLASH



1-amaliy ish. Berilgan maqol va hikmatli so'zlarni arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Aql yoshda emas boshda.

Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga, yomon bilan yursang qolarsan uyatga

Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni yiqar.

Inson ulug' va mo'tabardir.

Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying samon bo'lmas.

Mehnat baxt keltiradi.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur, tomchi-tomchi yig'ilib daryo bo'lur.

Odob kishining ziynati.

Tozalik sog'likning garovi.

Ko'z qo'rqqoq, qo'l botir.

2-amaliy ish. Matnni ifodali o'qing va ko'chirib yozing.

فصل لار

بهار كوز و قيش ياز بهار فصل لار تورث نوع دور
تمام بول فصل دا جهان سبز بولور فصل لار نينگ ابتداسيدور
بعد نوروز عالم شول فصلدا كيلور جانوار لار جنبوشگا كيلغايلار
بول فصل ايسسيغ بولوب اونينگ اينگ ايسسيغ فصل ياز دور
سونگ كوز فصلی دور. بول فصل اوقاينی چله هم دييدور لار
بعد قيش دهقان خرمان جمع قىلدور دا همه ميوه لار پيشادور
انينگ اينگ بو فصل دا هوا بسيار ساووق بولور فصلی دور
تورث ساووق قيسمينی چله يعنى قيرق كونليك هم دييديلار
فصلنى جمع ايلاب بير يىل ديرلار

3-amaliy ish. Berilgan shakllarga tegishli nuqtalarni qo'yib so'z hosil qiling.

ار ار' وطن' حط' حطاب' حط' حطاط' رار' ار' حطاي'
طا هر' طا هر' طلم' طالم' طالت' طلب' طا عط' عار' عار'
دب' عارص' اساس' ساس' ساس' ماس' دان' حاصر' صاهر'
صادق' سالعام' سالعام' علام' ساع' باع' عرب' عارف' صاف'

سا عر' سا عب' حرح' حراح' حراع' درحب' حار' حاى صرب
 'صرر' 'صرور' نار' هراب' حواررم' جهان' سعادت' عادت وارب'
 باب' آباد' بادام' داربار' باب



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan matnni o'qing va husnixat asosida mashq
 daftaringizga ko'chirib yozing, o'zlashgan so'zlar lug'atini tuzing.

تاریخ ملک عجم دان

عجم تاریخیدا فارس سلاطینی تورت طبقه قلیب دورلار بورونگی
 طبقه پیشدادیلار دور و الار اون بیر کیشی دورلار کیم سلطنت
 قلیب دورلار تاریخ غلماسی اتفاقی بیلا بیراوکیم اول سلطنت قیلدی
 کیومرس ایردی اما آنینگ نسبتی بابیدا اختلاف کوپتور کیم مغ
 دیدور کیم آدم علیه السلام اولدور و بعضی عجم دین دیدورلار
 کیم آدم علیه السلام نینگ نبیره سیدورور بعضی فرس دین انی نوح
 اولادیدین دیدورلار ینه داغی سوز کوپ بار اما صقندین دین
 بیراقرق اوچون بیتلمادی آدم دیگانلار قولی بیلا انی گل شاه
 دیدورلار بو معنی بیلا کیم بالچیدین یاراتیلدی یعنی کیشی پشتی
 دین ایماس ایردی اوزگا قوللار بیلا کیم کیومرس دیدورلار معنیسی
 حقی ناطقدور یعنی تریکی کیم سوز اینقای اما نظام التواریخ و
 جامع التواریخ جلالی دا اتفاق بیلا حجت الاسلام امام محمد
 غزالی قدس سره نصحیت الملوک دا انی شیس علیه السلام نینگ

قرداشيدوردیگاننى طعن قىلىبدورلار نىددىن كىم شىس عليه السلام ضحاک
 عَلاَونى زمانىدادور و تاريخ اهلى اتفاقى بيله كىومرث زمانىددىن
 ضحاک زمانىغاچه مىنگ يىلغا ياقىن بار هر تقدیر بىلا پادشاه لیغ قاعده
 سین اندىن بورون يوق ایردى بو قاعده نى اول توزدى داغى اول كىشى
 كىم شهر بنا قىلدى اول ایردى دماوندنى بنا قىلدى اما اندا گاهى بولور
 ایردى داغى اصطحرنى بنا قىلدى اما کوپراک اوقات اندا بولور ایردى
 مىنگ ياشادى و لكن عُمرىنىنگ آخىرىدا قىرق يىل سلطنت قىلدى داغى
 سىيامک اوغلى هوشنگنى كىم نبیره سى ایردى...

ABJAD HISOBİ



Son tushunchasini harflar bilan ifoda etishga abjad hisobi deyiladi. Bu hisob usulining abjad deb atalishining maxsus bir ma'nosi yo'q. U abjad hisobidagi sakkizta so'zning (abjad, havvaz, hutti, kalamam, sa'fas, qarashat, saxxaz, zazag') birinchisi bo'lganligi sababli bu sistema ana shu atama bilan yuritiladi. Abjad hisobining mohiyati shundan iboratki, alifbodagi har bir harf muayyan bir raqamni ifoda etadi.

Arab harflari she'riy san'at, tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh, bezak vazifasini bajargan. Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar. Grammatika va darsliklarda abjad hisobi deb ataladigan termin ana shu bilan bog'liq⁶.

Biz quyida abjad hisobidagi sakkiz atamani va ular ifoda etgan sonlar jadvalini keltiramiz:

⁶ Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi.-T.: O'qituvchi, 1989.-B.138.

VIII	VII	VI	V	IV	III	II	I
ضظع	ثغذ	قرشت	سغصص	كلمن	حطى	هور	ابجد
zazag'	saxxaz	qarashat	sa'fas	kalaman	hutti	havvaz	abjad

Abjad hisobidagi harflarning son qiymati:

1- ا	5- ه	8- ح	20- ك	60- س	100- ق	500- ث	800- ض
2- ب	6- و	9- ط	30- ل	70- ع	200- ر	600- خ	900- ظ
3- ج	7- ز	10- ي	40- م	80- ف	300- ش	700- ذ	1000- غ
4- د			50- ن	90- ص	400- ت		

Diqqat qilgan bo'lsangiz, abjad sistemasiga kiruvchi sakkiz atamani tashkil etgan tovushlarning hajmi yigirma sakkizta. Ya'ni unda arab alifbosidagi harflarning hammasi aks etgan. Ularning barchasi undosh tovushlardan iborat bo'lib, birontasi ham ikki marotaba takrorlangan emas.

Jadvaldagi raqamlarda ham ana shunday izchillik bor. Unda birdan minggacha bo'lgan raqamlar muayyan tartibda, ya'ni, birdan o'ngacha birlik sistemasida, o'ndan yuzgacha o'nlik sistemasida, yuzdan minggacha yuzlik sanoq sistemasida berilgan.

Abjad hisobini keltirib chiqarish uchun, avvalo kitob muallifi yoki xattot tomonidan yozuvda alohida qayd qilingan so'z topamiz. Uni tashkil etgan harflarning ifoda etuvchi raqamlarini abjad hisobi jadvalida ko'ramiz va shu raqamlarni qo'shamiz. Ana shu yig'indi orqali xattot izohiga binoan biron asarning yoki tarixiy shaxsning dunyoga kelgan vaqtini aniqlab olamiz. Misol uchun "Yusuf va Ahmad" xalq kitobining qo'lyozma nusxalaridan birida xattot asarning ko'chirilish yilini kitobning so'nggi sahifasidagi **Bo'zo'g'londir** بوزاوغلان در so'zining tagini chizish orqali ifodalaydi. O'sha so'zdagi harflar ifoda etgan raqamlarning yig'indisi 1307 ni tashkil etadi. Demak, ushbu dostonning ko'chirilgan vaqti hijriy-qamariy 1307- yilga to'g'ri keladi. Uni milodiy yilga aylantirsak, 1889 -yil kelib chiqadi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Agar arab alifbosida mavjud bo'lmagan, forslar tomonidan kiritilgan harflar biz abjad hisobini chiqarmoqchi bo'lgan so'zda uchrab qolsa, nima qilishimiz kerak? Unday holda o'sha harflarga talaffuz jihatidan yaqin bo'lgan tovushlarning miqdoriy belgilarini qo'yish hamda qo'shish orqali abjad hisobini keltirib chiqaramiz.

Masalan, **مُرْجَان** **mujgon** so'zidan abjad hisobini qanday chiqarish mumkun? Abjad jadvaliga muvofiq **mim**-40 ga (arab alfavtida je harfi bo'lmagani uchun unga shakldosh bo'lgan ze harfini raqam belgisi olinadi), **ze**-70 ga, **kof**(gof)-20 ga, **alif**-1 ga, **nun**-50 ga teng.

Demak, biz aniqlamoqchi bo'lgan so'z abjad hisobi bo'yicha 118 hijriy-qamariy yiliga to'g'ri kelar ekan. Shuni ham eslatish kerakki, ba'zi hollarda abjad hisobini keltirib chiqarishimiz lozim bo'lgan so'zda **pe** harfi ishtirok etsa, u bilan ohangdosh bo'lgan **be** harfining miqdoriy belgisi olinadi. **Chim** harfining o'rniga esa **jim** harfining miqdoriy belgisi olinadi. (Turkiy tilda f tovushi yo'q u faqat arab va fors-tojik tillaridan o'tgan so'zlardagina uchraydi.)

Bulardan tashqari, abjad hisobi Sharq klassik poetikasidagi tarixiy san'ati bilan ham chambarchas bog'liq. U tarixiy san'atining yuzaga kelishida asosiy vosita vazifasini o'taydi. Sharq she'riyatida abjad hisobidan foydalanib go'zal tarixlar yaratilgan. Xullas eski qo'lyozma manbalarning yozilgan va ko'chirilgan yillarini to'g'ri aniqlash uchun abjad hisobidan bohabar bo'lish lozim.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Abjad hisobidagi harflarning son qiymatini arab raqamlari bilan yozing.

1-amaliy ish. Abjad jadvalidan mazkur raqamlarni ifoda etuvchi harflarni toping, o'zaro bog'lang va qanday jumla kelib chiqqanligini ayting:

1, 70, 30, 1, 1, 6, 100, 10, 300, 400, 10, 50, 10, 40, 60, 10, 7, 1, 10, 7, 30, 50, 10, 300, 5, 200, 2, 10, 200, 10, 40, 10, 7, 50, 10, 50, 20, 1, 10, 7, 20, 6, 40, 100, 90, 4, 10, 40, 10, 7, 2, 6, 30, 40, 1, 1000, 10, 1, 7, 10, 40, 4, 6, 200.

2-amaliy ish. Berilgan hikmatli so'zlarni ifodali o'qing, ko'chirib yozing. So'zlarning to'g'ri yozilishiga e'tibor bering.

توغرى سوزنى مردلارنىڭ دولت مهربانى كوپ
 يالغانچى لارنىڭ ايرسا ديدە گريانى كوپ.
 ايل تاج كىي باشگا كوتارسون ديسانگ
 ايل قولين توتگيل و بول خاك پاسى
 اى نوايى هيچ گلشن نينگ سينىڭدىك خوشنوا
 بلبلى يوق ايركانين شاه سخندانيمغا ايت
 آتا-آنا خاك پاي فرزندگا سرمايه توتياورتا قيامت قدر

3-amaliy ish: Abjad hisobidagi so'zliklarni "Tushunchalar tahlili" metodi asosida tushuntiring. Mashg'ulot davomida berilgan ma'lumotlarni 3-ustunga yozib chiqing.

1	2	3
Tayanch tushunchalar	Tushunchalar izohi	Qo'shimcha ma'lumotlar
Abjad		
Havvaz		
Hutti		
Kalaman		
Sa'fas		
Qarashat		
Saxxaz		
Zazag'		

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Quyida berilgan raqamlarning abjad hisobidagi harflarini topib bir-biriga bog'lasangiz ilm o'rganish va uning fazilatlari haqidagi hikmatli so'zni bilib olasiz.

2, 10, 30, 10, 40, 1, 50, 60, 1, 60, 10, 400, 20, 6, 200, 20, 10, 4, 6, 200, 1, 6, 40, 20, 400, 2, 4, 1, 50, 2, 1, 300, 30, 1, 50, 6, 200, 20, 10, 40, 20, 6, 2, 1, 6, 100, 6, 60, 1, 4, 1, 50, 1, 2, 6, 20, 6, 200, 50, 1, 4, 1, 50, 20, 1, 200, 1, 6, 7, 80, 1, 10, 4, 5, 60, 10, 50, 5, 40, 400, 6, 300, 6, 50, 40, 1, 60, 20, 1, 200, 4, 1, 50, 1, 20, 1, 200, 1, 10, 400, 10, 2, 4, 6, 200, 20, 1, 200, 20, 10, 40, 20, 10, 40, 20, 5, 4, 1, 50, 1, 2,

6, 30, 60, 1, 1, 6, 300, 30, 400, 6, 1, 50, 1, 2, 10, 30, 10, 40, 4, 1, 50, 2, 10, 200, 80, 30, 2, 30, 10, 2, 6, 30, 1, 4, 10, 2, 200, 50, 1.

HARFIY SAN'ATLAR: TARIX, MUAMMO, TUYUQ, TAJNIS, TOPISHMOQ, CHISTON



Eslatma: Eski o'zbek yozuvi harflari bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir guruh **harfiy san'atlar** ham mavjudki, ular **"kitobot"** deya ataladi va hozirda ularni ham alohida tasniflash lozim. Chunki harfiy san'atlarning amaliyot doirasi kengligidan tashqari, sanoq ko'pligi va funksional xizmatning muhimligi bilan maxsus o'rganishga arzigulikdir.

Masalan: Alisher Navoiyning mana bu misralariga esa oshiq ahvoli ruhiyasi harflarning grafik shakllari orqali juda ajoyib ifodalangan.

Jonimdagi **jim** ikki **dolingga** fido,

Andin so'ng **alif** toza niholingga fido.

Nuni dog'i anbarin hilolingga fido,

Qolgan ikki **nuqta** ikki xolingga fido. (۞)

Bu singari harfiy san'atlarning turlari xilma-xil bo'lib, ular abjad hisobi, yil hisobi, ta'rix, muammo, tuyug', tajnis, muvashshax, lug'z, chiston kabi janr va san'atlar bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa harfiy san'atlardan musahhaf, istixroj va qalb kabi san'atlar muammo aytish va uning yechimi qoidolari bilan bevosita bog'liq.

T A R I X

Ta'rix asosan qo'lyozma yodgorliklarning yozilishi, xotima topishi, nusxalar ko'chirilib tugallanishi, hukmdorlarning taxtga o'tirishi yoki chetlatilishi, madrasa, masjid, yirik inshootlarning qurilishi, ta'mirlanishi, tabiat hodisalarining sodir bo'lishi bilan bog'liq voqealar munosabatlari bilan bitilishi mumkin.

Ta'rixlar asosan ikki qismga bo'linadi:

1. Ta'rix suvari (suvari-san'at so'zining ko'pligi)
2. Ta'rix ma'naviy.

Ta'rixnavislik XV-XX asrlarda rivojlanishning yuqori nuqtasiga ko'tarildi.

Bu davrlarda arab harflari nomlarini keltirish orqali ham ta'rixning ajoyib namunalari yaratildi. Masalan:

ضاد ایدی تاریخ تقی حا و دال
مدتی هجرتدین اوتوب ماه و سال

Baytda keltirilgan **zod**, **he**, **dol** harflarining abjad hisobidagi raqamlarini oladigan bo'lsak "zod"-800ga, "he"-8ga, "dol"- 4ga teng bo'ladi va ular yig'indisi 812 tashkil qiladi. Bu Durbekning "Yusuf va Zulayho" dostonining yaratilgan yilidir. Milodiy yil bilan 1409- yilni anglatadi.

Quyidagi ta'rix Shayboniyxon tomonidan Najmiddin Kubro vafotiga bag'ishlab aytilgan bo'lib, ta'rix moddasi tagiga chizilgan so'zlardan chiqadi:

آنینگ تاریخیدور شاه شهدا
بیر الیف بیر لا بولور ادا

Ta'rix aytish san'atining o'ziga xos qat'iy qonun-qoidalarini mavjud. Unga ko'ra ta'rix moddasi yashiringan so'z yoki iboradagi raqamlar topilishi lozim bo'lgan sanadan ortiq bo'lsa "isqot" usulidan foydalanib uni kamaytiriladi, aksincha o'ttirish lozim bo'lsa "idhol" usuliga murojaat qilinadi. Xullas ta'rixlar o'z vaqtida juda katta ahamiyat kasb etgan. Ular o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga undagan, tafakkur doirasini kengaytirishga xizmat qilgan.

M U A M M O

Muammo arab tilidagi **a'mo** so'zidan olingan bo'lib, "**ko'r qilingan**", "**yashiringan**" degan ma'nolarni anglatadi. U she'riy janr sifatida o'zining qat'iy qoidalariga ega bo'lib, asosan bir, ikki baytdan iborat bo'lgan tugal ma'noli she'rdir. Muammoda biron nom (asosan kishi nomi) harflar orasiga yashiringan bo'ladi va u sarlavhada aniq ko'rsatiladi. Shu bilan birga she'rda uning yechimi bilan bog'liq bo'lgan turli imo-ishoralar ham beriladi.

Muammoning yechimi esa arab harflarining yozilish holatiga asoslanadi. Buning uchun ma'nodosh va shakldosh so'zlarni aniqlash, bir so'zning boshqa tildagi ma'nosini topish, badiiy san'at ilmiga murojaat qilib, arab alifbosidagi harflarning shakli, ramziyligiga e'tiborni qaratish, muammo qilingan so'zlardagi harflar o'rmini almashtirish, yil hisobi, burj va abjad hisobidan foydalanish lozim bo'ladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zbek tilida muammo janrining ko'plab ajoyib namunalarini yaratgan. Ular shoirning turli asarlari tarkibidan keng o'rin olgan. Shoirning mana bu mashhur muammosi mazkur janrning eng yaxshi namunasi hisoblanadi:

بو گلشن ایچرا یوقتور بقا گلیگا ثبات
عجب سعادت ایرور قالسا یخشیلیک بیرلا آت

Baytda “saodat”dan “ot” chiqarilishi kerakligiga ishora qilinmoqda. Shunda “sa’d” qoladi va u “yaxshilik”, “baxt” ma’nolarini anglatadi. Dunyoda hech narsa boqiy emas, hamma narsa o’tkinchi, shunday ekan chiroyli amallar bajarib yaxshi ot qoldirishga intilish lozimligini uqdirmoqda shoir.

“Bobur” ismiga aytilgan mana bu muammoning yechimida esa muammo qoidalaridan “hisob”, “isqot”, “tabdil”, va “ta’lif” usullariga amal qilish talab qilinadi:

ایشیگینگ آستانیغا قویوبان ایکی یوزومنی
اوپای گاهی تواضع بیرلا سورتای گاه کوزومنی

Muammo qilinayotgan nomni topish uchun avvalo, “tabdil” amaliga asoslanib “eshik” so’zini uning arabiyisiga, ya’ni “bob” so’ziga almashtiriladi va “isqot” usuli asosida uning “b”sini tashlab “bo”si olinadi.

Aslini olganda ta’rix ham, lug’az-chiston ham yechim talab qiladigan muammo san’atlaridir, lekin agar ta’rix san’atida sana yashirinsa, muammoda biror ism yoki tushuncha san’atga xos usullar bilan yashirib, “ko’zga ko’rinmaydigan” qilib beriladi¹. Isqot qoidasi bo’yicha chiqariladigan muammoga yuqorida Navoiy asarlaridan olib keltirilgan “ajab saodat erur” misoli to’g’ri keladi. Xuddi shunga o’xshab “at” isqot qilinadigan yana bir muammo ham mashhur, uning ifodasi quyidagicha:

اتیم چیقسون دیمانگ سالغیل عمارت
عمارتنی سالیب آت نی چیقار غیل

Jahon Otin Uvaysiynig quyidagi muammosi ham muvashshah usulida yaratigan bo’lib, unda shoiraning ismi “jahon” yashiringan:

جیم وها و الیف کیم مین کیم و دردینگ یوکی بیلا
دلیمدا نقطه سی بغریمدا داغیم لایق خون مین

¹ Ishoqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. –Toshkent.1995.104-bet.

Muammo janr sifatida XV asr o'rtalarida taraqqiyotning yanada yuqori nuqtasiga ko'tarildi. Natijada ilm toliblari shoir va ulamolar uchun muammo aytish va uning yechimini topish katta sinov, imtihonga aylandi. Muammonavislik fan sifatida maktab va madrasalarda maxsus o'qitila boshlandi.

TAJNIS

Tajnis lafziy san'atlardan biri bo'lib, **“biror narsa bilan o'xshash bo'lmoq”** degan ma'noni anglatadi. Qadimda **“tajnis-jinas”** deb ham yuritilgan. Bu san'at she'r baytida keltirilgan ma'nan har xil, ammo shaklan o'xshash ikki so'z orqali muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta'sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Tajnis san'atining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u turkiy adabiyotda vujudga kelgan tuyug'

Tajnisning “tajnisi tom, tajnisi noqis, tajnisi murakkab”kabi turlari mavjud². Tajnisi tom-to'liq tajnis deb ham nomlanadi. Bunda so'zning yozilishi va talaffuzi bir xil lekin ma'nosi har xil bo'ladi. Tajnisi noqis-o'z nomidan ham anglashilib turganidek nuqsonli, to'liq bo'lmagan tajnisdir. Tajnisning bu ko'rinishi muharraf harfli deb ham ataladi. Tajnisi murakkabda esa jinsdosh so'zlarning biri alohida va ikkinchisi ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'ladi. Zahiriddin Muhammad Boburning mana bu tuyug'i tajnis san'atining chiroyli namunasi hisoblanadi:

مینی بیحال ایلاگان یار آی دورور
کیم آنینگ وصلی منگا یار ایدورور
گر وصلی بولماسا کیتار بیریم
یا خراسان یا خطا یا رایدورور

² S.Ashirboyev., I.Azimov., M.Rahmatov., A.G'oziyev. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. - Toshkent: Ijod nashriyoti. 2006. 122-bet.

Topishmoq (lugʻz va chiston)

Lugʻz muammoga oʻxshash sheʼriy sanʼatlardan biridir. Farqi shundaki, lugʻz savol tarzida tuziladi va shu tomoni bilan u chistonga ham oʻxshab ketadi. Lekin lugʻz chistonga nisbatan hajman kattaroq boʻladi. Lugʻzning xususiyatlaridan biri shundaki, unda biron narsa sanʼatkorona noziklik bilan sheʼriy tasvir qilinadi.

Tasvirdan oʻsha narsa yoki predmetning xususiyatlarini fahmlab olish talab qilinadi. Lugʻzning dastlabki namunalari fors-tojik adabiyoti namoyandalari Rudakiy, Mushfiqiy ijodlarida uchraydi. Oʻzbek adabiyotida lugʻz janr sifatida keng tarqalgan emas. Uning ayrim namunalari Alisher Navoiy ijodida uchraydi. Shoirning oʻzbek tilidagi oʻnta lugʻzi uning ikkinchi devoni “Navodirun-nihoya” tarkibida mavjud².

Biron narsa yoxud hodisaning xarakter va belgilarini sanʼatkorona sheriya taʼrif-tasvir etish orqali kitobxonni uni topishga dalolat qiladigan sheʼr-chistondir. Chiston xalq ogʻzaki ijodi zahirida vujudga kelgan boʻlib topishmoqlarga yaqin turadi. Qadimda uni lugʻz deb ham ataganlar. Chiston janrida bitilgan sheʼr koʻpincha toʻrt, olti, baʼzan oʻn misradan iborat boʻladi. Oʻzbek adabiyotida chistonning dastlabki namunalari Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan. Masalan:

عجب قوش کورمیشام باشی اوچ یوز
بیلی یتمیش ایاغی هم ایکی یوز

Mana bu chiston Ogahiy tomonidan aytilgan boʻlib, unda ismi boru oʻzi unitilayozgan “vafo” soʻzi yashiringan:

اول نه ینگلیغ طرفه قوشکیم آلتیدور آنینگ باشی
طرفه راق بوکیم ایاق بیردور قنات سکسان انگا

Topishmoqlar xalq ogʻzaki ijodining keng tarqalgan turi boʻlib, chistonlarga yaqin turadi. Topishmoqlarda asosga olingan biron narsa uning oʻziga oʻxshash boʻlgan ikkinchi bir narsaning xususiyatlaridan kelib chiqilgan holda tasvir etiladi, yaʼni oʻsha topilishi lozim boʻlgan predmetning oʻziga xos tomonlari - belgisi,

² S.Ashirboyev., I.Azimov., M.Rahmatov., A.Gʻoziyev. Eski oʻzbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: Ijod nashriyoti. 2006. 125-bet.

sifati ma'lum ramz, ishoralar orqali beriladi. O'quvchi topishmoqni ana shu ishoralar orqali o'ylab topadi. Kuzatuvlar topishmoqlarning arab harflari ust va ostiga qo'yiladigan nuqtalar, ularning miqdoriga qarata aytilishi mumkin ekanligini ham aniqlashga imkon beradi.

اول نی باشی تورت بوینی آلتی دور صاحب سخن
بیلی تورت یوزپایی برجاتی ایکی یوزراهن

Xulosa qilib aytganda, arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvini mukammal o'rganish, badiiy va harfiy san'atlarni ilmiy o'rgatish - o'quvchi uchun adabiyot nafosati va sehlrlarini idrok etish maktabi bo'lsa, havaskor shoir uchun mahorat saboqlaridir. Shu ma'noda o'n asrlik o'zbek mumtoz adabiyot namunalari arab yozuvida bitilganligini, eski yozuv - arab alifbosi bilan bog'liq, harflar shakliga aloqador yoki ma'lum harf orqali so'z o'zgartirish san'atlari ham ko'plab uchrashini, biz ularni **harfiy san'atlar** deb ham atashimizni e'tirof etish lozim.

Ushbu mavzuni o'tishda **“BUMERANG”** texnikasidan foydalanish mumkin. **“BUMERANG”** texnikasi – o'quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materiallarni yodda saqlab qolish, so'zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchi talabalarni baholay olishga qaratilgan.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-amaliy ish. Berilgan matnni arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuviga o'girib yozing. Qaysi adabiy janrga xosligi va muallifi haqida ma'lumot bering.

Ey ko'ngul, yorsiz senga ne bor, bor,
Qaydakim ul zulfi anbarbor bor.
Chek jafo-yu javr-u nozi borini,
Bir kun odg'aykim, degaylar: «Bor, bor».

Yo qoshingdin necha bir o'q ko'z tutay,
Otki, o'trusig'a oning ko'z tutay.
Necha ko'rgach o'zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko'rgan kishidek ko'z tutay.

Bo'yung sarv-u sanubartek, beling qil,
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil.

Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.
Sindurub gumbazni, qizlar holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortig'liq, tururlar bag'ri qon.

2-amaliy ish. Berilgan misollarni o'qing va ma'nosini tushuntiring, qaysi adabiy janrda yozilganligini toping. Matnni joriy alifboga o'girib yozing.

چرخ تارتیب خنجر هجران بوتون
قويمادی بیر زره باغریمنی بوتون
تونگا باریب بیزنی بیحال ایلادینک
نی بلالیغ تون ایمیش یارب بو تون
علیشیر نوای

کرچه قوروتماس کوزومنینک یاشینی
حق اوزون قیلسون اول آیینیک یاشینی
یغلاما کوپ بو وجوددینک، عشق اوتی
نی قوروغین قویغوسی نی یاشینی.
لطفی

چرخ کجرفتار ایلیدین یازامین
چیقما دیم هجران قیشیدین یازا مین
بیر مینی یارلیق بیلا یاد ایتماس اول
هر نیچه اول شهکه قوللوق یازامین.
لطفی

3-amaliy ish. Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan ushbu chistonning javobini toping.

Na qushlar erkin alarkim, biror durur qanoti,
Qanotining uchida har birisiga minqor.
Biror ayog'lari ham boru turfaroq bukim,
Ayog' uchida biror ko'z ham ettilar izhor.
Qachon ayoqlarin almashtirurlar ul soat,
Qanot urarg'a bo'lurlar toyurdek tayyor.
Qanot ko'p urmoq ila bir qari ucharlari yo'q,
Ucharda garchi qaridur alarg'a istizhor.



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan misollarni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chiring. Qaysi adabiy janrga xosligi va muallifi haqida ma'lumot bering.



چون پری و حوردور آتینک بیگیم
صرعت ایچرا دیو ایرور آتینک بیگیم
هر حدنگیکیم اولوس آندین قاچار
ناتوان جانیم ساری آتینک بیگیم.

مین کونگول بیردیم ینگاقینک آلینه
بولمادیم واقف بو مکرو آلینه
ایمدی لابود چاره یوق کورمک کیراک
هر نی تینگری سالمیش اولسا آلینه.

قدیمنی فراق محنتی یا قیلدی
کونکول غم و اندوه اوتیغا یاقیلدی
حالیمنی صباغه آیتیب ایردیم ای گل
بیلمان سنکا شرخ قیلمادی یا قیلدی.

مینى بیحال ایلاگان یار آی دورور
کیم آنینک وصلی منگا یارایدورور

گر وصلی بولماسا کیتار بیریم
یا خراسان یا خطا یا رایدورور

2-topshiriq. Berilgan matnni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing. Qaysi adabiy janrga xosligi va muallifi haqida ma'lumot bering.

Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor,
Har necha dardimni desam, dog'i bor,
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo'ldi firoqing dog'i bor.

Tig'i ishqing yorasidur butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahrosidur ohim o'tidan.
Anda gul yoxud giyohe butmagan.

Yuz ochg'il, ko'z seni to'yguncha ko'rsin,
Necha bo'lg'ay bu ko'zim muntazir, och.

ALISHER NAVOIYNING "ILK DEVON"IDAN OLINGAN MATNLAR O'QISH VA TAHLIL QILISH



علیشیر نوائی غزلا ریدن
تاپمادیم

مهر کوپ کورگوزدوم اما مهربانی تاپمادیم
جان بسی قیلدیم فدا آرام جانی تاپمادیم
غم بیلہ جانیمغا ییتتیم غمگساری کورمادیم
هجر ایله دل خسته بولدوم لستانی تاپمادیم
عشق ارا یوز مینگ ملامت اوقیغا بولدوم نشان
بیر کمان ابرودا توزلوکدین نشانی تاپمادیم
کونگلوم ایچره سرو اوقدور غنچه پیکان گل تکان
دهر باغی ایچره مونداق گلستانی تاپمادیم
حسن ملکی ایچره سیندیک شاه ظالم کورمادیم

عشق کوییدا اوزومدیک ناتوانی تاپمادیم
 کوپ اوقودوم وامق و فرهاد و مجنون قصه سین
 اوز ایشیمدیک بوالاجبراق داستانی تاپمادیم
 اول زمان ایچیندا بولسون ای نوانی گرچه مین
 بیر زمان ایشقیدا محنتدین اماتی تاپمادیم
 طبع گنجیدین معانی خرده سین یوز قتله حیف
 کیم نثار ایتماککا شاه خرده دانی تاپمادیم



1-amaliy ish. Navoiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnini husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib

yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

علی شیر نوایی غزل لار
 خانقه ده خلقه ء ذکر ایچرا غوغا قیلدی شیخ
 اهل دل لار نقد اوقاتینی یغما قیلدی شیخ
 اول بیرری دام ایرد یبو بیر دانه ایل صیدی اوچون
 هر قچان کیم عزم تسبیح و مصلا قیلدی شیخ
 یا خیال ینک یاخود خانقه فکری ایدی
 هر کرامات و مقالاتی که افشا قیلدی شیخ
 کف قاقیب فرید ایتیپ سیکر اب پری وش لارنی صید
 قیلغالی دیوانه لیغ لار آشکارا قیلدی شیخ
 توق چیقیب خلوت دین اوزنی روزه دیب جهالدین
 اسرو کوپ ناداننی اوز طور یغه شیدا قیلدی شیخ
 با وجودی مسح ذادانلیق مرید ایلار اوچون
 کوپ اوز بدین مسح نادانراقنی پیدا قیلدی شیخ
 دیر بیرری نینگ مریدی مین که فیضی عام ایرور
 خانقه دا فیض عام ایلدین تمنا قیلدی شیخ

دیر ارا تیندی قولاغیم راهبا ذکرینگ بغیر
کیم سحر ذکر ایتوریدا کوپ علا لا قیلدی شیخ
ای نوایی خرقة سین بیردی کرامات ایلادی
کیم منکا ترتیب وجه رهن صهبا قیلدی شیخ

1-amaliy ish. Navoiy g'azalini ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.

1-topshiriq. Navoiy hikmatlarini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing va mazmunini tushuntiring.

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

Kamol et kasbkim, olam uyidin -
Sanga farz o'Imag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o'tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak oson emas oning haqqin yuz ganj ila.

Turk nazmida chu tortib men alam
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Alisher Navoiy g'azalini eski o'zbek yozuviga o'girib yozing, o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

Kecha kelgumdur, debon, ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.
Lahza -lahza chiqtim-u, chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-u, ul sho'xi badxo' kelmadi.
Orazidek oydin erkanda gar etti ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lg'onda qarong'u kelmadi.
Ul parivash hajridinkim, yig'ladim devonavor,

Kimsa bormukim, anga ko'rganda kulgu kelmadi.
 Ko'zlarindin necha suv kelgay, deb o'turmang meni
 Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha suv kelmadi.
 Tolibi sodiq topilmas, yo'qsakim qo'ydi qadam
 Yo'lg'akim, avvalqadam ma'shuqi o'tru kelmadi.
 Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglung uyin,
 Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.

2-topshiriq. Alisher Navoiy g'azalini joriy imloga o'girib yozing, o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

عليشير نواي غزلا ريدن

يوزين كور قيلم غيل مژگان و خط و خالدين ژاله

كه بولماس خار سيز كل دودسيز اوت داغ سيز لاله

چو مين دور تيشلارينگ هجريدن اولدوم نى اسينغ كر چرخ

نجوم اشكىنى ياغدورسا باشيمغه اولاكيم ژاله

ايماس بو بير سرشكيم قانى كيم كوز مردمى سالور

ايتينگ آيدا باغريمنى اوزوب پر كاله پر كاله

ليبنگ آب حياتين خضر خطينگ نوش ايتار ساعت

حباب اولميش اوشاق بير ايكي انى دىما تبخاله

يوزونگ دور ايل خط چترى اراى خوبالار شاهى

كه بولمايدو قمر دوريدا هر كز بو كيبى هاله

بياله برلامى آغزيمه كوبتين قويما اى ساقى

كى اول جوهر غه كويار كيم مناسب كيل ايرور كاله

بو بزم اهليغه بيل كيم عاقبت جزبى وفالينغ يوق

نوايى خواه لغن عيش توز كيل خواه قيل ناله

QILISH



گلخنی ضرب المثل د ن

حکایت منظومه

بار ایدی کشمیر نواھینده تاغ
 باغ ایرم رشکین کوكسیده داغ
 انده عمارت کایر اغلیق یغاچ
 یتى قولاج بویى اون ایکی قولاج
 بار ایدی چوخ نعمت الوان لاری
 خرم معمور ایدی حیوان لاری
 زلف کبی سنبل خوش بولاری
 راحت جان ایردی آقار سولاری
 اویدین اولوغ راق ایدی بر کلبنی
 آمده وطن توتمیش ایدی میمونی
 جان ساتوب اوزنی اویین ایتوردی تن
 اوقور ایدی قصه حب الوطن
 بیر ایدی کونگلی تیلاگان میوه سین
 باسلار ایدی آدمیلیق شیوه سین
 بر کونی نجار خردمند فسرد
 کونگلی یغاچ یوقلیغیدین قیلدی درد
 اوپله که نوکیسه لارین قیستری
 رسم ایدی نجار یغاچ ایستری
 ایکدی کله گوشه سینی فرده سین
 بیلگا سوقوب تیسه سی و آره سین
 باردی اوشال تاغقه موقوف ایدی
 ایسکو یغاچ لار انگا معروف ایدی

شهرنی زندانیدین آزاد اولوب
 تاغنی شیرینیغه فسرماد اولوب
 سانور ایدی اوزینی تاغ خسردی
 تاغنی اوقوب دهلوی معنوی
 باریب انگا کیستی یغاچ ریشه سین
 قویدی اویرده اونوتوب تیشه سین
 باردی ینه کیسنی بولک بر یغاچ
 یارماغینی فکر یغه قیلدی علاج
 بالته بیلان بر اوچینی باردی اول
 پاته قویوب تیشه ساری باردی اول
 توشتی بناگاه انگا میمون کوزی
 عاقل دانا سانب اول دم اوزی
 ایدی اولوس ایچره بو بر کسب ایرور
 کسب نی کیسانک باشینی سب بولور
 کیسه پرزر ایمیش ایلگا هنه
 بی هنر ایلنی دیدیلر کنتی خسر
 من داغی نجار لیکین اورگانای
 ذریه لاریم برچه سیگا اورگانای
 جهد قیلیب توردی رولن بارغالی
 یعنی یغاچ قالمیشینی یارغالی
 بر سری آن چوب کفیده رسید
 کیر هنر دید کرور ندید
 میندی یغاچ اوستیکا نجاردیک
 کاسب پرکرده پرکاردیک
 کیتی هنر شوقی بیله غصه سی
 توشتی یغاچ ایرسیغه خاصه سی
 بسکه نیدین بولدی توولماقلیغی

ممکن ایماس اولدی قوتولماقلىغى
آدمى نینگ جىسىدىن يوق قىصه سى
قالدى آنى خاصه سىنى حصه سى



1-amaliy ish. Gulxaniy “Zarbulmasal” asaridan keirilgan parchani ovoz chiqarib ifodali o`qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko`chirib yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o`zlashgan qatlamga oid so`zlar lug`atini tuzing.

4-amaliy ish. O`zlashgan qatlamga oid so`zlarning matndagi ma`nosini izohli lug`atlardan foydalanib tushuntiring.

UYGA VAZIFA



1- Gulxaniy “Zarbulmasal” asaridan keltirilgan parchani eski o`zbek yozuviga o`girib yozing va o`lashgan qatlamga oid so`zlar lug`atini tuzing.

Ammo roviylar andog` rivoyat qilurlarkim, ilgari ayyomi nofarjomda Farg`ona iqlimida Kayqubod otlig` podshohlig`idin qolgan bir eski shahriston bor erdi. Anda bir Boyo`g`li degan vatan tutmush erdi. Ammo aning havosi xush va dilkash. Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin, qo`rg`ong`a qo`rg`on chog`da tovusning parlaridek turlanib, munaqqash ko`rinur erdi va aning bir yog`ochli yerda Yapaloqqush maskani, ota-bobosidin qolg`on joyi bor erdi. Ammo Boyo`g`lining bir qizi bor erdiki, mehri xovariy yuziga banda erdi. Va ul qiz oftobi olamtobdek har xomni pishirur, hech maxluqni kunduzi ko`rmoqqa chorasini yo`q erdi va ul qiz, yuzini yashirur erdi. To ba haddeki alomati bulug` zohir bo`lub, tishi chiqib, ko`zi suzulib, onasini to`g`ri so`zlaganiga egri so`zlay boshladi. Onasi qabzlanib aydikim: -Ey bolam, ko`nglungiz er tilar o`xshar, oshuqmang. “Oshuqqon qiz erga borsa, yolchimas va teshik munchoq yerda qolmas”. Onda qiz itob og`oz qilib aydikim: “Ey ona, siz bizga sabr va tahammul sari yo`l ko`rsatarsiz, meni olur yigitning ham otasi ayturki:- “”Po`lat oichoq qinsiz qolmas”, “Bosh eson bo`lsa, doppi topilur”. ...

Bizning tarafdin sovg`i bo`lib boring. Har qancha qalin bo`lsa topilur. Anda Ko`rqush aydi: - “Bor maqtansa topilur, yo`q maqtansa chopilur”, degan yaxshilarning masalidur. Boyo`g`lining og`zini bir burchidan chiqar: “Ming chordevor qizimning qalini” deb. Holo ...podshohimiz zamonlarida bir bo`sh chordevor topilmas, uyalurmiz. Nechukkim aytmishlar: “Yolg`on masal turmas”, “Uyat o`lumdan qattig`”. Yana aytmishlar: “Ermon yog`ochning egilgani - singani, er yigitning uyalgani - o`lgani”...

LOTIN VA KIRILL ALIFBOSIDAGI MATNNI

ESKI O'ZBEK YOZUVIGA O'GIRISH

1-topshiriq. Berilgan matnni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

Otabek Yusufbek Hoji o'g'li

1264 inchi hijriy, dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshtiladir...

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ish-kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytganlar, ko'p hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qaraganda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyini ko'kka ko'targudek.

Saroyning to'rida boshqalarga qaraganda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasiganda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo'lganida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda: og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarli edi. Qandog'dir bir xayol ichida o'lturguchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bo'lgan Yusufbek hojining o'g'li - Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan birov darboza yonidagi kimdandir so'radi:

-Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko'rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamalik bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otlik o'g'lidir; ikkinchisi uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik,

chag'ir ko'zlik. chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshigina davlatmand bo'lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo'lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so'zlashkanda uning otiga taqilgan laqabni qo'shib aytmasalar, yolg'iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydirlar...(A.Qodiriy "O'tgan kunlar")

2-topshiriq. Berilgan matni eski o'zbek yozuviga o'girib yozing.

ИККИ МАКТУБ

Мақтаб ўқувчиси эдим. У кезларда ҳаёт сўқмоқларининг чигаллигини унчалик англаб етмас эдим. Болаликда ҳамма нарса ҳақида эшитардиг-у, бирортасини ҳам бажариб кўрмаганмиз. Яхшилик ва ёмонлик, рост ва ёлғон, таъмагирлиг-у ҳасадгўйлик, муҳаббат ва нафрат...

Агар хотирам панд бермаса, география дарсидаммиз. Устозимиз Камола опа ўқувчиларнинг марок билан тинглаётганидан завкланиб доскага илинган харитадан биз айтган давлатни кўрсатяпти. Шу пайт... худди шу пайт мурғак қалбим жумбушга келди. Юрагим уришдан тўхтаб, музлади. Ўзимга сезилиб «дук-дук, дук-дук» эшитилаётган овознинг ўрнини сукунат камради.

Мақтабимиз директори бир кизчани етаклаб кириб:

- Энди У сизлар билан ўқийди. Дўстлашиб кетасизлар деган умиддаман, -деганди ўшанда.

Унинг хусни, жингалаксимон сочи... маъюс чехрасига махлиё бўлганимча колдим.

Оромим йўқолди. Синфимизга келган кизалоқ ўша кундан бошлаб ҳаёлларимга ўрнашиб, меникига айланиб улгурганди. Болагина дунём уни "меники" деб биларди ва шундай ҳис этарди. Нега дейсизми? Чунки у билан биринчи бўлиб мен танишгандим-да. Синфдош дўстларимга ҳам "кимда ким унга яқинлашса, ўзидан кўрсин" деб тайинладим. Улар ҳам бу сўзларимни инобатга олди. Тенгқурлари орасида муштумзўр деб ном чиқарган тентак олиш мендай бола билан сен-менга боришга кимнинг юраги дов бериб, ҳадди сиғарди дейсиз.... (Шавкат ОДИЛЖОН)



UYGA VAZIFA

1-topshiriq. Berilgan matnni joriy imloga o'girib yozing va o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

بابورنامە دان

تېنگرى تعالى نېنگ عنایتى بیلان و حضرت آن سرور کائنات نېنگ شفاعتى بیلان و چهار یار با صفالارى نېنگ همتى بیرلان سه شنبه کونى رمضان آیینىنگ بیشىدا تاریخ ساککیز یوز توقسان توققوزدا فرغانه ولایتى دا اون ایکی یاشتا پادشاه بولدوم فرغانه ولایتى بیشینچى اقلیمد یندور معموره نېنگ کناره سیدا واقع بولوبتور شرقى کاشغر غربى سمرقند جنوبى بدخشان نېنگ سرحدى تاغلار شمالیدا اگرچه بورون شهرلار بار ایکاندور مثل المالىق و الماتو و ینگی کیم کتبلاردا اطرار کنت بیتیرلار مغول و اوزبیک جهتدین بو تاریخدا بوزولوبتور اصلا معموره قالمابتور مختصر ولایت تور أشلیق میوه سی فراوان گرده - گردى تاغ واقع بولوبتور غربى طرفیداکیم سمرقند و خجند بولغای تاغ یوقتور اشبو جانبین اوزگا هیچ جانبین قیش یاغى کیلا آلماس سیخون

دریاسى کیم خجند سووى غا مشهوردور شرق و شمالى طرفیدین کیلیب بو ولایتینىڭ ایچى بیلا اوتوب غرب سارى آقار خجند نېنگ شمالى فناکت نېنگ جنوبى طرفید ینکیم حالا شاهروحيه غا مشهوردور اوتوب ینا شمالغا میل قیایب ترکستاندین خىلى قویبراق بو دریا تمام قومغا سینگار هیچ دریاغا قویلماس فرغانه نېنگ ییتتى پاره قصبه سی بار بیشى سیحون سووى نېنگ جنوبى طرفیدا قالغان ایککیسى شمالى جنوبیدانور جنوبى طرفیداغى قصبه لاردان بیرى اندیجاندورکیم وسطا واقع بولوبتور فرغانه ولایتى نېنگ پایتختى دور أشلیغى وافر میوه سی فراوان قاوون و

اوزوملاری ياخشى بولور قانون محلیدا فالیز ناشیدا قانون ساتماق
رسم بولماس اندیجان نینگ ناشباتی سیدین یاشی راق ناشباتی
بولماس

ماورالنهدا سمرقند و کیش قورغانیدین سونگرا موندین اولوغراق
قورغان یوقتور اوچ دروازه سی بار ارکی جنوب طرفیدا واقع
بولوبتور توققوز ترناو سوکیرار و بو عجب تورکیم بیر بیردین هم
چیقماس قلعه نینگ گرده - گردی خندق و خندق نینگ تاش پانی سنگ
ریزه لیق شاه راه توشوبتور قلعه نینگ گرده - گردی تمام محلات تور
بو محله بیرلا قلعه غا فاصله اوشبو خندق تور و یاقاسیداغی شاه راه
تور قوشلاری کوب بولور قیرغاولی بیحد سیمیز بولور انداق روایت
قیلدیلارکیم بیر قیرغاولنی اسکنه سی نی تورت کیشی بیب توگاتا
آلمايور ایلی ترکتور.



1-amaliy ish. Matnni ovoz chiqarib ifodali o'qing.

2-amaliy ish. Matnni husnixat asosida mashq daftaringizga ko'chirib
yozing.

3-amaliy ish. Matndagi o'zlashgan qatlamga oid so'zlar lug'atini tuzing.

4-amaliy ish. O'zlashgan qatlamga oid so'zlarning matndagi ma'nosini
izohli lug'atlardan foydalanib tushuntiring.



ESKI O'ZBEK YOZUVIDA RAQAMLAR

Hozirda biz qo'llayotgan raqamlar arab raqamlari deb
yuritilsa ham, ular uzoq asrlik taraqqiyot mobaynida shaklan
o'zgarishlarga uchragan. Eski o'zbek tili yodgorliklarida sahifani
raqamlash-tartiblash ikki usulda namoyon bo'ladi: birinchisi – raqamlar, ikkinchisi
– poygir orqali. Yozma yodgorliklardagi raqamlarning ayrimlari masalan, nol, bir,
to'qqiz hozirda biz qo'llayotgan raqamlarga o'xshaydi⁷². Eski manbalarda
qo'llanilgan birdan o'ngacha bo'lgan raqamlarni keltiramiz:

۱ -1 ۲ -2 ۳ -3 ۴ -4 ۵ -5
۶ -6 ۷ -7 ۸ -8 ۹ -9 ۱۰ -10

Ko'ryapmizki bu o'nlik sistemasidagi nol, bir, to'qqiz raqamlari, ba'zi bir
farqli xususiyatlarni hisobga olmaganda, asosan o'xshashdir.

⁷² Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. -Toshkent: O'qituvchi, 1989. 135-bet.

Yozma yodgorliklarda sahifalarni raqam bilan berish kam uchraydi. Odatda, sahifalar yuqorida qayd qilganimizdek, poygir bilan beriladi. Ho'sh, **poygir** o'zi nima? Poygir so'zning lug'aviy ma'nosi qadam olmoq bo'lib, fors tilidagi **po** (oyoq) hamda **grifan** (olmoq) fe'lining hozirgi zamon negizi o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan. Poygir – kelgusi sahifadagi birinchi so'zni tugallanayotgan sahifa tagiga yozib qo'yishni anglatadi. Demak, poygir (ya'ni qayd qilingan so'z) sahifalarni chalkashtirib yubormasligimizning oldini oladi. Xullas, poygirga tayangan holda sahifalarni to'liq yoki to'liq emasligini bilib olamiz. Bundan anglashilyaptiki, poygir yozma yodgorliklarda raqamlar ifodalashi mumkin bo'lgan vazifani ham bajarib kelgan.

Yozuvda sonlar so'zlar va raqamlar bilan ifoda etilishi mumkin. Harflar bilan yozilgan sonlar o'ngdan chapga qarab yozib boriladi va o'qiladi. Masalan:

تینگری تعالیٰ نینگ عنایتی بیلان و حضرت آن سرور کائنات نینگ
شفاعتی بیلان و چهار پار با صفالاری نینگ همتی بیرلان سه شنبه کونی
رمضان آیینینگ بیئشیدا تاریخ ساکیز یوز توقسان توقوزدا فرغانه
ولایتی دا اون ایکی یاشتا پادشاه بولدوم (ظهرید الدین محمد بابور
"بابورنامه")

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni keltirish bilan ifoda qilinadi. Masalan:

1997 tarzidagi raqamlar xuddi shunday, ya'ni ۱۹۹۷ tarzida yoziladi. Hozirgi o'zbek tilida 2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlari tarkibidagi o'rtada kelgan undosh ikkilanadi: *ikki, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'ttiz, ellik* kabi. Eski o'zbek tilida esa yozuvda bir belgi bilan berilgan bo'lib, o'rniga qarab, ikki xil talaffuz qilingan: *iki//ikki, yeti//yetti, sekiz//sekkiz, to'quz//to'qquz, o'tuz//o'ttuz, elik//ellik* kabi.

80-90 sonlari *sekiz, to'quz* sonlariga *on* (o'n) sonining qo'shilishi yo'li bilan hosil bo'lib, (*sekiz+on, to'quz+on*), *seksen, toqsan* shakllari keyingi davrlarda vujudga kelgan. *Sekiz on, to'quz on* shakllari «Devonu lug'otit turk»da ham qo'llangan (Qarang: MK, I tom, 410-b.).

Eski o'zbek tilida sanoq sonlarning kattalari *tuman* (تومان - 10 000), *lak* (۱۰۰ ۰۰۰ - لک) bo'lib oldida kichik miqdordagi sonlar qo'llangan. *Tuman* so'zi qadimgi barcha yozma yodgorliklar tilida qo'llangan. Qadimgi turkiy tilda: *bir tuman su kelti* (Kb), *Yaris yazida o'n tuman su terilti* (To 'n.). Eski o'zbek tilida: *Bir tuman xalq qirildi bari* (ShN, 37). *Yuz tuman barqi balo urdung manga* (Nav. LT, 83). Hindcha *lak* soni «Boburnoma» asari tiliga xos: *Yuz mingni lak derlar* (BN). *Uch to'rt lak olub qo'yarlar* (BN, 332). *Bir lak afg'on yig'ilibdud* (BN,

468). *lak* soni XVI—XIX asrlarga oid yozma manbalarda ham qo'llangan *mīḥ lāk somnī* (Muqimiy). Shuningdek, «Boburnoma»da hindcha *kərur* — (*o'n million*), *arb* (bir milliard), *ko'rb* (yuz milliard), *nayl* (*o'n trillion*), *padam* (milli-trillion), *sang* (eng yuqori sanoq son) sanoq sonlari qo'llangan.

Eski o'zbek tilida murakkab sanoq son komponentlari orasida *dag'i/taqi* bog'lovchi bo'lishi hollari ham uchraydi. Masalan, *yigirmi dag'i bir* (ShN, 223). *Yilg'a ming sakkiz yuz-u, to'qson edi* (Furqat, 2, 26)⁸

1 dan 10 gacha bo'lgan sonlar			11 dan 20 gacha bo'lgan sonlar		
۱	بیر	Bir	۱۱	اون بیر	o'n bir
۲	ایککی	Ikki	۱۲	اون ایککی	o'n ikki
۳	۱۳	Uch	۱۳	اون ۱۳	o'n uch
۴	تۆرت	to'rt	۱۴	اون تۆرت	o'n to'rt
۵	بеш	Besh	۱۵	اون بەش	o'n besh
۶	olti	Olti	۱۶	اون ulti	o'n olti
۷	يەتتى	Yetti	۱۷	اون يەتتى	o'n yetti
۸	ساککیز	sakkiz	۱۸	اون ساککیز	o'n sakkiz
۹	توققیز	to'qqiz	۱۹	اون توققیز	o'n to'qqiz
۱۰	اون	o'n	۲۰	يیگیرما	yigirma
O'nliklar			Yuzliklar		
۱۰	اون	o'n	۱۰۰	يوز	yuz
۲۰	يیگیرما	yigirma	۲۰۰	ایککی يوز	ikki yuz
۳۰	اونتیز	o'ttiz	۳۰۰	۱۳ يوز	uch yuz
۴۰	قیرق	Qirq	۴۰۰	تۆرت يوز	to'rt yuz
۵۰	ایللیک	Ellik	۵۰۰	بەش يوز	besh yuz
۶۰	oltmish	oltmish	۶۰۰	alti yuz	olti yuz
۷۰	yetmish	yetmish	۷۰۰	yetti yuz	yetti yuz
۸۰	sakson	sakson	۸۰۰	sakkiz yuz	sakkiz yuz
۹۰	to'qson	to'qson	۹۰۰	to'qqiz yuz	to'qqiz yuz
۱۰۰	يوز	Yuz	۱۰۰۰	مینگ	ming

⁸ S.Ashirboyev., I.Azimov., M.Rahmatov., A.G'oziyev. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: Ijod nashriyoti, 2006. 75-bet.



AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq. Quyidagi raqamlarni hozirgi shakliga aylantirib

yozing: ۵۰ ۴۰ ۱۷ ۲۰ ۱۴ ۱۶ ۹۰۰ ۱۰ ۴۴ ۱۸ ۸۰

۶۰۰

2-topshiriq. Mazkur raqamlarni eskicha shakliga keltirib yozing:

1, 5, 8, 9, 10, 15, 18, 20, 24, 25, 27, 31, 33, 36, 84, 93, 99.

3-topshiriq. Namunaga muvofiq murakkab sonlarga 10 ta misol yozing.

Namuna: ۱۴۴۱ - بیرمینگ تورت یوز قیرق بیر (1441)

1-amaliy ish. Matnni o'qing va undagi raqamlarning imlosini tushuntiring.

دابوسی قلعه سی تاریخیدان

دابوسی قلعه سی قدیمگی میان قال واحه سینینگ مرکزی بولیب
 حاضرگی سمرقند ولایتی پختاچی تومانی حدودیدا زرفشان دریاسی
 بوییدا جایلاشگان دابوس سوزی مستحکم قورغان دیگان معناتی
 بیلدیرادی قورغان تیمیردای مستحکم قیایب قوریلگانلیگی اوچون هم
 او تیمیر قورغان نامی بیلان یوریتیلگان ۱۹ عصردا یاشاگان بیریک
 تاریخچی و گیارگف عالم الیاقوبی دابوس قلعه سی نی دشمن تیغی
 اوتمایدیگان مستحکم و مشهور بیر شهر دیب تعریفلادی نرشی
 نینگ (نارشاخی) بخارا تاریخی اثریدا پادشاه تورادیگان کتتا
 قیشلاق بایکند (بایکند) ایدی قلعه دابوسی یعنی دابوسی قلعه سی
 بولیب شهر دیب شونی ایتار ایدیلار دیب یازادی ۷-۹ عصرلارگا
 دائر بعضی بیر تاریخی منبعه لاردا یازیلیشچا دابوسی سوغدیانه
 نینگ کتتا شهرلاریدان بیر بولیب عربلار استلاسی دوریدا اوندان
 ۱۰ مینگ قوشین جایلاشتیریلگان اورتا اثر تاریخی لاری ایستارخی و
 مقدسی لارنینگ یازیشلاریچا ۱۰ عصردا دابوسی قلعه سیدا رباد
 یعنی شهر اطرافیداگی بینا لار ۷۰ گیکترنی شهر قلعه سی ایسا
 ۲۲ گیکترنی اشغال قیلگان دابوس قلعه سی اطرافی بلند و مستحکم

دیوارلار بیلان اورالگان دابوس قلعه سی ۲۳۲۵ ییل ایلکاری بنیاد
ایتلگان دیب تخمین قیلینادی دابوس قلعه سی جودا قدیمی شهر
قلعه بولیشیگا قاراماسدان علمی ادبیات صحیفه لاریدا ۷ ۹
عصرلادان باشلاب تیلگا الینادی اوشا دور تاریخچی لارینینگ
یازیشیجا دابوس ۲ عصردا بخارا و سمرقند اورتاسیدانگی اینگ
مستحکم قلعه لاردان بیری بولگان قلعه اطرافی کنتا جارلیک لار
بیلان اورالگان و بو بیردان هیچ کیم اوتا آلمانگان ۱۵ عصر
تاریخچی سی حافظ ابرو دابوس قلعه سی نی سلطان جلال الدین
قوردیرگان دیگان فکرنی ایتادی شیبانی نامه تاریخی داستانیدا
دابوس قلعه سی ایچیدا مینگلاب اوپلار بولگانلیگی و اولار جودا
مستحکم ایکانلیگی یازیلگان بویوک ایپاک یولیدا جایلاشگان دابوسی
قلعه سی ۹-۱۱ عصرلاردا تیز ریواجلانگان و بو بیردان اولوغ
کیشیلار عالم و ایجاد کارلار بیتیشیب چیققان دابوسیه شهری ییتی
اقلم دولت لاری بیلان باغلانیب تورگان سودا کروانلاری سمرقند
ایشتخان کرمنه دابوسیه شهرلاریدان اوتیب بخاراگا و باشقا جایلارگا
کینگانلار دابوسیه لیک هنرمندلار تییارلاگان عالی نوع نفیس گزمال
لار کلاچیلیک متل و شیشه بویوملار و تورلی زیب زینتلار
بویوک ایپاک یولی ارقالی دنیانینگ غرب و شرق مملکتلاریگا
تارقالگان دابوسیه دا آلتین کوموش و مس تنگا لار ضرب ایتلگان
قلعه ایچیدا ایککیتا حاووز قورال - یارق و آزیق - آوقت
آنبارلاری اوتخانه لاری کلاچیلیک حومدانلاری بولگان شهرنینگ
تورت دروازاسیدان بیتتاسی زرفشان دریاسی تامانیگا قاراگان
عمارتلارگا ایشلاتیلگان مرمر تاشلار قبر تاشلاری اولاردانگی
چیرایی یازوولار آلدیندان بو بیردا سنگ تراشلیک (تاشگا ایشلاو
بیریشلیک تاش یونیش) خطاطلیک ریواج تاپگانینی کورساتادی
حاضر دابوسیه شهری حرابه لاریدان بیزگاچا اوشا دوردان قالگان
امام بهره آتا مقبره سی ساقلانیب قالگان

UYGA VAZIFA



1-topshiriq. Eski o'zbek yozuvida raqamlarning ifodalanishini (birliklar, o'nliklar, yuzliklar) yozma tushuntiring.

2-topshiriq. Quydagi raqamlarni hozirgi shakliga aylantiring:

،۱۶۱۸ ،۶۸۳۰ ،۷۹۴۵ ، ۱۵۹۳ ،۲۲۱ ،۷۸۹ ،۲۶۵ ،۴۰۶ ، ۲۳
..۹۱۶۸۹ ،۲۱۲۰۵ ،۱۹۰۴۳ ،۴۳۶۷۰ ،۶۷۰۲۳ ،۲۰۶۶ ،۶۲۴۵

3-topshiriq. Mazkur raqamlarni eskicha shakliga keltiring:

59, 74, 43, 21, 160, 345, 789, 246, 4075, 3263, 4789, 5672.



MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

اسملار

احمد ابرار اكبر اسد اصقر عباس
 على عيشير عبدالله باقى بيك گلبدن دولت خان
 يادگار بيك جعفر على جلال الدين جمشيد كمال الدين
 كامران ميرزا لطافت ايلي لذيبيك منصور مقصود
 مظفر ممتاز نيازبيك نظام الدين رجب باي رستم
 سعيد صالحه سلطان فيروزه قمبر قهرمان قابل
 ايركين يوسف يونس قمر الدين خرم خوشنود خورشيد
 شمس الدين شير على شيرزاد عابد ذاكر برهان دلشاد

ادبى تخلص لار

مولانا شرف الدين على يزدى مولانا انورى مولانا اتايى مولانا لطفى
 مولانا اسيرى اميرى عيني عزلت آصفى سكاكى مولانا عبد الرحمن
 جامى
 على شير نوايى سعدى نظامى خسرو دهله وى بابر مخمور مخزونه
 نادره
 عوض اوتار اوغلى خصلت اميرى فضلى گلخنى مقبمى فرات ذوقى آگهى
 نهاتى

شهر و ولایت ناملاری

دهلی قابل کاشغر کشمیر هرات بلخ بخارا سمرقند
مشهد ماورالنهر ترکستان استرآباد فرغانه شاش / تاشکند
خراسان

خوارزم مرغیلان نمنگان شهرسبز خوجند

ایکی آشنا

برکیش اوزی نینگ دوستی بیلان خرمایب
اولتوروب اوزی بیکان خرمالار نینگ دنگین
دوستی نینگ آلدینده قویوب انی اویالتورماکچس
بولوب مکر سیز خرمانی بخشش کورارایکانسیز که
آلدینگیز ده شونچه خرمانی دنگی یغیلیب دوریکانیده
دوستی جواب بیریب ایتوب دور که من اویلا یمن که
سیزانی مندین کو براق بخشش کورارایکانسیز
نه اوچونکه آلدینگیز ده نه خرماقالیدی نه خرمانی دنگی
بلکه همه سین دنگی برلایب دور کیز دیکانیده اول کیش اوزی
اویالایب دور مقال براوکا اورکا ولامه اوچک بیتقینورن

بی آداب

بر آدم خطا بیتوب اولتور کاند بر بیکانه کیش
 انیک آلدیده اولتور رب انیک خطیند قرادی
 اول آدم خطیند یازدیکه بر بیکانه احمق آلدیده
 اولتور رب خطیند قرادی شول سبیلی بیج
 سریم نی یازالما دیم دیب اول کیش من خطیند
 او قوغانیم یوق نیکامنی احمق دیب یازا سن
 دیکانیده اگر خطیم نی او قومکان بولسانک احمق
 دیب یازکانیم نی قیدین بیلد نیک دیب اولتور
 ای شاگردلار برا و خط یازکان حالده خطیند
 اصلا قرامانگلار قتیغ بی آدابلیک دور

قصه یوسف پیک احمد پیک

اما راویلا رانداغ روایت قیلورلا ریم اصفهان
شهرینده برپا د شاه بار ایردی آدمی غه
بوز اوغلان خان دیر ایر دیلار اما انیک ایکی
سر کرده سی بار ایردی برینه آغ پیک و
ینه برینه بابا بیک دیر ایر دیلار وینه بوز اوغلان
خان نینک ایکی قرینداش بار ایردی آغ
بیک بیلان بابا بیک ایکی لاریغه ایکی قرینداش
لاری فی بریب کیو قیلدیلا رایکی لایردین ایک
اوغول پیدا بولدی بابا بیک نینک اوغلان نینک

آدی یوسف بیک ایردی آنجه بیک نینک
 اوغلی نینک آدی احمد بیک ایردی بو ایکی
 لاری هم بوز اوغلان خان نینک جین لاری
 ایردی یوسف بیک اون سکیز یاشغیردی
 احمد بیک اون تور یاشغیردی اما
 اصفهان نینک بخش بیکیت لاری کیلیب
 یوسف بیک نینک آلدینده بزم صحبت قیلور
 ایردی یوسف بیک بیکیت لاری کاچولان
 بریب انعام احسان بریب آدا سرپای
 لازمی بریب وقت لاری فی فروشن قیلیب
 ایردی یوسف بوز اوغلان خان نینک بخش بیکیت

لاری قاپچیب یوسف بیک کا تو گیلو ایردی
 لاریوسف بیک نینک یغینی کون کون دین
 زیاده بولور ایردی بوز اوغلان خان نینک
 بر وزیر ی بار ایردی بر کون ایدی ای
 پادشاهیم یوسف بیلان احمد بیک نینک
 یانینن زیاده کوپتور و زور بولمای تیز
 علا جینی تیلینک یوق ایرسه سیز کا ضرر
 تکیب دشمن بولوب یقانکیز دین آلور
 تیدی بوز اوغلان خانغہ بوسوز معقول
 توشوب دیوانینن چاقیریب نامہ یاز و در
 آیدی ای دیوان عاقل غہ اِشارت

احمق غه كلتك ديب بويورت غه ايكي
 اوغلان لار نيك و خلى يوقتور و كيتسونلار
 ديب نامه غه مهرباسيب بر محرم غه بريپ
 يباردى يوسف بيك كا آيب باردى
 يوسف بيك آيب آيب او توديلار مضموني
 شول تورور ديب برسوزايدى
 بر شهرده ايكي سلطان نه ايشلار
 فطر تليك دارا اهي تومان بولالماس
 پرده ده تورالماس بر نيچه قوشلار
 قرغه قوزغون قوشلار سهار بولالماس
 نه دخلى بار مونده بولايكي اوغلان

اصفهان دین کیتسون ایملی شورنمان
 بزلار کا دشمن دور پلینک بیکمان
 تولکی شغال بولار ارسلان بولالماس
 اوغری کذاب بار ورنینک قاشیفه
 حالین پللیب توغری یورسون ایشغ
 کوپ سودا لار توشار انینک باشیفه
 هر آهندین تیغ بران بولالماس
 سلطنت لیک تخت آیوان منده دور
 حشت زرین کاخ کیوان منده دور
 اصفهانی تیغ بران منده دور
 کونفاکیرین ذات دوراب قفلان بولالماس

بوز اوغلان دیر یوسف بیک کا پیامین
 ایلچس دین ییاردیم دوغری کلایمین
 هونی کوریب توتسون یولنیشک انجایمین
 یوسف احمدیورت غه سلطان بولاماس
 دیب یوسف بیک بونامه نی اوتوغاچ بیکیت
 لارنیشک زکس بوزولوب دوشمن آیاق
 آستیزه ایرکان دوشمن بوز اوغلان خان
 ایرکان پزلار کا جواب بیرنیک نامه کیلتوکان
 ایلچس نی اولتوروب اوروشور منیر دیر ییاردیلار
 یوسف بیک بیکیت لار کا قرا ب قشلی بریب
 رائس نی قایتاروب بر ور ساقس ایدی

اتفاق

بر کشی نینگ یتى سکز نفر بالاسى بار ایدی بالا لاری نینگ آراسیده بولگان اتفاقسیزلیک اوروش تالاشلارنى کوروب همه لاری نی آلدیگه چاقردی اون دانه اینگچکه چوب نی برگه قوشوب باغلاب بونی سندورینگیز دیب بالالاریگه بیردی بالالاری نینگ هر برلاری قول لاری گه آلوب زور بیروب کوردیلار هیچ برلاری سندورالمادیلار آخرده سندورماقغه کوچیمیز یتمادی دیب قایتاروب بر دیلار آتالاری چوبنینگ باغلغینی چیچوب هر قیسی لاریگه بر دانه دن بیروب منه بونی سندوروب کورینگیز دیگانیده هر برلاری سویونوب آلوب اونغا یلیک ایله سندوردی لار صونگره اول کشی بالالاریگه باقوب اوغلانلاریم کوردینگیزی سز هم شول چوبلارگه اوخشیسز اگرده پارچه نگر اتفاق بولوب برگه قوشولوب تورسانگیز سزگه هیچکمنینگ کوچی یتمیدور اگرده بر برینگز ایله اوروشوب تالاشوب ایریلیشوب یورسانگیز سزگه هرکمنینگ کوچی یتتوب آیاغ آستی قیلادور دیدی

قناعت

بر ایت آغزیده نان تیشلاب کچکنه گنه کوپروک اوستیدن اوتوب کتمکده ایدی کوزیگه سو ایچیده اوزیگه اوخشاب نان تیشلاب تورگان بر ایت کوردی اول ایت نینگ آغزیده گی نانگه هوسی کیلوب آنی تارتوب آلمک آرزوسیده تیز تیز تیکلگانه سوده گی ایت هم بونگه کوزین الایتوروب قاراب قویار ایدی آخرده نفسی غلبه قیلوب آغزین آچوب ایریلاب سوگا اوزین تاشلادی سوگا توشگاچ بر شونغوب ینه سو یوزیگه چیققی قرسه نه ایت بار و نه نان سوده کورونگان ایت ایسه اوزینینگ عکسی ایکان صونگره سوزوب سوزوب زورغه چیتگه یتتوب اولار حالتده سود ن چیققی اوز نانی ن هم ایریلدی چونکه ایریلاب آغزین آچگانه نانی سوگا توشوب آقوب کیتگان ایدی حصه: اوز آغزیده گیگه قناعت قیلماسد ن

براونینگ، نرسه سیگا قول اوزاتگان کشی اوز نرسه سیدن هم ایریلور

نان قدری

بیر کونی نان ساتیب آلیش اوچون نان دکاتیگا باردیم مندان آلدین بر بالا
نان آلدی اوندان سونگ مینینگ نوبتیم کلدی و مین هم نان آلدیم اویگا
قایتایاتگانیمده میندان آلدین نان آلگان بالا آلدیمدا کیتایاتگان ایدی بالا آلگان
ناتیدان بیر توغرام آلیب بیب باراردی ناگاهان اونینگ ناتیدان بیر پرچه
بیرگا توشیب کیتدی مین ایسا نان پرچه سینی بیردان آلیب بیر چیتگا
قویدیم بونی کورگان بالا میندان عذر سورادی مین ایسا اونگا نان هم
اونینگ اوشاغی هم نان ایکانینی شو سبیلی ناننی یوروب بیماسلیک
کیراکلیگینی

توشونتیردیم

نادانلک

نر بالا قودوق باشیده نان بیب اولتوروب ایدی نانی قولیدن قودوقغه
توشوب کیتدی بالا بیغلاب آتاسی نینک آلدیکا باروب حالن بیان قیلدی
آتاسی دررو اورنیدن توروب بالاسن قولیدن اوشلاب قودوق باشیگا کلدی
ایکی قولن قودوق نینک ایکی یاغیگا قویوب باشین اینگاشتوروب قودوق
ایچیگا باقغانده سوده اوز عکسی نی کوروب نادانلکدن سوده کورونگان
کیشی اوزی ایکانن بيلمادی کمال اچغی ایله انگا باقوب ای شیطان بوندای
بالا نینگ قولیدن نانن تارتوب آلوب بیب تریکلک قیلگونچه آچلک یاش
دن

اولگانینگ یاذشی ایماسمو دیدی حصه: نادانلک کشی گه اوز اوزینی

حقارت

قیلدورور

بی آداب

بر آدم خط بیتوب اولتورگاندہ بر بیگاتہ کیشی انینک آلدیدہ اولتوروب
انینک خطیغہ قرادی اول آدم خطیغہ یازدیکہ بر بیکانہ احمق آلدیدہ
اوتوروب خطیغہ قرادی شول سبیلی هیچسریم نی یازالمادیم دیب اول
کیشی من خطینگنی اوغوغانیم یوق نیگا منی احمق دیب یازاسن دیکانیدہ
اگر خطیم نی اوقومکان بولسانک احمق دیب یازکانیمنی قیدین بیلدینک
دیب اویالتوروب دور ای شاگردلار براو خط یازکان حالده خطیغہ اصلا
قرامانکلار قتیغ بی آدابلیکدور

ایکی اشنا

بر کیشی اوزی نینگ دوستی بیلان خرما ییب اولتوروب اوزی بیکان
خرمالارنینک دنکین دوستی نینک آلدیغہ قویوب انی اویالتورماکچی
بولوب مگر سیز خرمانی بخشی کورار ایکانسیزکہ آلدینکیزده شونچه
خرمائی دنکی بیغزلیب دور دیکانیدہ دوستی جواب بیریب ایتوب دورکہ
من اولایمن کہ سیز انی مندین کوبراق بخشی کورر ایکان سیز نہ
اوچونکہ آلدینکیزده نہ خرما قالدی نہ خرمائی دنکی بلکه همه سینی دنکی
برله ییب دورسیز دیکانیدہ اول کیشی اویالیب دور مقال براوکا اور
کاولامہ

اوزینکییقیلورسن

عبدالله اولانی نینگ بیرینچی معلم کتایبدان

یامانلیق جزاسی

بیر کیشینینگ قاسم اسملی بیر اوغلی بار ایردی آتا و
آناسینینگ سوزیگا کیرماسدان هر خیل یامان ایشلارنی قیلور ایردی
بالالار بیرلا اوروشیب یاقالاشیب کیملارینی بیرتوب کیلور ایردی

اويدا آناسی مهمان اوچون اسراب قويگان طعاملارینی ييگان وقتدا
آناسی

- قاسم اوغليم طعامنی سين ييدينگمی ديسا مين ييگانيم
يوق موشوک ييگاندور دير ايردی بارا بارا آتاسينينگ پولینی
هم اوغيرلاب آلا دورغان بولدی

آتاسی بيليب اوغليم پولنی کيم آلدی ديسا انام
آلگاندور ديب آناسینی اوغری قيلور ايردی بير کونی آتاسی
اوستال اوستيگا بير تنگه پول قوييب اوزی اوخلاگان کيشی
بوليبیادی قاسم کيليب سيکين تانگه نی آلب آغزیگا سالدی شول
وقت آتاسی اوشلاب آماقچی بولگاندا تانگانی يوتيب يوباردی تانگه
باريب قاسم نينگ خلقوميغا تيقيليب جان بيردی

محترم کتابخوان کوردینگیز - می يامان نينگ يامانليگی
اوزينينگ باشیگا يیتدی

اتفاق

جواهرلار ايجيدا اينگ کيچيکلاری چوماليدور ليکن اوزلاری
کيچیک بولسالار هم نهائیدا غيرتلی اتفاق جانذاتلاردور اوزلاریچا
پادشاه لاری کاتتا لاری اسکرلاری بولادور اولوغلاری نيمانی
بويورسا شونی باجارورلار اتفاق و غيرتلاری ساپاسيندا
اوزلاريدان کاتتا - کاتتا دشمنلاردان قورقماسلار اگر اولار کبی
دشمن کيليب بيرلاریگا تيگسا همه - همه لاری بيردان ياپوشوب
بیری قولینی بیری اياغینی بیری قناتیمی قاتتیغ تیشلاب
اوزلاريندان نيچا برابر کاتتا بولسا هم تيزگينا قاجيرورلار

کوردینگیزی یونگ اوزی خوب مايدادور

بیرلاشیب ارقان بولسا فیل بایلانور

اتفاق قا کوچ - قوت کار ایلاماس

اتفاق قا جین هم آزار ایلاماس

قناعت

بیر کیشینینگ علی و ولی آتلیغ ایککی اوغلی بار ایردی علی
قناعتلیغ ولی قناعتسیر ایردی بیر کون آتاسی بازاردین آلمانا آلیب
کیلیب ایردی بالالارینی سینماق اوچون چاقیریب مانا سیزلارغا
آلمانا آلیب کیلیم دیدی ولی تیزلیک بیرلا کیلیب آتاجان مانگا
همه سینی بیرینگ دیدی

علی سیکینگنا کیلیب مانگا بیرگینا آلمانا بیرسانگیز بولادی
دیدی آتاسی علی نینگ قناعتگا آفرین ایتدی و قوچاغیغا آلدی
پیشاناسیدان اوپوب ایککی آلمانا بیردی اما ولی گا آلمانا بیرماک
قاید قناعتسیر بولما دیب ادب بیردی

قناعت بیرلا قارین تودورورسیر

قناعت بولماسا کوپ آچ قالورسیر

قناعتسیر کیشی بغرینی داغلار

قناعتلیک کیشی آغزینی یاغلار

زر قدرینی زرگر بیلور

بیر کون بیچاره خروس ایلاغلاری ایلا خشاک اراسینی
اختاریب تورغان زماندا بیر دانه مرورید تاپدی اول مروریدنی
چوقوب - چوقوب ناله قیلیب ایدیکه آه عقلسیر آدم بالالاری هیچ
نیمارساغا یارامایدیغان نیمارسالارنی قدرلی بیلید اینگ قدرلی
نیمارسالارنی قرین بیلماسلار حاضردا مان بونی تابغونچا بیر دانه
بوغداي تاپسام ایردی مانگا اوقات بولور ایردی و کوپ رنج
تارتدی

هر کیشی اوز نفسیغا بیر پول اوچون غوغا قیلور
 باشقاغا مینگ سوم ضرر کیلسا قاچان پروا قیلور
 هر کیم اوز قارنین اداسیدور اگر ایشاندور
 قوشدور انساندور اوزینینگ قارنیغا قورباندور

یاخشیلک پیردا قالماس

بیر اری سوو اوستیندا اوچوب بارور ایردی ناگاه سووگا
 بیقیلیب کیتتی قناتلاری حول بولوب اوچارغا کوچی بیتمادی اولار
 حالتیغا بیتمدی بونی بیر کبوتر کوروب اریغا رحمی کیلوب درحال
 بیر چوبنی تیشلاب سووغا تاشلادی چاره سیز قالغان اری چوبنی
 آیاقلاری بیرلا اوشلاب کیما قیلیب سوو بلاسیدین قوتولدی آرادین
 کوپ وقت اوتمادی بیر بالا توزاق قوییب کبوترنی توتماقچی بولدی
 اری بونی کورغان زمان اوچوب کیلوب بالانینگ قولاغینی چاقدی
 بالا قولاغینینگ آغریغیدین توزاقنی تاشلاب قولاغینی چانگاللادی
 کبوتر وقتنی غنیمت بیلیب اوچوب کیتیپ اولومدین قوتولدی

یاخشیلک قیلساتگ بولور جانینگ امان

یاخشیلکیدین هیچ کیشی قیلماس زیان

یاخشى سوز بیرلا ایلان اینیدین چیقور

سوز یامان بولسا پیچاق قینیدین چیقور

توغریلیغ

بیر کمپیرنینگ اوپیدا بیر توپ بلخ توتی بار ایردی نهایتدا
 توغری اوسغان ایردی بیچاره کمپیرنینگ شو توتدین باشقا هیچ
 نیمرساسی یوق ایردی پیشگان وقتدا قوروتوب قافغا سالوب
 بایلارغا تارتوق قیلوب پول آلیب شو ارقالی وقتینی اوتکارور

ایردی بیر کون اول شهرنینگ پادشاهی بیر ایوان سالماقچی بولوب
 اوستون اختارگاندا کمپرنینگ توتی آلدیدا توختادی و اوزیچا شول
 توت یاغچی توغری کیلسا کیراک دیب اویلادی و انی کمپردین
 مینگ آلتونغا ساتیب آلدی بیچاره کمپیر بای خاتون بولوب قالدی
 بیر کون کمپیر توتی کورماق اوچون کیلدی کوردیکه توتی جنت
 کبی بیر ایوان اورتاسیندا توریدور کمپیر توتیغا قاراب دیدی که

ای توتوم توغریلینینگ قیلدی بیزی دولغا یار

ایگری بولسانگ سان اوتون بولغای ایردینگ مان خار-زار

توغریلار جنتنینگ ایوانیداور

اوغریلار رنج و علم کونیداور

حکایت

کونلارنینگ بیریدا سلطان حسین بایقارا شکارگا چیقیشنی اختیار
 ایتدی اونگا علیشیر نوانی حضرتلاری همراه بولدی شکاردان قایتار
 ایکانلار بیر قیشلاقدان اوتدیلار کوچه چیتیدا تورگان آلتی بیتتی
 یاشلارداگی بالا سلام بیردی سلطان حسین قولینی کوکسیگا قویب علیک
 آلدی و اوتیب کیتا بیردی علیشیر نوانی ایسا باله تی کوریب آتینی
 توختادی پاستگا توشوب بالا بیلان قوش قولاب کوریشدی اوندان
 سونگ آتگا مینیب یولگا توشدی نوانی نینگ بو ایشی سلطان حسین
 بایقارانی حیران فالیدردی او نوانی گا یوزلانیب سیز سولطان نینگ
 وزیر ی بولسانگیز بونینگ اوستیگا جهانگا تانیقلی شاعر بولسانگیز نیمه
 اوچون گودک بیر بالاگا شونچه لار مروت کورساتادورسیز عالم پناه
 دیدی نوانی گپ بالادا ایماس گپ شوندا که بیر وقتلار شو بالانینگ

آتاسی مینینگ سوادیمنی چیقارگان ایردی مین استاذیمینگ بیتتی پوشتی
آلدیدا همیشه قرضدار دورمان

طلب علم

علم قیدیرینگیز توغولگاندین اولگونچا دیگان سوز همه آدملارغا
برابر بویروق بولسا هم اوقوماقنی بیر یاخشی وقتی بارکه اول یاشلیک و
بالالیک وقتیدور یاشلیکدا اورگانگان علم تاشقا اوبولغان بیتیکدیک اصلا
خیالین کیتمایدور ای شاگردلار امکانی باریچه یاش وقتلارینگیزدا
اوقوماقغا سعی قیلینگلارکه آلتین عمر بیکارگا صرف بولماسون

یاخشی صفت

آدمزادنینگ عیبی کوپمی آدمزاتنینگ عیب و نقصانی شوندای
کوپکه ساناب تمام قیلیب بولمایدور اول عیبلاردین نیمه قیلسا خلاص
بولور اندین قونولماق اوچون بیر صفت بارکه انینگ اوزیغا لازم کورسا
اول عیبلاردین قوتولسا بولور اول صفت قیسیدور اول ملالیک و تیلنی
ساقلاماقلیکدورکه ملالیک شریف صفت اولوب تیلنی ساقلاماق
سلامتلیککا سببدور

حکایت

بیر آدم بیر کیشیدان بیر کوچیک خط یازوب بیرینگ دیب التماس
قیلیدی اول کیشی آیاغیم آغرییدور یازالمایمان دیب جواب بیرادی اول آدم
دیدیکیم مان سیزنی بیر جایغا بارینگ دیمادیمکه مونداغ عذر ایتاسیز اول
کیشی ابتد سوزینگیز راست لیکن مین قاچانکه بیر اوگا خط یازسام انی
اوقوب بیرماغیم اوچون اوزومنی چاقیرادور معلوم بولادورکه انینگ
خطین اوزیدین باشقا آدم اوقویالماس هرکیم خوش خط بولماغی اوچون
الاحیدا سعی قیلماغی لازم دور

حکایت

بیر پادشاهنینگ وزیر عملدین آلیندی و سرایدین قوویلدی اول وزیر درویشلار نوره سیگا قوشولدی درویشلار صحبتینینگ فیض و برکتی اونگا تاثیر ابدی قلبیدا حضور پیدا بولدی خاطری جمع بولدی پادشاه انگا داغی الطفاتلار کورساتیب اولغی عملینی قایتاریب بیریشگا جزم قیلدی لیکن وزیر بو تکلیفنی قبول ایتمادی خدمتدان کورا استعفادا یورگان یاخشیراقدور دیب جواب بیردی پادشاه دیدی دولتی اداره قیلماق اوچون بیزگا تدبیرلی دانشمند وزیر لازمدور وزیر دیدی شونداغ ایش بیلان شوغولانیسگا راضیلیک بیلدیرماسلیکنینگ اوزی دانشمندلیک علامتیدور پادشاه سوز تاپالمای اوز قیلمیشیدان پشیمان بولدی

نادانلیک

بیر بالا قودوق باشیدا نان ییب اوتوروب ایردی نانی قولیدان قودوقغا توشوب کیتتی بالا ییغلاب آتاهینینگ آلدیغا باروب حالین بیان قیلدی آتاسی درراو اورنیدان توروب بالاسین قولیدین اوشلاب قودوق باشیغا کیلدی ایککی قولین قودوقنینگ ایککی یاغیغا قویوب باشین اینگاشتوروب قودوق ایچیگا باقغانیدا سوودا اوز عکسینی کوروب نادانلیدان سوودا کورینگان کیشی اوزی ایکانین بیلمادی کمال اچچیغی ایلا انگا باقوب ای شیطان بوندای یاش بالانینگ قولیدین نانین تارتوب آلوب ییب تیریکلیک قیلگونه آچلیکدین اولگانینگ یاخشی ایماسمو دیدی حصه نادانلیک کیشیگا اوز اوزینی حقارت قیلدیرور

اتفاق

بیر کیشینینگ یتتی - ساکیز نفر بالاسی بار ایردی بالالارینینگ آراسیدا بولگان اتفاقسیزلیک اوروش - تالاشلارنی کوروب همه لارینی آلدیگا چاقیردی اون دانا اینگیچکا چوینی بیرگا قوشوب باغلاب بونی سیندورینگیز دیب بالالاریگا بیردیبالارینینگ هر بیرلاری قوللاریگا آلوب زور بیروب کوردیلار هیچ بیرلاری سیندیرا آلمادیلار آخردا

سیندور ماڦا ڪوچيميز ٻيٽمادی ديب ڦايتاريب بيرديلار آتالاری چوبننگ
 باغینی بیچیب هر ڦايسيلاريگا بير دانه دان بيروب مانه بونی سينديروب
 ڪورينگيز ديگانيدا هر بيرلاری سويونوب آلوب اونغايليك ايل
 سيندوردیلار سونگرا اول کيشی بالالاريگا باقوب اوغلانلاريم
 ڪوردینگيزمی سيز هم شول چوبلارگا اوخشايسيز اگر بارچه نگيز اتفاق
 بولوب بيرگا قوشولوب تورسانگيز سيزگا هيچ کيميننگ کوچی ٻيٽمايدور
 اگر بير - بيرينگيز ايل اوروشيب تالاشوب ايريلاشوب يورسانگيز
 سيزگا هر کيميننگ کوچی ٻيٽوب آياغ آستی ڦيلادوریدی

حکایت

بير ايت آغزیدا نان تيشلاب کيچکيناگينا ڪوپروک اوستيدین اوتوب
 کيٽماکدا ایدی ڪوزيگا سوو اچیدا اوزيگا اوخشاب نان تيشلاب تورگان بير
 ايت ڪوردیاول ايتنينگ آغزیدای نانگا هوسی ڪيلوب آنی تارتوب آلماک
 آرزوسيدا تيز - تيز نيکيلگانيدا سووداگی ايت هم بونگا ڪوزين آلايتورب
 قاراب قویار ايردی آخردا نفسی غلبه ڦيلوب آغزين آچوب ايريلاب
 سووگا اوزين تاشلادی سووگا توشگاچ بير شونغبوب ڀنه سوو يوزيگا
 چيقدیقاراسا نه ايت بار نه نان سوودا ڪورينگان ايت ايسا اوزينينگ
 عکسی ايکان سونگرا سوزوب سوزوب زورغا چيٽگا ٻيٽوب اولار
 حالتدا سووين چيقدی اوز نانيدین هم ايریلدی چونکه ايريلاب آغزين
 آچاندا نانی سووگا توشوب آقيب کيتگان ايديحصه اوز آغزیدايگا
 قناعت ڦيلماسدان بيراونينگ نرسه سيگا قول اوزاتگان کيشی اوز نرسه
 سيدان هم ايريلور

حکایت

بير خسيس ڪمبير بار ایدی اونينگ اوزگا شهردا اوقبيديگان
 عالم اوغلی بار ایدی او بير کونی آناسینی ڪوريش اوچون اوييگا
 کيلدی شوندا آناسی سيوينب

اوغلیم یاخشی کیلدینگ سینگا عجائب نارسالار حاضرلاب
قویکانمان سیمیزگینا غاز گوشتی بار شیرین یاغلی قویماغیم بار
پانا قویوق قایماغیم هم بار کونکلینگ اولاردان قایسی بیرینی
خواهلاس اوشانی اول بیرمان قالگانینی ایسا کییینراق بیسان دیدی
اوغلی اونگا

آناجان مین غاز گشتینی قویماققا اوراب اوندان سونگ
قایماققا باتیریب بییشگا عادتلانگنمان - دیب جواب بیردی لقمان
حکیم اوغلیگا نصیحت قیلپ شوندای دیدی ایی

اوغلیم قارنینگ توپسا هم پانا اوستیگا زورلاب بیما
توق قارنینگ زورلاب بیگانان گورا آقانتی اینگا توکیب بیرگان
ئوابلیراقدیر چونکه کوپ بییشدان دل کوزی بیکیلادی قلبنی ایسا
قارا زنگ باسادی هر خیل کسللیکلاری پیدا بولادی

(حکیم قیوم ناصری دان)

قناعت

اولوغ کیشیلارنینگ یاقیملی خصلاتلاریدان بیر قناعتدیر
قناعتلی کیشی هیچ قاچان خوار بولمایدی عکسینچه کیشیدا قناعت
بولماسا تاپگان توتگانینگا صبر قیلمای کوپینگا اینتیلسا عاقبت
خوارلیک عذابینی تارتادی شونینگ اوچون هم ایتادیلار

بولسا اگر سو پرچه قاتگان نان

اوزگا کاسه سیگا کوز تیکما انسان

بولسانگ अगर تاج تخت اوچون محتاج

زمیننی تخت دیب بیل و قویاشنی تاخ

قناعتتینگ پانا بیر ثمره سی ایچیش و بییشدا بیلینادی آرگینا
آقاتگا قناعت قیلپ، یورگان کیشی کم کسل بولادی نظم

کوپ بیما گوردگی قورتلار مثالی
 بیر طبیب بیر کونی بیر عجیب حکمت
 از بیرگا بیل باغلا گویا چومالی
 ایل اوچون اینگانیس قیایب مرحمت
 بیگین ایچگین دایم کونگیل تارتگونچا
 نه فقط بوغزینگدان تاشیب آرتگونچا

حکایت

بیر حکیم اوگا چیقان ایدی آشپزیگا اوقت تیارلاشنی بویریپ
 اوزی یاقینلاری بیلان اوگا مشغول بولدی اوزاق یوریپ قارنی
 آجدی اوقاتلانیس اوچون چادرگا قایتدی آشپز اونینگ آلدیگا
 پیشیرگان پلاونی کیلتیریپ قویدی حکیم پلاوگا قول اوزاتیپ بیر
 آشام آلمان ایدی ایچیدان پشه چقیدی او قاتتیق آچیققانیگا قارامای
 پلاونی بیر چیککاگا سوردی و آشپزنی چاقیریپ دیدی

پلاونی یاخشی تیارلابسان بیراق بوندان کیین پلاو تیارلاگاننگدا
 پشه کمراق بولسین

سونگ اونان ییبیش بیلان قناعت قیلدی اگر حکیمدا قناعت
 گوهری بولماگاندا آشپزنی جزالان بولور ایدی بیت

قناعت هر کیمنینگ بولسا یولداسی
 غم بیلان ایگیلماس هیچ اونینگ باشی
 (اخلاق ناصری کتابیدان)

انسان بولیش قانچا لار مشکل

بیر آتا رنجیگان حالدا اوغلیگا دیدی سین آدم بولمایسان جان بالم
سینی تربیه قیلش اوچون صرف قیلگان بی ثمر عمریمگا اچینامان
اوغیل بو گاپلارگا اعتبار هم بیرمادی

آرادان بیر قانچا بیللار اوتگاچ اوغیل مملکت شهرلارینینگ بیررگا
حاکم بولدی کونلارینینگ بیریدا او اوزینینگ ملازملاریگا آتاسینی
اونینگ حضوریگا کیلتیریشلارینی بویوردی ملازملار زودلیک
بیان اونینگ آتاسینی آلیب کیلدیلار اوغیل آتاسیگا باشندان آیاق
تکبرانه نظر تاشلادی و دیدی ای قاریه یادینгда بارمی بیر
وقتلار مینگا سین آدم بولمایسان دیگان ایدینگ مینینگ حاضیرگی
حالتیمنی کور قاریه کولدی و باشینی سرک سرک قیلیب دیدی من
سینگا حاکم بولمایسان دیماگان ایدیم مین سینگا آدم بولمایسان دیگان
ایدیم جان بالام

آنا رضاسی

بایزید بسطامی دیدی مین حیاتیم دوامیدا کوپ عملار قیلیب
شونی انگلادیمکه اولارنینگ ایچیدا اینگ اولوغی و یگانه سی
آنالار رضالیگی اوچون قیلینادیگان ایشلار دیر بیر کونی آنام کیچاسی
اویقودان اویغانیب میندان سوو کیلتیریشیمنی سورادیلار کوزه دا سوو
یوق ایدی شو سببلی کوزه نی آلیب انهارگا باردیم و سوو کیلتیردیم
اویگا قایتیب کیلسام آنام اوخلاب قالگان ایکان مین تانگگاچا کوزه
نی اوشلاگان حالدا آنامنینگ یانلاریدا توردیم و اولارنی
اویغانیشلارینی کوتدیم آنام تورگاچ سوو ایچدیلار و مینینگ
حقیمگا اوزاق دعا قیلدیلار شوندان سونگ میندان سورادیلار بالام
نیگا کوزه نی بیرگا قویمای اوشلاب تورپسان مین آنامگا ایتدیم
که آناچان مین سیزنی اوغانیب قالیشینگیزدان قورقدیم

بیغمبریمیز محمد علیه السلام بویرادیلار آتا و اناگا آزار
 بیریش آدملارگا ظلم قیلش و یاخشیلایک اورنیگا یامانلیک
 قیلشدیک اوچ گناه عمل لار بارکه بو ایشلارنی قیلگان
 کیسیلارنینگ یاخشی ایشلاری آخرت اوچون بیشر بولادی شونینگ
 اوچون آتا آنانگیز هر قانچا یاخشی یاکه یامان بولماسین
 اولارنینگ احترامینی جایگا قویماق لازمدور اولارنی رنجیتماق
 گناه لار ایچیدا اینگ اولوغیدیر

دانشمندیگ جوابی

بیر یاش بیگیت مشهور فرنسوز یازووجیسی الیکسندر
 زیگفریددان سورادی حیادا کاتتا موفقیتلارگا ایریشیش اوچون
 قانداق یولنی تانلاماق کیراک دانشمند دیدی توشینگنی تعبیر ایتماق
 اوچون اویغاق بولیشینگ لازم یعنی آگاه حالدا حیات کیچیرماق
 کیراک بیرار اولوگا چیقایاتگاندا او چیرایی بولیشی شرط ایماس
 بلکه مهمی شونداکه انسان نینگ توشادیگان بیکتی یعنی حیاتی
 دوامیدا قیلگان عمل لاری گوزل بولماغی کیراک

تنبل شاگرد

کونلارنینگ بیریدا استاذ شاگردیگا ایتدی تاشقاریگا چیقوب
 گورچی یامغیر یاغایبتیمی یاکه یوق شاگرد جواب بیردی بو
 موشوک حاضرگینه تاشقاریدان کیلدی اونی اوشلاب کورینگ اگر
 نم بولسا یامغیر یاغایبتی اگر قوروق بولسا یاغمایبتی بیر آزدان
 سونگ استاذ شاگردیگا دیدی باریب قوشنی دکاندان اولچاو
 اسبابینی آلیب کیل متالارنی اولچاماقچیمان تنبل شاگرد جواب بیردی
 بو موشوکنینگ دمی یاریم متر سیز اوندان متر اورنیدا
 فایدالانیش، پینگیز ممکن بیر ساعتلردان سونگ استاذ شاگردیگا ایتدی
 اوچ کیللی تاشنی آلیب کیل نارسالارنی اولچاماقچیمان تنبل شاگرد

ایتدی بو موشوکنی یوز بار اولچاگانمان اوچ کیلادان قیلچا هم
آغیر ایماس استاذ شاگردینینگ تنبل لیگی و حاضر جوابلیکیدان
عصبیلاشیب اونگا ایتدی چانقادیم بیر کاسا سوو کیلتیر

تنبل شاگرد جواب بیردی ایتگان اوچ ایشینگیزی مین باجاردیم
هیچ بولماسا شو ایشنی اوزینگیز بادجارینگ

حکایت

بیر پادشاه بیر دانشمندنی حضورینگا چارلاب اونگا دیدی مین
سینی شو شهرنینگ قاضی سی ایتیب تعینلاماقچیمان دانشمند دیدی
مین بو منصبگا لایق ایماسمان پادشاه سورادی نیما اوچون
دانشمند جواب بیردی قاضی لیک اولوغ و آغیر یوموشدیر چونکه
حکم قیلش جریانیدا یول قوییلکان اینگ کیچیک خطا هم انسان
عمرینی ایزدان چیقاریشی یاکه اونی حلاکت بیاقاسیگا آلیب کیلیشی
ممکن

حکایت

بیر شاعر بیر بحیل بای نینگ آلدیگا باردی و اونی مدح قیلدی
او کیشی خوشحال بولدی و دیدی ایرتاگا کیل پول بیرامان شاعر
ایرتاسی کونی اونینگ آلدیگا کیلدی او کیشی شاعران سورادی
نیما اوچون کیلدینگ شاعر ایتدی کیچا مینگا پول بیرامان دیب
وعده بیرگان ایدینگیز شونینگ اوچون کیلیم او کیشی ایتدی
عجائب آدم ایکانسان سین یاخشی سوزلارینگ بیلان مینی
خوشحال قیلدینگ اورنیدا مین هم سینی خوشحال ایتدیم شوندیک
ایکان مین سینگا نیما اوچون پول بیریشیم کیراک

دځکاپت

کونلاردان بیر کون بیر شاعر بحیل بای نی مدح قیلدی لیکن
او شاعرگا هیچ نرسا بیرمادی شوندان سونگ شاعر اونی هجو
قیلدی او کیشی ایسا شاعرگا هیچ نیما دیمادی باشقا کونی شاعر
اوشا آدمزینگ اوییگا کیلدی بای اونگا دیدی ای شاعر مدح
قیلدینگ سینگا هیچ نرسا بیرمادیم هجو قیلدینگ سینگا هیچ نارسا
دیمادیم حاضر نیما اوچون مینینگ آلدیمگا کیلدینگ شاعر ایتدی
حاضر ایسا سینی اولیشینگنی و مین مرثیه نگنی ایتیشنی خواهلایمان

فداکار دهقان

کوزینگ ساووق کونلاریدان بیر قویاش باتیش محلی ایدی
قویاش آذربایجان قیشلاقلاری اطرافیداگی قارلی تاغلار آرتیگا
باتایاتگان ایدی دهقانلارینگ ایش کونلاری پایانیگا بیتگان ایدی
ریزعلی هم قوی ایشدان بوشاگاچ اوزینگ قیشلاغیگا قایتاردی
اوشا قرانغو و ساووق کچادا کیچیک فانوسینگ تیرانایاتگان
نورلاری اونینگ یوللارینی یاریتاردی ریزعلی یاشایدیگان قیشلاق
تیمیر یول یاقینیدا جایلاشگان ایدی ریزعلی هر کونی ایشدان
سونگ تیمیر یول یاقالاب اوییگا قایتاردی بیر کونی ناگهان تاغدان
قورقینچلی گومبیرلاگان آواز ایشیتیدی گومبیرلاش نتیجه سیدا تاغدان
توشگان تاش اویوملاری تیمیر یولنی توسیپ قویدی

ریزعلی بیر ازدان سونگ یولاوچی تاشووجی پاییزد بو بیرگا
بیتیب کیلیشینی بیلاردی او اوزیچا اگر پاییزد اوشبو تاش
اویوملاری بیلان توقناشسا حلاکت یوز بیریشی ممکن دیب اویلادی
اوشبو اویلاردان قاتتیغ ایضطرابگا توشدی و قاندای قلیب پاییزد
حاید اوچیسینی آلدینداگی خطردان آگاه ایتیشنی بیلماسدی شو وقت

تاغ آرتیدان کیلگان پاییزد گوداگینینگ آوازی اونینگ یاقینلاشیب
 قالگانلیکیدان خبر بیراردی ریزعلی پاییزدنی تماشا قیلگانی بارگان
 کونلارینی ایسگا آلدی شو بیلان بیر قاتاردا پاییزد ایچیدای
 یولاوچیلار اونگا قاراتا تبسم بیلان قول «یلتاگانلارینی حیالیدان
 اوتکازدی آلدیندای خطرنی حیالیگا کیتیرارکان یورای تیز اورا
 باشلادی او شولارنی اویلارکان یولاوچیلارنی جانینی ساقلاپ قالیش
 مقصدیدا چاره ایزلای باشلادی ناگهان بیر چاره تاپگاندای بولدی
 او تیزلیک بیلان اوستیدای کیمیلارینی بیچیب بیر تیاققا باغلادی و
 مشعله یاسادی مشعله گا فانوس ماییدان توكدی و اونی یاقدی
 ریزعلی مشعله نی کوتاریب پاییزد کیلیاتگان تامانگا چاپا باشلادی
 پاییزد حایداوچیی مشعله نی کورگاچ آلدیندا قاندایدیر خطر
 بارلیگینی توشوندی تارمازنی بادی پاییزد قاتتیغ «یلکینیشدان
 سونگ توختادی حایداوچی و یولاوچیلار سراسیمه دا پاییزددان
 توشدیلار یالانغاچ ریزعلی مشعله همدا تاغدان توشگان تاش
 اویوملارینی کورگان آدملا نیما بولگانی و ریزعلینینگ فداکارلیگی
 نتیجه سیدا عمرلاری امان قالگانلیگینی توشوندیلار ریزعلی شو کیچا
 اوشا لحظه داگی شادلیگینی هیچ قاچان یادیدان چیقارمایدی ریزعلی
 اوشا کیچا شادلیکیدان اویقوسی کیلماس و یولاوچیلارنینگ حیاتی
 ساقلاپ قالگانی اوچون خداگا شکر قیلاردی

همه بیرگالیکدا

بیر توده کبوترلار ماوی آسماندا پرواز قیلاردیلار و آزادلیک
 همدا زنگاری آسماندا ایرکین اوچیشدان لذت آلاردیلار بیر آز
 مدندان سونگ چرچاق یازیش مقصدیدا بیر درخت شاخلاریگا
 قوندیلار درختنینگ آستیدا دانلار کوپ ایدی کبوترلاردان بیری
 دانلارنی کوردی استا قنات قاقیب پاستگا توشدی دانلاردان بیر

نیچتاسینی بیب کوردی دانلار. جودا مزلی ایدی دوستلارینی هم اوشبو مزلی دانلاردان بیبیش اوچون چاقیردی کبوترلار پاستگا توشدیلار و دان بیماق بیلان مشغول بولدیلار قارینلاری توپگاچ کبوترلاردان بیرری اوچیش اوچون قنات قاقدی لیکن اوچا آلمادی شوندا آياقلاری توزاق قا ایلینیب قالگانلیگینی توشوندی بونی کورگان باشقا کبوترلار هم اوچماقچی بولدی لیکن اوچا آلیشمادی چونکه اولار هم توزاق تورلاریگا ایلینیب قالیشگان ایدی پانادا یاشیرینیپ تورگان اوچی کبوترلارنینگ قنات تاووشلارینی ایشیتیپ خرسند بولدی و اوشا تامانگا قاراب یوگورا باشلادی کبوترلار اوزلارینی قوتقاریش مقصدیدا ترتیبهیز حرکت قیلاردیلار کبوترلارنینگ بو حرکتیدان توزاقنینگ گاهی او چیتی گاهی بو چیتی بیردان یوقاری کوتاریلار و پانا بیرگا توشاردی بو حالنی کورگان زیرک و خوشیار کبوترلاردان بیرری طوقی قالگان کبوترلارگا دیدی ای دوستلار بیز دانلارنی کورگان وقتیمیزدا بوندای تازه و مزلی دانلارنی کیم کیلتیرگانلیگینی اولامادیک اگردا اویلاگاتیمیزدا بوندای احوالگا توشماسدیک اگر حاضر هم بیر آز اویلاساک و بارچامیز بیرگالیکدا حرکت قیلساک بو حالگا نجات تاپا آلامیز بیر آز آرام آلاچ مینینگ فرمانیم بیلان همه بیرگالیکدا قنات قاقامیز و آسمانگا پرواز قیلامیز

اوچی درختگا یاقین کیلیشی آلدیدان طوقی اوچیشگا فرمان بیردی کبوترلار اونینگ فرمانی بیلان بیرگالیکدا قنات قاقیلار و توزاقنی هواگا آلیب کیتدیلار اوچی اوزیچا اویلادی بو کبوترلار آخر عاقبت چارچاشادی و بیرگا توشادیلار شوندا اولارنی توتامان لیکن کبوترلار قدرتلارینی باریچا قیلیب اوچنینگ کوزیدان اوزاقلاشدیلار و بیر جیلغا یاقینیکا کیلیب قوندیلار اوشبو جیلغا چیتیدا بیر سیچقان نینگ اینی بار ایدی طوقی بو سیچقان بیلان آلدیدان دوست بولیب

طوقی اونی زیرک دیب چاقیرار ایدی زیرک کبوترلار آوازی
ایشیتیب اینیدان چیقدی طوقی و دوستلارینی کورگاچ اولارنی آزاد
ایتیش مقصدیدا اونینگ آدیگا باردی شو وقت طوقی زیرک کا
دیدى اول دوستلاریمنى بندگان آزاد قیل

زیرک زودلیک بیلان اولارنینگ همه سینی آياقلارینی بندگان آزاد
قيلیدی کبوترلار سیچقانگا تشکر ایتیشیدی شوندا سونگ
کبوترلار بیر آز سوو ایچیدیلار و آسمانگا پرواز
قيلیدیلار کبوترلار اوزلارینی قایتا آزاد حس قیلشگاچ باشقا بوندای
ختا قیلماسلیکا و اوچنینگ توزاغیگا توشماسلیکا قرار قیلشیدی
(کلله و دمنه ائیردان)

نان قدری

بیر کونی نان ساتیب آلیش اوچون نان دکانیگا باردیم میندان
آلدین بیر بالا نان آلدی اوندان سونگ مینینگ نوبتیم کیلدی و مین
هم نان آلدیم اویگا قایتایاتگانیمدا میندان آلدین نان آلگان بالا
آلدیمدا کیتایاتگان ایدی بالا آلگان نانیدان بیر توغرام آلیب بیب
باراردی ناگهان اونینگ نانیدان بیر پرچه بیرگا توشیب کیتدی مین
ایسا نان پرچه سینی بیردان آلیب بیر چیتگا قویدیم بونی کورگان
بالا میندان عذر سورادی مین ایسا اونگا نان هم نان اونینگ
اوشاخی هم نان ایکانینی شو سببلی ناننی یوریب بیماسلیک
کیراکلیگینی توشونتیردیم

دابوسی قلعه سی تاریخیدان

دابوسی قلعه سی قدیمگی میان قال واحه سینینگ مرکزی بولیب
حاضرگی سمرقند ولایتی پختاچی تومانی حدودیدا زرفشان دریاسی

بوییدا جایلاشگان دابوس سوزی مستحکم قورغان دیگان معنائی
 بیلدیرادی قورغان تیمیردای مستحکم قلیب قوریلگانلیگی اوچون هم
 او تیمیر قورغان نامی بیلان یوریتیلگان ۱۹ عصردا یاشاگان بیریک
 تاریخی و گیارف عالم الیاقوبی دابوس قلعه سی نی دشمن تیغی
 اوتمایدیگان مستحکم و مشهور بیر شهر دیب تعریفلایدی نرشی
 نینگ (نارشاخی) بخارا تاریخی اثریدا پادشاه تورادیگان کتتا
 قیشلاق بایکند (پایکند) ایدی قلعه دابوسی یعنی دابوسی قلعه سی
 بولیب شهر دیب شونی اینار ایدیلار دیب یازادی ۷-۹ عصرلارگا
 دائر بعضی بیر تاریخی منبعه لاردا یازیلیشیجا دابوسیه سوغدیانه
 نینگ کتتا شهرلاریدان بیر بولیب عربلار استلاسی دوریدا اوندا
 ۱۰ مینگ قوشین جایلاشتیریلگان اورتا اثر تاریخی لاری ایستارخی و
 مقدسی لارنینگ یازیشلاریجا ۱۰ عصردا دابوسی قلعه سیدا رباد
 یعنی شهر اطرافیداگی بینا لار ۷۰ گیکترنی شهر قلعه سی ایسا
 ۲۲ گیکترنی اشغال قیلگان دابوس قلعه سی اطرافی بلند و مستحکم
 دیوارلار بیلان اورالگان دابوس قلعه سی ۲۳۲۵ ییل ایلگاری بنیاد
 ایتیلگان دیب تخمین قیلینادی دابوس قلعه سی جودا قدیمی شهر
 قلعه بولیشیگا قاراماسدان علمی ادبیات صحیفه لاریدا ۷ ۹
 عصرلادان باشلاب تیلگا آلینادی اوشا دور تاریخی لارنینگ
 یازیشیجا دابوس ۲ عصردا بخارا و سمرقند اورتاسیداگی اینگ
 مستحکم قلعه لاردان بیر بولگان قلعه اطرافی کتتا جارلیک لار
 بیلان اورالگان و بو بیردان هیچ کیم اوتا آماگان ۱۵ عصر
 تاریخی سی حافظ ابرو دابوس قلعه سی نی سلطان جلال الدین
 قوردرگان دیگان فکرنی ایتادی شیبانی نامه تاریخی داستانیدا
 دابوس قلعه سی ایچیدا مینگلاب اویلار بولگانلیگی و اولار جودا
 مستحکم ایکانلیگی یازیلگان بویوک ایپاک یولیدا جایلاشگان دابوسی
 قلعه سی ۹-۱۱ عصرلاردا تیز ریواجلانگان و بو بیردان اولوغ
 کیشیلار عالیم و ایجاد کارلار بیتیشیب چیققان دابوسیه شهری بیتتی

اقلم دولت لاری بیلان باغلانیب تورگان سودا کروانلاری سمرقند
 ایستخان کرمنه دابوسیه شهرلاریدان اوتیب بخاراگا و باشقا جایلارگا
 کیتگانلار دابوسیه لیک هنرمندلار تییارلاگان عالی نوع نفیس گزمال
 لار کلاچیلیک متل و شیشه بویوملار و تورلی زیب زینتلار
 بویوک ایپاک یولی ارقالی دنیاتینگ غرب و شرق مملکتلاریگا
 تارقالگان دابوسیه دا آلتین کوموش و مس تنگلار ضرب ایپیلگان
 قلعه ایچیدا ایککیتا حاووز قورال - یارق و آزیق - اوقت
 آنبارلاری اوتخانه لاری کلاچیلیک حومدانلاری بولگان شهرنینگ
 تورت دروازاسیدان بیتتاسی زرفشان دریاسی تاماتیگا قاراگان
 عمارتلارگا ایشلاتیلگان مرمر تاشلار قبر تاشلاری اولارداگی
 چیرایی یازوولار آلدیندان بو بیردا سنگ تراشلیک (تاشگا ایشلاو
 بیریشلیک تاش یونیش) خطاطلیک ریواج تاپگانینی کورساتادی
 حاضر دابوسیه شهری حرابه لاریدان بیزگاچا اوشا دوردان قالگان
 امام بهره آتا مقبره سی ساقلانیب قالگان

دنیا نینگ بییتی معجزه سی

قدیمگی دنیا نینگ نایاب انشآتلاری و هیکل تراشلیک
 یادگارلیکلارینی شوندا ی دیب اتاشگان افسوس که انسان عقل -
 نکاوتی و قولی گل اوستالار یاراتگان بو عجایب یادگارلیکلاردان
 بیزنینگ دوریمیزگاچا بعضی بیرلاری بییتب کیلگان مثلا مصر
 احراملاری پیرمیده لار بولار فرعونلارنینگ (قدیمگی مصر
 پادشاه لارینی شوندا ی اتاشگان) مقبره لاریدیر احراملارنینگ اینگ
 بوکساگی حوفو (حیابس) دیر اونینگ بلندیگی ۱۴۷ متر میلادان
 اول ۲۸ عصردا قوریلگان کتتالیگی جهتدان ایککینچی اوریندا
 حفره (حیفرین) پیرمیده سی تورادی او حوفو احرامیدان ۲ متر
 پست بو احرام آلدیدا باش قسمی آدم باشیگا اوخشاش شیر یعنی

سانام توربیدی بو صنم (هیکل) سفینکس دیب اتالادی سفینکس
 آبرزی انسان کبی دانالیک و شیر کبی کوچلیلیک رمزینی افاده
 لایدی بییتی معجزه نینگ یانا بیری سیمیرامیده نینگ سماوی
 باغلاریدیر بو باغلار حاضرگی عراق دولتی اطرافیدا جایلاشگان
 بابلدا بولگان بو باغلار پادشاه نووخاداناسا فرمایشی بیلان میلاددان
 اولگی ۶ عصردا بنیاد ایکیلگان افسوس فرود دریا سینینگ
 دهشتلی تاشقینی باغنی ویرانه گا ایلانتریدی کیچیک آسیا نینگ ایفیس
 شهریدگی یونان خداسی ارتیمیده عبادت خانه سی دنیا معجزه سی
 نینگ اوچینچیسیدیر او عبادت خانه مرمردان ایشلانگان بولیب
 قریب ۱۲۰ ییل دوامیدا قوریلگان میلاددان اولگی ۳۵۶ ییلدا
 گیراسترت دیگان کیمسا نام چیقارش مقصدیدا عبادت خانه گا اوت
 قویادی گریسیه نینگ جنوبیدا شهرتی عالمگا تارقاگان عبادت خانه
 بولیب اونینگ توریدا یونانلارنینگ عالی خداسی زیفس قیافه سی
 تصویرلانگان هیکال اورناتیلگان هیکال جودا اولوغوار بولیب
 بلندلیگی ۱۴ متردنیا نینگ نوپنداگی معجزه سی پادشاه موسال و
 اونینگ رفیقه سی ارتیمیسیه مقبره سی دیر مقبره سوزنینگ یونانچا
 نامی ماوزالی پادشاه موسال نامیدان آلینگان مقبره اوچ قوتدات
 عبارت بولیب مقبره مراسیملا اوتکازیش اوچون مولجاللانگان
 ایدی میلاددان اولگی ۳ عصردا راداس اهالیسی و اسکندر
 نوالقرنین سرکرده لاریدان بیری دمتری آراسیدگی بولگان اوروشدا
 راداسلیک لار غلبه قازاندیلار انا شو غلبه دان خاطره قالدیریش
 مقصدیدا کالسس نامی بیلان مشهور هیکال اورناتیلیب او ۳۶
 مترلی برانزه دان یاسالگان قویاش خداسی گیلیاس تصویریدیر
 بیتینچی معجزه مصردا نیل دریاسی نینگ دینگیزگا قوییلش جاییدا
 فراس آرالی بولگان اونی اسکندریه میاغی دیب اتاشگان میاق
 مناره شکلیدا قوریلگان او اوچ قوتلی بولیب بلندلیگی ۱۲۰ متر

ایدی اوچینچی قوتدا گلخن یاقیلیب او اوزاق مسافه دان کورینیپ
توریش مقصدیدا مخصوص کوزگولار اورناتیاینگان

خوقند و خوقندلیک لار

خوقندنی خوقند لطیف کهنه و همیشه نوقران شهر دیب
اولوغلشادی او وادی نینگ اینگ آباد شهرلاریدان بیریدیر
خوقندنینگ یاشی تخمینا ۲۰۰۰ ییلدان اشادی شهر هقیداگی ایلک
معلوماتلار ایسا ۱۰ اتردا یاشاب اوتگان عرب تاریخچیلاری
کتابلاریدا اوچرایدی ۱۷۱۰ ییلدا خوقند خانلیگینینگ ۱۹۱۷ یلدان
باشلاب ترکستان مختاریتی نینگ پایتختی بولگان خانلیک دوریدا
شهر هنرمندچیلیک و تجارت مرکزیکا ایلاندی اونینگ کوچه لاری
توغری و روان توشگان بولیب آزادالیکا قانتیغ اعتبار قیلینگان
اصلی اتالیالیک بولگان بینویری نینگ یازیشیچا ۱۷۲۵ ییلی خوقند
منطقه داگی اینگ بیریک شهرلاردان بیریکا ایلانگان ۱۸۴۲ ییلدا
شهر قلعه دیوارلار بیلان قورشاب الینگان و شهر نینگ هر بیر
دهه سیدا بیتتادان - ۱۲ تا دروازه قوریلگان اوشا بیتلاری شهردا
۵۴۰ محله بولیب هر بیر محله اوز مسجدیکا ایگا بولگان
شهرنینگ ۱۵ مدرسه سی معدلی خان ناریوتابی حاکم آیم خواجه
دادخواه مینگ آیم مدرسه لاری اجرالیب تورگان شهرداگی اینگ
بیریک تاریخی آبیده شوبهه سیز خداپارخان اورداسیدیر حشمتلی و
اولوغوار بو سرای قوریلیشی ۱۸۶۳ ییلدا باشلانیب ۱۸۷۳ ییلدا
توگالانگان اوردانینگ عمومی طرحی توغری تورنبورچاک شکلیدا
بنا بیردان انجا کوتاریلگان غیشت پایدیوار اوستیدا جایلاشگان
بولیب بورچاکلاری برخ لار بیلان مستحکملانگان الدینگ
کورینیشی کاشینلار بیلان بیزالگان خانه لارنینگ دیوارلاری گنج
ایماکارلیگی اوستون ایشیک دروازه لار ایسا یاغاچ

اویماکارلیگینیزگ یوکساک نمونه لاری بیلان بیزاتیلگان شفت لار بویاب نقشلانگان نقشلارنی خوقندلیک مشهور استالاردان محمد رسول حال محمد اوغلی ایشلانگان خوقند شاعرلار شهری امیر عمرخان بو بیردا ادبی موحیت یاراتیب ادبیات وکیل لارینی دایما قوللاب قوتلاب تورگان شهردان نادره اوویسی گلخنی مقیمی ذوقی فرقت انبر آتین چرخ کی زبردست شاعرلار بیتیشیب چیقان خوقند خلقی جودا مهماندوست تانتی اینی پیندا اوتا غرورلیدیر خوقندلیکلار اوزلارینینگ شهرلاری بیلان فخرلانیشادی اولار معامله نی اورنیگا قوییشادی خلق آراسیدا تارقالگان خوقندچا ملازمت عباره سی بیجز ایماس مبادا قوقانگا باریب قالسانگیز البته چایخانه چا آش بینگ چونغارانینگ دیوزیره گوروچیگا داملانگان آشنی اوزبکستان نینگ باشقا جاییدا اوچراتمایسیز پلاونی ایسا اساسا ایرکاکلار داملاشادی خوقنددا اوزبیکانه عرف - عادتلار قانتیغ ساقلانیب قالگان توی و نانتته لار اسکیه سیز اوتمایدی خوقند مرادجان احمداف حلیمه ناصرافه نبی رحیماف رحیمه میرزا هدافه بویوک صنعتکارلار و بویوک عالملارگا بییشیک بولدی

میرزا اولوغیکنینگ تورت اولوس تأریخیدان کتابیدان

اوغوزخاتنینگ تورک قوملاریگا لقب قویگانی ذکری

مذکور تاریخدا اوغوزخان تورکلارینینگ قوملاریگا لقبلار قویدیکه اولار تا حنوز اوشا اسمو لقبلار بیلان مشهوردورلار جمله دان، بیر نیچا قومنینگ لقبلاری قوییداگیچا مثلی اویغور، قانقلی، قیپچاق، قارلوق، خالاج، چیبوغ لار اما اویغورنینگ معنی سی (قوشماق) باغلاماق، بیرى بیرى بیلان عهدو پیمان باغلاماقدور بو

طافه اوغوزخانگا بیر جنگدا بی سبب مدد بیرگان ایردی شو
 باندین اولارگا اوغور دیب نام قویدی اما قاتقلى عقللیک،
 فراستلیک معنی سیدور اوزی بیر نارسادین بیر معنی چبقارماقدیر
 چونانچه، بیر جنگدا اوغوزخان قولیگا جوده کوپ بایلیک اولجا
 توشگان ایردی غنیمدان هشیار اولجا آلیب اونینگ قلفینی آجا
 آماگاندی لشکر داگیلارنینگ توغری فکر یوریتوچی بیر توده سی
 اورو نیب کوریشدی بترتیب قیلدیلار، اول اولجانی آسانلیکچا آجیب
 تاشلاب، آلدیلار اوز عقلو فراستی بیلان دنیا مشوکلارینی بیجا
 آگانیلکلاری سببیدن الارگا قاتقلى، دیب لقب قویدی اما قیبحاق
 قابوق سوزیدان آلینگان قابوق بیر درختنینگ نامیدور او درخت تته
 سینینگ ایچی کاوک بولادی پوستیدان تاشقاریسیدا کوکلیک یوقدیر
 یاغاچنینگ ایچی چیریگان، غاوک بولادی اینادیلارکه، جنگلارنینگ
 بیریدا اوغوزخان لشکری شکست ببیدور اوغوزخان آدملارنینگ
 گوچیلرینی قتل ایتیرادی اغوزخاندا دشمنگا قارشی ضربه بیریش
 قوتی قالمادی ناچار احوالدا قالیب، چیکینیشگا یوز توتادی صدرادا
 ایکی دریا آرایغیدا آتدان توشادی لشکر دا بیر خاتیننینگ قارنیدا
 حامله سی بار ایردی اول خاتیننینگ ایری و آتاسی اوغوزخان
 کوزی اونگیدا اوغوزخان دشمنی بیلان بولگان جنگدا اولدیریلگان
 ایردیلار ال خاتیننینگ دردی قوزیب قالدی الاجسیر قالگان خاتین
 یانیداگی درختنینگ کاوگیگا کیردی او بیردا اوندان بیر بقووت
 اوغیل توغیلدی اوغوزخان بو واقعدان خبر تاپگاچ، اولار حالیکا
 رحمو شفقت قلیب، دیدی آتاسی و باباسینی و آتاسی و ایرنیکه
 بیز طفیلی اولدیریشدی او بیتیم قالدی اوشا اوغیل بالانی فرزندلیککا
 قبول قیلدی و قیبحاق دیب نام بیردی بوگونگی کونداگی قیبحاق
 قومینی اونینگ بیر اوغلی نصلبدین دیب بیلادیلار اینیشلاریچا،
 اوغوزخاننینگ اوشا جنگیدا ایران والیسی ایتبراق همراه ایدی ۱۷
 بیل اوتگاچ، ایتبراق اوستیدان غالب کیلدی و ایراننی استلا قیلدی

بیر نیچا مدت اوتیب، اوغوزخان تورانگا قایتگاندا، ایشیتدیکه، یانا
 اونینگ دشمنلاری باش کوتارییدی فرزندیم دیب اتاگان قیپچاققا
 بویوردیکه، اوزیگا یاقین تابع آدملاری بیلان اولار اوستیگا بارگی
 و ماماق ناحیه لاریدا چیگره مُحافزه سی بیلان شوغوللانگی
 اوغوزخان فرمانیگا بناعن او یولگا توشدی و ایتیلگان جایگا
 اورناشدی و یاشاب قالدی قارلیق اوخوزخان غور سرحدیدان توران
 زمین تامان یولگا چیققاندا، قیش جودا ساووق کیلگان ایردی دشتو
 صحرانی تمام قار قاپلاب آلگان ایدی او بویوردیکه، هیچ کیم
 لشکردان آرقادا قالب کیتماسون اما قار کوبلیگی و ساووقنینگ
 کوچلیبگیدین بعضیلار لشکردان آرقادا قالب کیتدیلار اوغوزخانگا
 بو معلوم بولگاچ، یانا فرمان بیردی اولارنی تاپیب کیلدیلار
 سوراقلانلاری بیلان باریبیر قالب کیتگانلار بولدی سوریشتیرب،
 اولارگا قارلیق دیب نام بیردیلار ایندی قارلیق نجادینی اولار
 نصلیدان دیب بیلادیلار اما خالاج توغریسیدا دبیدیلارکه، اوغوزخان
 مملکتلار تسخیری اوچون لشکر تارتگاندا، حکم قیلدیلارکه، هیچ کیم
 لشکردان قالب کیتماسین اوشا اورتادا بیر کیشی بولیب، خاتینی
 حامیلاسیدان قوتولگان ایردی، اما کمقوتلیکدان سوتی یوق ایردی
 صحرادا بیر شاغالنی کوردیکه، تاووقنی اولاب تورگان ایردی
 سوتی یوق خاتیننینگ ایری اوشا آدم بیر کالتاکنی آلیب، شاغالگا
 آتدی توستاووقنی اوندان قوتقاریش و اونی خاتینینگا کباب قیلیب
 بیریش مقصدیدا ایردی، تا اول خاتیندا سوت پیدا بولگی و
 فرزندینی سوتدان تویدیرگی اوشا خاتین توستاووق کبابیدان بیگاچ،
 سوتی کوپایدی و فرزندینی سوت بیلا تویدیردی اوغوزخان اولار
 احوالیدین واقف بولوب، یول عزابینی تارتگان معنی سیدا بولگان
 خالاج نامینی اول اوغولغا قویدی نظم مضمونی شو یوموشدان
 یوپانیب بیر نیچا آدم، اوغوزخان ایشیتدی اولاردان شول دم
 اچچیغلانندی و دیدیکه، کیمنینگ خاتینی، توغسا، نیچون آرتگا تارتار

آتینی شاه زمان اونگا قویدی خالاج نام، معنی سی شول قالیب
 کیتما، آپاجان اما چیپورغا ایئادیلارکه، اوغوزخان سفزلارینینگ
 بیریدا شبگیرلیک یوز بیردی بیر بیرگا بیتگاچ، آندان توشدی و
 قاراسا، بیر توده آدملاری لشکردان اجراب آرقادا قالیب کیتگانلار
 قاتار آرقاسیدان کیلا باشلاگانلار شو سبیدان اول آدملارنی
 چیپورغانلار دیب اتادی نظم مضمونی چیپورغان تورکی دا قاتار
 معنی سینی بیرادی شهر یار شوندای دیب خطاب قیلدی اوغوزخان
 تورکی نجاد قوملاریگا شو ترظدا نام قویدی سین اولارنینگ
 بارچاسینی تورک دیب بیل، فقط ناملاری تورلیچا بولدی

اوغیزخاننینگ او اوغیل لاریگا اورین بیلگیلانی ذکری

ایتشلاریچا، بیر کونی اوغوزخان اوغیللاری بیلان بیرگالیکدا
 شکارگا بارگان ایدیلار شکار پیئیدا هر بیری بیر او کیتیدین
 قوودیلار ناگاه، هر آلتی نفر اوغول بیر بولوب شکارگاه دا
 بیرگالیکدا بیر جایگا بیتشیدیلار و بیر کمان بیلان اوچ زرّن اوق
 تاپیب آلدیلار اتالاری حضوریگا محاکمه گا کیتیردیلار اوغوزخان
 اولوغ اوغوللاریگا کماننی و اوچ کیچیک اوغلیگا اوقلارنی بیردی
 کانتا اوغیللاری کماننی اوچ قسّمگا بولوب آلدیلار شونینگ اوچون
 هم اولارنی بوزوق دیب اتایدیگان بولدیلار کیچیک اوغوللارنی
 اوچ اوق دیبیشادیگان بولیشدی یولدا بوزوقیلار اوچ اوقدین کوپ
 بولادیلار اوق ایلچی حکمینی، کمان پادشاه حکمینی کیتیرادی مثل
 اوق - ایلچی، کمان پادشاه بولدی یولدا ایلچی شاه دان کمتردیر او
 اونغاردین یوریشنی بوزوقلازغا بویرودی، جوانغاردین اوچ اوق
 کیتگان ایردی لیکن اوز اختیارینی بوزوققا بیردی اوچ اوق اوچون
 عمارت سالدی بوزوقلارگا دیدیکه سواری لار اوچون و قور
 اورنینی اونگ تاماندینکه اونغار دیرلار، تاپینلاسونلار و

اولتورسونلار اوچ اوقلارگا بویوردیکه چپ قول تاماندینکه، اونى
 جونغار دیرلای، سواری لارگا و پیاده لارگا اورین تیارلاب
 اولتورسونلار اورینلاریگا قایتسونلار، شونینگدیک، بوزوقلارگا
 ولیعهدلیک امرینی قیلدیلار اوچ اوروققا امرلیک فرمانی بیردیلار

خوارزمشاهلار

قاراخانی لار دولتی موارءالنهرنینگ اجتماعی اقتصادی و سیاسی
 ترقیاتیدا یانگی باسقچنی باشلاب بیردی ترک اھالیسی کوچمانچی
 قسمنینگ اوتراقلاشووی، شهرلار کوپاییشی و هنرمندچیلیک
 ایشلاب چیقاریشینینگ رواجلانیشی شرانیتدا کوچمانچی همدا اوتراق
 اھالی منفعتلاری قوشیلیب کیندی و مرکزلاشگان بیتنا دولت دائره
 سیدا ایککالاسینینگ بیرگالیکدا یاشاشی همدا همکارلیگی شکلی
 قرار تاپدی نتیجه دا ۱۲ ۱۳ اصلاردا خوارزمدا قیسقا بیر تاریخی
 وقت ایچیدا خوارزمشاه لار دولتی اولوغ جهان دولتیگا ایلاندى
 امودریاتینگ سول ساحلیدا جایلانگان گورگنج شهری ۱۰ اصلدا
 سیبیر و جنوبی روسیه بیلان کروان سوداسینینگ سونگی چگره
 سی بولگانلیگی نفیلی کاتنا اقتصادی همدا سیاسی احمیت کسب
 ایندی کروانلار بو بیردان اوترار گاچا بارار، او بیردان ایسا ختای
 گا آلیب بارادیگان یول نینگ نوبتداگی قسمیگا اوتاردیلار باشقا یول
 بخارا گا ایلتر و بو بیردا ختای همدا هندستانگا یاکه مرو و
 خراسان ارقالی یاقین شرققا آلیب بارادیگان یوللار ایریلیشیگاچا
 بیتیب باراردی سیردریانینگ قوبی اقمیدا جایلانگان بولیب، اسلامنی
 انچا آلدین قبول قیلگان جیند، خوواره و یانگی کند شهرلاری کاتنا
 حربی - سیاسی و اقتصادی احمیت کسب ایندی اولاردا اساسن
 اوغوزلار و قیپچاقلار یاشار، بوندا اوغوزلار تأسری کوپراق
 ایردی قیپچاقلار مملکتیدان بخاراگا آلیب بارادیگان کروان یولی

اوستیدا جابلاشگان جیند اجرالیب تورار ایردی، اورتا اصر سیاه
 لارینینگ تآکدلاشیچا، او کاتتا شهر ایردی خوارزمشاه لار
 لشکرینینگ اینگ یاخشی حربی قسملاری، سرکرده لاری شو
 بیردان آلینار، یوقاری لوازملی عملدارلار شو بیردان چیقار ایدی
 افسانه وی تیکیش اوزینی خوارزمشاه دیب اعلان قیلینیشیگآچا جیند
 نائبی بولگان، بو بیرگا اینگ سویوکلای اوغلی نصرالدین ملکشاه نی
 نائب اییب تاینلاگان ایدی ۱۰۹۷ ییلدا سلطان برک یاروق اوزیگا
 صادق بولگان انوش تیگینینگ اوغلی محمدنی خوارزم حکمداری
 اییب تاینلاب، اونگا خوارزمشاه عنوانینی بیرادی شو وقتدان
 باشلاب انوشتیگینی خوارزمشاه لاری دولتینینگ تارخی باشلانادی
 محمد خوارزمدا اوتتیز ییل حکمدارلیک قیلدی و وفاتیگآچا
 سنجرینینگ صادق ققراسی بولیب قالادی همدا اونینگ ایشانچینی
 قازانادی شونینگ اوچون محمد وفات ایگانیدا سنجر اونینگ اوغلی
 آتسیزنی سیرا ایکیلانماسدان وارث اییب تآنلایدی لکین او آتسیز
 خسوسیدا جودا یانگلیشگان ایدی آتسیز خوارزمینینگ تولا
 مستقلیگینی تآمنلای آلمادی قاراختایلارگا اولپان تولاشنی دوام
 اییتیرگان حالدا ۱۱۵۶ ییل ۳۰ اییولدا وفات ایدی نوبتدای
 حکمدار ایل ارسلان خراسانی بویسوندیریپ، آذربایجاندا اورناشیپ
 آلادی و او بیردا اولگی حاکمنی و سل قیایب قالدیرادی عین وقتدا او
 خوارزم همان اولپان تولاپ تورگان قارا ختایلارگا قارشى آغیر
 کوراش آلیب بارادی او ۱۱۷۲ ییلدا وفات ایتادی اونینگ کاتتا اوغلی
 تیکیش قاراختایلار مآدی بیلان تختنی ایگالایدی او آتاسی کبی
 قاراختایلارگا قارشى کوراش آلیب بارادی تیکیش نشاپورنی،
 سونگرا خراسانینگ معلوم قسمیمی باسیب آلادی و خوارزمشاهلار
 ملکیگا قوشیب آلادی تیکش اوکاسی سنجر یوراک خسته لیگیدین
 اولگانیدان سونگ ترکیبیگا خراسان، مرو و هرات کیرگان بویوک
 بیر دولتینینگ حکمداری بولیب قالادی تیکیش ۱۲۰۰ ییل ۳ ییولدا

بغداد اوستیگا قوشین تارتگاندا خوارزم و نشاپور اورتاسیدا وفات
ایتادی آرادان اوچ کون اوتیب اونینگ اوغلی محمد الاوالدین
گورگنج احوالیسی کوز اونگیدا سرای ایانلاری و امیرلاری حاضر
بولگان بیر وضیتدا خوارزمشاه لار دولتی تختیگا اوتیرادی آرادان
کوپ اومای اونینگ شاه لیگی تحلیکه لی بولیب قالدی محمدنینگ
اوگای اغاسی نشاپور حاکمی هندوخان و خوارزمشاه آناسی
تورکانخاتون بیلان باغلیق ایدی

اتانی غزللاریدان نمونه لار

اول صنمکیم، سو یاقاسیندا پریدیک اولتورور،
غایت نازوکلیدین سو بیلان یوتسا بولور
تا مگرکیم، سلسبل آبینا جولانی قیلا،
کیلدی جنت روزه سیندین آب کوسر ساری حور
اول ایلیککیم سودین آریقتور، یوماس آنی سودا،
بلکه سونی پاک بولسون دیب ایلیگی بیرلا یور
ایمدی بیلدیم راست ایرمیش، بلکه کوردوم کوز بیلا اولکه
دیرلار سو قیزی گاه گاه کوزگا کورینور
قاشلارینگ یاسین اتای کورگالی حسن ایچرا تاق،
هه، بچ دم محرابلاردا سوره یاسین اوقور

ای بیگیم، اوشبو یوز دیگول، شمس بیرلا قمرمودور،
ای بیگیم، اوشبو سوز دیگول، شهد بیلا شکرمودور

کوز اوچیدین قیا قیا شیوه بیلا باقیشلارینگ،
 جان تامورین قیار اوچون تیغمو یا نظرمودور
 بادی صباکه، کیلتورور جانغا ساچینگ نصیمینی،
 شهر صبانینگ ایلچسی حدودی خوش خبرمودور
 ضلف معبرینگیم، اول کوزدین اوچار اوزون کیچا،
 سرو سحینینگ اوستیدا زاغو ابیر ترمودور،
 زاری یوناله کم قیلای، راستین ایت، ای پاسبان،
 ایتلارینگ بو ناله دین هر کیچا درد سرمودور،
 لعل لبینگ خیالیدین بیر گوزار ایلاین دیدیم،
 جانی عزازدین ولی، آدمغا گزرمودور
 سورسانگ اتانی حالیدین نیتتی، ای پادشاه حسن،
 لطف و کرم گداییغا، تینگری اوچون، ضررمودور

ای بیگم، والله، کیرکماس تاندا جان سیزسز منگا،
 هم دیات خسرو عمر جاودان سیزسز منگا
 ایل تیریک دیرلار مینی، کونگولمدا فکر ایتسام، ولی،
 بو تیریکلیک تا بولور یوز مینگ گمان سیزسز منگا
 سیز صنملار خاندورسز، بنده نگیز دیر اینچو قول،
 بولماسون اوشبو اولوسغا خانومان سیزسز منگا
 جورونگیز مهر وفادور، دردینگیز اینی دوا،

فلمثل گر اولتورورسيز مهربان سيزسيز منگا
 وصلينگيز عمروم گلیدور، شوقيدا مين عنداليب،
 ياز فصليندا بولور وقت خزان سيزسيز منگا
 من بو يوز مشتاقيدورمين، باغو بوستان کيم بولور،
 بولماسون نسرينو لاله ارغوان سيزسيز منگا
 مين اتاي مين حسيني، حسن ايچيندا سين حسن
 کربلادور روزه باغ حنان سيزسيز منگا (۲۱۸)

سگاکي غزلاريدان نمونه لار

فرقتينگدا، اي پري، تن کويديو جان ييغلادی،
 دم بدم خود قیغودين ايککي کوزوم قان ييغلادی
 هيچ دوا يوق دردکيم جانيمدا بار، آني کوروب،
 تونني جاک ايتتي طبيبو دارو درمان ييغلادی
 دور تيشينگو گل يوزونگني آچيب آنچا ييغلاديم،
 کيم، مينگا مينگ نوحه بيرلا ابر نيسان ييغلادی
 تون کيچا مجلسدا يوزونگ وصفيدين کيچتي حديث،
 خمع حيرت اوتينا ياندييو سوزان ييغلادی
 ايشيگينگدا ايت بيکين باستيم نيچا ييل قاوريلوب،
 اوشبو حاليمني کوروب کافر، مسلمان ييغلادی
 ييغلادی حتی رقيبنينگ کيلغاندين رحمی منگا،

باری اول قانتیق کونگوللوک چینمو یالغان بیغلادی
 بیدیلار یوزدین کوروب سکاکی حالین سورمایین،
 خاسو، عام، شهره، ده، داناو، نادان بیغلادی

ای کوزوم، بیردم دم اور، باغریما هیچ قان قالمادی،
 وی بلا، رحم ایت، تنیما قایغودین جان قالمادی
 کیم کوروب نرگیس بیکین کوز بیلا گلتیک یوزینی،
 بیلگا بیریپ عقلو فهمین مستو حیران قالمادی
 تون چمن ایچرا نقابین آلمیش گل یوزدین،
 غنچه یانگایغ بولماگان چاک هیچ گیربان قالمادی
 خاطرین جمع ایتتی، ضلفینگایتیب بیر دم صبا،
 بارو بو یولدا مینیزگتیک اول پرشان قالمادی
 کانو دریانی خجل قیلدی کوزومنینگ صنعتی،
 لعلو دورغه خود ایاق آستیندا هیچ سان قالمادی
 غم مینینگ ذاتیمغا واجب بولدی، بولماس ممتنع،
 اوزگا حمل ایتما، جفا کوترورگا امکان قالمادی
 چونکیم اول عیسی نفس قصد ایتتی، سکاکی سنگا،
 درد دل برلا اولاردین اوزگا درمان قالمادی

لطفی غزلاریدان نمونه لار
 نیچا باغیریم اوت اوزا نارتیک یانگاقینگ کویدرور
 نیچا جانیم جوهرین «میمتیک ساقاقینگ کویدرور
 نیچا محراب ایچره مینی هر کیچا تانگفا تیکین،
 شمع تیک باشتین ایاق اول جفتو تاقینگ کویدرور
 قاشو، کوزو، ضلف، یوزو، قامتینگ قصدیمدادور،
 قایه،ینی ایتای، مینی باشتین ایاقینگ کویدرور
 هجر اوتی بیرلا رقیب جوری باغیرنی کویدرور،
 قالگاتینی گه گه برار حال سورماقینگ کویدرور
 کویمادی چون عشق اوتیندا گر سینداندیک وجود،
 لاجرم عذتیک آنی حالی فراقینگ کویدرور
 بیتماس ایردی بیزگا اول فل فل یاناقینگ اوتیدا،
 کیم، یانا افسون بیلا جادو قراقینگ کویدرور
 اوت اگر سونی کویورماس بولسا، ای جانو جهان،
 نی اوچون بو لطفی نینگ جانین دوداقینگ کویدرور

تاریخ ملک عجم دان

عجم تاریخیدا فارس سلاطینی تورت طبقه قلیب دورلار
 بورونگی طبقه پیشدادیلار دور و الار اون بیر کیشی دورلار کیم
 سلطنت قلیب دورلار تاریخ علماسی اتفاقی بیلا بیراوکیم اول

سلطنت قیلدی کیومرس ایردی اما آتینگ نسبتی بابیدا اختلاف
 کوپتور کیم مغ دیدور کیم آدم علیه السلام اولدور و بعضی مجم
 دین دیدورلار کیم آدم علیه السلام نینگ نبیره سیدورور بعضی فرس
 دین انی نوح اولادیدین دیدورلار ینه داغی سوز کوپ بار اما
 صفتدین دین بیرا قراق اوچون بیتلمادی آدم دیگنلار قولی بیلا آنی گل
 شاه دیدورلار بو معنی بیلا کیم بالچیدین یاراتیلدی یعنی کیشی
 پستی دین ایماس ایردی اوزگا قوللار بیلا کیم کیومرس دیدورلار
 معنسی حی ناطقدور یعنی تریکی کیم سوز ایتقای اما نظام التواریخ
 و جامع التواریخ جلالی دا اتفاق بیلا حُجَّت الاسلام امام محمد
 غزالی قُدس سِرّه نصیحت الملوک دا انی شیس علیه السلام نینگ
 قرداشیدوردیگنلار طعن قیلیدورلار نیدین کیم شیس علیه السلام ضحاک
 علوانی زمانیدادور و تاریخ اهلی اتفاقی بیله کیومرث زمانیدین
 ضحاک زمانیاچه مینگ ییلا یاقین بار هر تقدیر بیلا پادشاه لیغ قاعده
 سین اندین بورون یوق ایردی بو قاعده نی اول توزدی داغی اول کیشی
 کیم شهر بنا قیلدی اول ایردی دماوندنی بنا قیلدی اما اندا گاهی بولور
 ایردی داغی اصطحرنی بنا قیلدی اما کوپراک اوقات اندا بولور ایردی
 مینگ یاشادی و لکن عُمرینینگ آخیریدا قیرق ییل سلطنت قیلدی داغی
 سیامک اوغلی هوشنگنی کیم نبیره سی ایردی ولی عهد قلیب وفاسیز
 جهانغه وداع ایتتی شعر

بورونراق کیشیکیم توزوب رود و جام

جهاندارلیق تختین ایئی مقام

کیومرث ایدی لیک دوران دون

انگا بیردی باری باریدین بورون

هوشنگ خردمند و عادل و عالم پادشاه ایردی و جاویدان خرد
 آتلیغ کتابنی عمل حکمتیدا اول تصنیف قیلدیکیم معمون خلیفه وزیری

حسن سَحَل اندین بیرار نیمه تاپیب عرب تَلیگا ترجمه قیلیدور و شیخ بو
 علی مَسْکُویَه آداب العرب و الفُرس اتلیغ کتاییدا انی ذکر قیلورکیم
 انینگ مطالعه سی مُصَنَّفِینِیْگ فضل و کمالیغه دلیل دورور و عجم انی
 پیغمبر دیدور و داد و ادل جهتدین انی پیشداد دیدیلار و تیمیرنی تاشدین
 اول چبقاردی و طبری دیدورورکیم بیغاجدین تخته اول کیسیب
 اویلارگا ایشیک یاسادی و اکثر کانلارنی اول چبقاردی و بارس نی و
 ایتنی اول کیبیک آغوجی قیلدی و آتقه ایگار اول یاسادی و تیوه نی یوککا
 اول کیووردی و اریغلار قازیب سو سالیب آبادانلیق اول قیلدی بیرگا
 فُرش اول سالدی و تولکو و آس و تاین تیریسین اول کیارکا قابل قیلدی
 عمری بابیدا اختلاف بار اما پادشاه لیغی قیرق ییل ایردی و تَجَرُود و تقوی
 طریقی بیلا اوتکاردی دائیم تاغلاردا عبادت قیلور ایردی تواریخدا
 مونداق مَسَبِّتُورکیم دیولار انی سجده دا تاپیب تاش بیلا باشین یانچیب
 اولتوردیلار و طهمورث دیویند اوغلی ایردی اتاسی حالیدین واقف بولوب
 دیولارنی اتاسی قصاصیغه هلاک قیلدی داعی اول موضوع دا شهر بنا
 قیلیب اتین بلخ قویدی و سوس بیله بابل شهرینی هوشنگ یاسادی و
 بعضی کُوفه نی هم انکا منسوب قیلیدورلار شعر

یوق ایردی جهاندار انجوم سپاه

جهان ایچره اندافکه هوشنگ شاه

ملک شیوه شاه بی عدل

فلک دیوگا قیلدی انی قتل

طهمورث اتاسی هوشنگنین چون ولی عهدی ایردی انینگ اونیدا
 سلطنت تختیغه اولتوردی و خلائق رعایتیغه و مالیک حمایتیغه جد بیله
 مشغول بولدی و انینگ زمانیدا عظیم قحط واقع بولدی غنی لارغه
 بویوردی کیم چاشت طعامی بیله اوتکارگایلار و شام طعامینی مساکین گا
 بیرگایلار و روزه توتماق اندین سنت قالدی و اول بنا قیلغان شهرلار

مَرودا گهن دز و خراساندا نشابور و اصفهاندا مَهرز و ساریه و طبری
 دیب دور کیم عامل و طبرستانی اول بنا قیلدی و فارسی کتاب بیتماک و
 بوز توقوماقنی اول اختراع قیلدی و انینگ زمانیدا قاتیق وبا بولدی هر
 کیمینگ بیر سیوار کیشیسی بار ایرسا ایردی انینگ صورتین یاساب
 انینگ بیلا خرسند بولور ایردیلار تا بودیر، تلیقا مَجر بولدی و
 طهمورث اوتوز ایکی ییل ملک سوردی شعر

شهی ایردی طهمورث آفاقا ارا

که عدل ایتتی گهن تاق ارا

نیچه دیوبند ایردی اول ارجمند

اجل دیوی آخیر انی قیلدی بند

جمشید بعضی انی طهمورثینگ قارداشی دیدورلار و بعضی
 قارداشینینگ اوغلی چون سلطنت قه اولتوردی جهان ملکین عدل و داد
 بیلا توزدی و حسن و جمالدا دلپذیر و فضل و کمالدا بی نظیر ایردی
 غریب اختراع لار قیلدی اول جمله دین سپاهی لیک اسلحه سیدورکیم پیدا
 قیلدیکیم آندین بورون تاش و بیغاچ ایردی سینان و خربه و پیچاق بعضی
 خَته هم دیدورلار قالقان هم دیدورلارکیم اول یاسادی و همام بنا قیلدی و
